

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI**



**ABDUJABOROVA MA‘MURA TOSHMUXAMADOVNA**

# **MOLIYAVIY HISOBOT TAHLILI**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma  
sifatida tavsiya etilgan**

**TOSHKENT-2024**

**UO‘K: 658.14/.17(027.8)**

**KBK: 65.053я73**

Moliyaviy hisobot tahlili: O‘quv qo‘llanma / M.T.Abdujaborova; – T.:  
“PUBLISHING HIGH FUTURE” OK nashriyoti, 2024. – 187 bet.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tomonidan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobot tahlili” fani dasturi asosida nashrga tayyorlangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: i.f.d., prof. A.K.Ibragimov;  
i.f.d., dots. N.N.Mavlonov

ISBN: 978-9910-725-39-5

©“PUBLISHING HIGH FUTURE” OK, 2024

## KIRISH

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida belgilanganidek, “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish. Sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash...

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo‘l ochish. Iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish” bugungi kunda asosiy maqsadlarimizdan hisoblanadi”<sup>1</sup>.

“So‘nggi yillarda mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligiga erishish, eksport tarkibi hamda geografiyasini diversifikatsiya qilish, shuningdek, hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar ancha faollashdi.

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish ko‘p jihatdan iqtisodiyot yo‘nalishlari hamda sohalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini barpo etish bo‘yicha qulay shart-sharoitlarni yaratish bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uning tarmoqlari rolini, ayniqsa yuqori qo‘shimcha qiymatli

---

<sup>1</sup> “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga 1-ilova.

tayyor mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

---

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar tufayli sanoat bo'yicha mehnat unumdorligining jadal o'sishiga erishildi. Bunga birinchi navbatda, eksport qiluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning barqaror faoliyatini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektorida resurs bazasini kengaytirish va investitsiyaviy faollikni oshirish, iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar sabab bo'ldi<sup>2</sup>.

O'zbekistonda 2022 yilning 1 avgust holatiga ko'ra, jami faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) soni 565 982 tani tashkil etgan. Qayd etilishicha, ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 8,8 foizga oshgan. Shuningdek, 88,7 foizini (501 768 tani) tadbirkorlik subyektlari tashkil etgan.

O'z navbatida xo'jalik yurituvchi subyektlarda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sish sur'atlariga erishish, ishlab chiqarish mahsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlash mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritishga zamin yaratadi. Shuningdek bu borada iqtisodiyot tarmoqlariga chet el investitsiyalarini ko'proq kiritish muhim rolg' o'ynaydi.

Bularning barchasi xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzish, ularda aks ettirilgan axborotlarning ishonchliligini ta'minlash, ularni to'g'ri o'qish va kompleks tahlil etishni taqozo etadi.

Bularning barchasi mazkur o'quv qo'llanmaning zamonaviy iqtisodiyot talablariga muvofiq tayyorlanganidan dalolatdir.

---

<sup>2</sup> N.X.Jumaev, J.X.Ataniyazov. Iqtisodiyot barqarorligi nimalarda namoyon bo'ladi? 18.05.2021. [www.tfi.uz](http://www.tfi.uz)

---

## **1-bob. MOLIYAVIY HISOBOT TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Moliyaviy hisobot tahlili faniga kirish**

**1.2. Moliyaviy hisobot tahlilining predmeti, metodi, obykti, maqsadi, mazmuni, vazifalari, printsiplari, yo‘nalishlari va amalga oshirish bosqichlari**

### **1.3. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar va ularning manfaatlari**

### **1.4. Moliyaviy hisobot tahlilining maxsus usullari**

#### **1.1. “Moliyaviy hisobot tahlili” faniga kirish**

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida belgilanganidek, “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo‘l ochish. Iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish”<sup>3</sup> asosiy maqsadlarimizdan hisoblanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini tahlil qilish uning moliyaviy hisobotlarini baholash jarayonidir. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish xo‘jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy ahvoli, likvidligi, rentabelligi, ish aktivligi, moliyaviy resurslarning harakati, o‘z manbalarining yetarliligini baholash imkonini beradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotlarini tahlil qilishdan maqsad, uning faoliyatining ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlashdir.

---

<sup>3</sup> “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga 1-ilova.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘tmishi va hozirgi moliyaviy holati kelajakdagi harakatlarining sababchisi bo‘lishi shuningdek, o‘tgan davrdagi harakatlari istiqboldagi qarorlarga ta’sir qila olmasligini unutmaslik lozim.

Moliyaviy hisobot tahlili orqali nafaqat bo‘lib o‘tgan jarayonlarning samaradorligi va natijaviyligiga baho beriladi balki, ularning kelgusidagi kutilishlari

---

ham bashorat qilinadi. Bu esa raqobatdosh iqtisodiyotda yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy hisobotlar keng doiradagi iqtisodiy subyektlarning axborotga bo‘lgan talabini qanoatlantirish uchun tuziladi va davriy ravishda taqdim etiladi.

Moliyaviy hisobotning maqsadi xo‘jalik yurituvchi subyektning hisobot davridagi moliyaviy ahvoli, faoliyatining moliyaviy natijasi, pul mablag‘larining harakati, xususi kapitalning holati to‘g‘risidagi axborotni taqdim etish hisoblanadi.

Biroq moliyaviy hisobot iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foydalanuvchilarga zarur bo‘lgan barcha axborotni o‘z ichiga olmaydi, chunki moliyaviy hisobotlar asosan avvalgi faoliyatning natijalarini aks ettiradi.

Bugungi kunda moliyaviy hisobot tahlilini amalga oshirish jarayonida bir qancha muammoli jihatlarni kuzatish mumkin:

- moliyaviy hisobotlarning moliyaviy axborotdan foydalanuvchilarining ehtiyojlarini to‘la qondirmasligi. Ma’lumotlar real voqelikni aks ettirgan holdagina chiqarilgan tahliliy xulosalar manfaatli hisoblanadi. Tezkor va ishonchli axborot bazasi xo‘jalik subyektlari kelgusi faoliyatining istiqbolini shakllantirishga yordam beradi. Moliyaviy hisobotlar asosida amalga oshirilgan tahlil natijalari xavfsiz boshqaruv qarorlarini qabul qilishga va strategik maqsadlarning optimal yechimlariga erishishni ta’minlashi maqsadga muvofiqdir.

- moliyaviy hisobotlarni tahlil etish metodikasining xilma-xilligi va tizimli tashkil etilmasligi.

- strategik boshqarish uchun prognozlashga ahamiyat qaratilmasligi. An'anaviy tahlil xo'jalik yurituvchi subyektlarda o'tgan davrlar natijalarini, ularning sabab-oqibatlarini o'rganishdan iborat tor doiradagi iqtisodiy dastakka aylanib qolgan.

- moliyaviy hisobot tahlili yuzasidan alohida me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinmaganligi. Moliyaviy hisobot tahlili ko'rsatkichlari bo'yicha o'rtacha me'yorlarning belgilanmasligi ham natijalarni baholash va solishtirishda murakkabliklarni yuzaga keltiradi.

## **1.2. Moliyaviy hisobot tahlilining predmeti, metodi, obyekti, maqsadi, mazmuni, vazifalari, printsiplari, yo'nalishlari va amalga oshirish bosqichlari**

Moliyaviy holat tahlili o'tgan asrning boshlaridanoq fanning alohida sohasiga aylandi. Biroq tizimlashgan iqtisodiy tahlilning asoschisi frantsuz olimi J.Savari (XVII asr) hisoblanadi. U fanga sintetik va analitik hisob tushunchalarini kiritgan olim hisoblanadi. J.Savarining g'oyalari XIX asrga kelib, italyan buxgalteri tomonidan chuqurlashtirildi. Ular tomonidan buxgalteriya schetlarini sintetik va analitik tuzilishi ishlab chiqildi. Bu davrda iqtisodiy tahlil nazariyasi rivoji bilan I.Sher, P.Gerstner, F.Layter shug'ullangan. Xususan, P.Gerstner fanga balansning analitik tavsifi tushunchasini kiritdi. P.Gerstner qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarning nisbatida qarz mablag'lari yuqori chegarasini 50% darajasida o'rnatish, moliyaviy holat va likvidlilikning o'zaro aloqasini tadqiq etishni tavsiya etgan birinchi olim hisoblanadi. Rus olimlari A.K.Roshaxovskiy, A.P.Rudanovskiy, N.A.Blatov, I.R.Nikolaev ilk bora balansshunoslik nazariyasiga asos solgan olimlar sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, S.K.Tatur, M.F.Dyachkov, M.I.Bakanov, A.D.Sheremet, I.I.Karakoz, P.V.Dembinskiy kabi olimlar tahlilning ilmiy jihatlarini chuqur tadqiq etishgan.

Bugungi kunda iqtisodiy va moliyaviy tahlil nazariyasi hamda amaliyoti ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilmoqda.

A.A.Karimov o'z ilmiy tadqiqotida iqtisodiy tahlil boshqaruvning o'ziga xos bir funktsiyasi ekanligini ta'kidlagan holda xo'jalik yurituvchi subyektning

moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalarini miqdor va sifat jihatidan obyektiv foydalanish, resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini aniqlash hamda xo‘jalik yuritishning samaradorligini oshirishni ta’minlaydi deb, hisoblaydi<sup>4</sup>.

Milliy va xorijiy mutaxassislar nuqtai nazaridan kelib chiqib aytish mumkinki, moliyaviy tahlil moliyaviy resurslar va ularning oqimi bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganish, nazariy tizimlashtirish, tushuntirish va prognozlashtirishga yo‘naltirilgan inson faoliyati haqidagi fandır.

Demak, xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatining tahlili moliyaviy ahvolning real obrazini ifodalab beradigan ko‘rsatkichlarni baholash va tahlil etishning kompleks tadbiridir<sup>5</sup>.

Turli iqtisodchi olimlar tomonidan “Moliyaviy holat” tushunchasiga ta’rif berilgan(1.1-jadval):

### 1.1-jadval

#### “Moliyaviy holat” tushunchasiga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan

##### ta’riflar

Muallif	Ta’rif
Stetsenko A.A.	xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holati tahlilining maqsadi xo‘jalik yurituvchi subyekt joriy moliyaviy ahvoli haqida to‘liq va obyektiv ma’lumotga ega bo‘lish, uni o‘zgarish ehtimolini prognozlash, shuningdek takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlashdir <sup>6</sup> .
Savitskaya G.V.	xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holati xo‘jalik subyektining o‘z faoliyati, o‘zining to‘lovga qobiliyatligi va investitsion jozibadorligini saqlab turish imkoniyatini aks ettiradi <sup>7</sup> .
Milovanov D.Yu., Isaeva G.V., Zenkovich V.G.	xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holati xo‘jalik yurituvchi subyektning rivojini ta’minlaydigan, foyda va kapital o‘sishiga asoslangan holda, mavjud risk darajasida pul mablag‘larini qo‘yish, taqsimlash va ishlatishdir deb, talqin etilgan <sup>8</sup> .
Raximov M.Yu.	xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati iqtisodiy kategoriya sifatida xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z faoliyatini yuritishi, rivojlantirish va o‘z o‘zini moliyalashtirish imkoniyatlari yuzasidan kapitalning holatini harakterlaydi deb, ta’kidlagan <sup>9</sup> .

<sup>4</sup> Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2009.

Vahobov A.V., Ishonqulov N.F., Ibrohimov A.T.	xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini tahlil qilish, ya’ni moliyaviy tahlil - bu keng ko‘rsatkichlar tizimi orqali, kompleks usullaridan foydalanib xo‘jalik subyektlari moliyaviy resurslari borligini, ularning holatini, joylashganligi hamda ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi deb, hisoblaydilar <sup>10</sup> .
Abdujaborova M.T.	“Moliyaviy holat” xo‘jalik yurituvchi subyektning normal faoliyati uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganligi, ularning maqsadli joylashtirilganligi va samarali foydalanilganligi, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan moliyaviy hamkorligi, to‘lovga qobilligi va moliyaviy barqarorligi bilan tavsiflanadi.

<sup>5</sup>Abdujaborova M.T. Xo‘jalik subyektlari moliyaviy holatining tahlili // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy electron jurnali. №2 - Toshkent, 2019. 1-14 betlar.

<sup>6</sup>Стеценко А.А. Анализ финансового состояния предприятия: сущность и методика проведения. Экономика знаний: теория и практика. 2017. №2. -87-101 стр.

<sup>7</sup>Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник. Москва, Инфра-М, 2009, 538 стр.

<sup>8</sup>Милованов Д.Ю., Исаева Г.В., Зенкович В.Г. Методы оценки финансового состояния организаций. Молодой ученый, 2018. №22. -426-427 стр.

<sup>9</sup>Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O‘quv qo‘llanma. T.; “Iqtisod-moliya”, 2015, 290 b.

<sup>10</sup>Vahobov A.V., Ishonqulov N.F, Ibrohimov A.T. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. T.; “Iqtisod-moliya”, 2013, 600 b.

Tadqiqotlardan ko‘rinadiki, xo‘jalik subyektlarining moliyaviy holatini tahlil etish, ular yuzasidan moliya-xo‘jalik faoliyatiga doir aniq xulosalarga kelishga hamda kelajak uchun muhim strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Biz, xo‘jalik subyektlari moliyaviy holatini tahlil etishning zaruriy jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi deb, hisoblaymiz<sup>5</sup>:

xo‘jalik subyektlari moliyaviy holati va barqarorligini muntazam tahlil etish va prognozlash asosida joriy hamda istiqboldagi iqtisodiy rivojlanishining o‘zgarishlarini aniq baholashda; kreditor qarzdorlik va uning oqlanishi yuzasidan moliyaviy imkoniyatlari

(likvidlik va to‘lovga layoqatlik)ni aniqlashda; xo‘jalik subyektlarining investorlar va hamkorlar, kontragentlarning keng doirasi uchun (faoliyat natijaviyligi, ish va bozor aktivligi ko‘rsatkichlari orqali) ishonchligini baholashda; xo‘jalik subyektlarining iqtisodiy nochorligi (bankrotlik)ka qarshi choralar ko‘rishda potensial imkoniyatlarini baholashda.

<sup>5</sup> Abdujaborova M.T. Xo‘jalik subyektlari moliyaviy holatining tahlili // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy electron jurnali. №2 - Toshkent, 2019. 1-14 betlar.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatidagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holati va uning to‘lovga qobiliyatligini yaxshilashning imkoniyatlarini aniqlash moliyaviy holat tahlilining maqsadi hisoblanadi.

Xorijlik iqtisodchi olimi G.V.Savitskaya tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat deb, hisoblaydi<sup>6</sup>(1.1-rasm):

<b>Moliyaviy holat tahlilining asosiy vazifalari</b>			
xo‘jalik subyekt holatini o‘z vaqtida va obyektiv uning nuqtalarini yuzaga kelish sabablarini o‘rganish	yurituvchi moliyaviy tashxislash, "og‘riqli aniqlash,	xo‘jalik subyekt holati, uning to‘lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligini yaxshilash aniqlash	yurituvchi moliyaviy holatini mustahkamlashga yo‘naltirilgan konkret tadbirlarni ishlab chiqish
			erishish mumkin bo‘lgan moliyaviy natijalarni bashoratlash va resurslardan turli variantlarda foydalanish sharoitida moliyaviy holat modellarini ishlab chiqish

**1.1-rasm. Moliyaviy holat tahlilining vazifalari**

Moliyaviy hisobot tahlilining asosiy vazifalarini uning maqsadiga tayangan holda quyidagicha tarkiblash mumkin:

- mulk va uning manbalarining holati hamda o‘zgarishlarini tahlil etish;
- moliyaviy natijaviylik va rentabellikni baholash;
- pul mablag‘lari harakatini tahlil etish;
- xususiy mablag‘lar va ularning o‘zgarishini tahlil etish;
- investitsion faoliyat va investitsion jozibadorlikni tahlili;
- moliyaviy holatni kompleks baholash;
- moliyaviy holatini yaxshilash yuzasidan mavjud imkoniyatlarni aniqlash va ularni yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlarini belgilab olish.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy holat tahlilining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda xo‘jalik subyektlari moliyaviy holati tahlilini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

<sup>6</sup> Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник. Москва, Инфра-М, 2009, 538 стр.

xo'jalik subyektlari moliyaviy holatining dastlabki tavsifi;  
hisobotlar moddalaridagi axborotlarning ishonchliligini baholash;  
buxgalteriya balansining vertikal va gorizontal tahlili; to'lovga  
qobiliyatlikning tahlili; balans likvidligining tahlili; moliyaviy  
barqarorlikning tahlili; mablag'lar aylanishining tahlili.

Moliyaviy hisobot tahlilining maqsadi moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan axborotlar asosida tahliliy amallarni amalga oshirgan holda tegishli boshqaruv va manfaatli qarorlarni qabul qilishdir.

Moliyaviy hisobot tahlilining predmeti axborotdan foydalanuvchilarning manfaatlaridan inobatga olgan holda xo'jalik yurituvchi subyektlarning xo'jalikmoliyaviy faoliyati barqarorligi, natijaviyligi va rivojlanish istiqbollarini moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida ko'rsatkichlar tizimini qo'llagan holda o'rganishdir.

Moliyaviy hisobot tahlili metodi deganda, fanning predmetini o'rganish jarayonida qo'llaniladigan usullar majmui tushuniladi.

Moliyaviy hisobot tahlilining obykti xo'jalik yurituvchi subyektlarning xo'jalik-moliyaviy faoliyatining natijalarini ifoda etadigan moliyaviy hisobotlar hamda ularga ilova qilinadigan izoh va tushuntirishlar hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot tahlili quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim:

Ishonchlilik – moliyaviy hisobotda aks ettirilgan axborot aniq, xatosiz va to'liq bo'lishi lozim.

Ko'rsatkichlarning qiyosiyliigi – moliyaviy hisobot ma'lumotlarini tahlil etish jarayonida ko'rsatkichlar taqqoslanadigan holatga keltirilishi lozim.

Tushunarlilik – moliyaviy hisobotda aks ettirilgan axborotlar manfaatdor tomonlar uchun tushunarli va sodda bo'lishi lozim.

Ahamiyatlilik – moliyaviy axborotning ahamiyatliligi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qarorlar qabul qilish jarayonida ularning ehtiyojini qondirishida namoyon bo'ladi.

Muhimlik – agar axborotning tushirib qoldirilishi yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilishi axborotdan foydalanuvchilarning moliyaviy hisobot asosida qabul qiladigan iqtisodiy qarorlariga ta’sir qilsa, bunday axborot muhim hisoblanadi.

Zamonaviylik – moliyaviy hisobot axborotlarining o‘z vaqtida berilgan taqdim etilishi uning foydaliligini oshiradi.

Xolislik – moliyaviy hisobot axborotlari bir tomonning zarari, ikkinchi tomonning foydasiga ishlamasligi lozim.

Moliyaviy hisobot tahlili quyidagi bosqichlarda tashkil etilishi lozim:

1. Tahlilning dasturi va rejasini shakllantirish. Bu bosqichda tahlilning maqsadi, vazifalari, obyekti, subyekti, moddiy ta’minot, resurslar sarfi, tahlil natijasining rasmiylashtirilishi belgilab olinadi.

2. Axborot bazasini shakllantirish va tahlil uchun moslashtirish. Bu bosqichda tegishli davrlar uchun moliyaviy hisobotlar yig‘iladi, ularda ifoda etilgan ma’lumotlar tahlil uchun moslashtiriladi.

3. Axborotni tahlil qilish. Moliyaviy tahlilning maxsus usullari hisoblangan hisobotni o‘qish, vertikal va gorizontaal tahlili, koeffitsientlar metodlaridan foydalangan holda tahlil amalga oshiriladi.

4. Tahlil natijalarini rasmiylashtirish va talqin qilish. Bu bosqichda tahlil natijasi tegishlicha rasmiylashtiriladi va amalga oshirilgan tahlil natijalari asosida xulosa tayyorlanadi.

5. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Amalga oshirilgan tahlil natijalari bo‘yicha tegishlicha boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Jumladan, faoliyatni kengaytirish, foydasiz mahsulot(ish, xizmat) hajmini kamaytirish, moliyaviy barqarorlik darajasini oshirish yoki saqlab turish, foyda hajmi va rentabellik darajasini oshirish, faoliyat turlari bo‘yicha pul oqimini optimal harakatini ta’minlash, o‘z manbalaridan samarali foydalanishni ta’minlash va h.k.

### **1.3. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar va ularning manfaatlari**

Moliyaviy hisobot axborotdan foydalanuvchilar va tahlil etadigan iqtisodiy subyektlar moliyaviy hisobot tahlilining subyektlari hisoblanadi. Ularni manfaatdorligi nuqtai nazaridan ichki va tashqi subyektlarga bo‘lish mumkin.

Ichki tahlil subyektlariga asosan xo‘jalik subyektining rahbar xodimlari kiradi. Tashqi tahlil subyektlari investorlar, kreditorlar, xaridorlar, auditorlik xo‘jalik yurituvchi subyektlari, davlat soliq organlari, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilardan iborat.

Har bir moliyaviy hisobot tahlili subyektlari ma’lum manfaatni ko‘zlagan holda tahlilni amalga oshiradi(1.2-jadval):

**1.2-jadval**

**Moliyaviy hisobot tahlilining subyektlari va ularning manfaatlari**

<b>Tahlil subyektlari</b>	<b>Izoh</b>
Mulk egalari	moddiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan samarali foydalanilayotganligi, moliyaviy barqarorlik darajasi, foydalilik darajasini bilishdan manfaatdordirlar
Investorlar	yo‘naltirilgan mablag‘larning foydaliligini aniqlash maqsadida investitsion jozibadorlik tahlilini amalga oshiradilar
Kreditorlar	xo‘jalik subyektlarining faoliyatiga yo‘naltiriladigan o‘z resurslarining qaytishini aniqlash maqsadida to‘lovga qobiliyatlilikni tahlil qilishadi;
Xaridorlar	moliyaviy hisobot axborotlarini to‘g‘ri talqin qilish orqali xo‘jalik yurituvchi subyekt mahsulot(ish, xizmat)larini xaridorgirligini o‘rganishadi. Jumladan, debitorlik qarzlarning mavjud summasi, bir tomondan xo‘jalik subyekti mablag‘larining o‘z ixtiyoridan tashqarida ekanligini ifodalasa, ikkinchi tomondan, mahsulot(ish, xizmat) ga nisbatan talab borligi va sotilayotganligini anglatadi.

Xodimlar	xo'jalik yurituvchi subyektning ish haqlari, nafaqalarni o'z vaqtida to'lash qobiliyatini aniqlash maqsadida xo'jalik-moliyaviy faoliyati barqarorligi va rentabelligi to'g'risidagi axborotdan manfaatdordir.
Davlat soliq organlari	soliq tushumlarining o'z vaqtida kelib tushishidan manfaatdor bo'lib, xo'jalik subyektlari moliyaviy faoliyati barqarorligi saqlanib turishini o'rganib boradilar
Auditorlik tashkilotlari	xo'jalik yurituvchi subyektlari turdosh xizmatlar ko'rsatish jarayonida mijoz bo'lgan xo'jalik subyektining faoliyatini tahlil qiladilar.

#### **1.4. Moliyaviy hisobot tahlilining maxsus usullari**

Moliyaviy hisobot tahlilining quyidagi maxsus usullarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- moliyaviy hisobotni o'qish;
- gorizontal tahlil;
- vertikal tahlil; - koefitsientlar usuli; - omilli tahlil.

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati tahlilidan manfaatdor barcha iqtisodiy subyektlar ma'lum bir maqsadni ko'zlaydilar. Jumladan, investorlar qo'yilgan mablag'larning qaytishi va muayyan foyda olishga ishonchi komil bo'lishi kerak. Tovar yetkazib beruvchilar xaridor likvidli, to'lovga qobiliyatli va hisob-kitoblarda ishonchli ekanini bilishi lozim. Buning barchasini xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotlaridagi axborotlarni o'qish orqali aniqlash mumkin.

Vertikal tahlil xo'jalik yurituvchi subyektning mulki va uning manbalari tuzilishini ifodalaydi. Gorizontal tahlil xo'jalik yurituvchi subyektning mulki va uning manbalarini dinamik o'zgarishlarini aks ettiradi. Gorizontal va vertikal qatorlar har doim bir-birini to'ldiradi.

Koefitsientlar usuli moliyaviy hisobotlardagi ko'rsatkichlarning nisbati orqali aniqlanadi.

Omilli tahlil alohida olingan ko'rsatkichlarning umumiy birlikka ta'sirini o'rganishda qo'llaniladi.

Trend tahlili – gorizontal tahlil turi bo'lib, asos ko'rsatkichga nisbatan dinamik o'rganishdir. Shuningdek, xorijlik iqtisodchi olim Ch.Tzisyuan trendli tahlil

gorizontal tahlilning bir ko‘rinishi sifatida ko‘rsatkichlarni taqqoslash bir necha yillar bo‘yicha amalga oshirilganda foydalaniladi deb, ta’kidlagan<sup>7</sup>.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Moliyaviy hisobot tahlili fanining predmetini ta’riflang.
2. Moliyaviy hisobot tahlilining obykti haqida nima bilasiz?
3. Moliyaviy hisobot tahlilining maqsadini ayting.
4. Moliyaviy hisobot tahlilining vazifalari nimalardan iborat?
5. Moliyaviy hisobot tahlili printsiplari haqida nima bilasiz?
6. Moliyaviy hisobot tahlilining amalga oshirish bosqichlarini aytib o‘ting.
7. Moliyaviy hisobot tahlilining subyektlari va ularning manfaatlarini izohlang.


- 
8. Moliyaviy hisobot tahlilida qo‘llaniladigan usullarni aytib o‘ting.
  9. Moliyaviy hisobotning vertikal va gorizontal tahlili qanday amalga oshiriladi?
  10. Moliyaviy hisobotning trend tahlili haqida gapiring.
  11. Moliyaviy hisobot tahlilida koeffitsientlar metodini qo‘llash haqida gapiring.
  12. Moliyaviy hisobot tahlilining natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish tartibi haqida gapiring.
  13. Moliyaviy hisobot tahlilining axborot ta’minoti haqida aytib o‘ting.

### **Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:**

**1-topshiriq. Xo‘jalik yurituvchi subyekt (biznes egasi) faoliyatining SWOT-tahlilini amalga oshiring.**


---

<sup>7</sup> Чжан Цзысюань. Методы оценки финансового состояния предприятий в условиях кризиса. Евразийский Научный Журнал, 2018. №6. -41-44 стр.



Izoh \_\_\_\_\_

2-topshiriq. Xo‘jalik yurituvchi subyekt (biznes egasi) faoliyatiga ta’sir etuvchi tashqi jihatlar ta’sirini PEST-tahlil orqali aniqlang.



Izoh \_\_\_\_\_

3-topshiriq. “Porterning besh kuch” metodi yordamida xo‘jalik yurituvchi subyekt (biznes) strategiyasining tahlilini amalga oshiring.



Izoh \_\_\_\_\_

4-topshiriq. Balans aktivi moddalarining gorizontaal va vertikal tahlilini amalga oshiring.

Balans aktivi	Yil boshi	Yil oxiri		
---------------	-----------	-----------	--	--

	Summa	Ulushi, %	Summa	Ulushi, %	Mutloq farq	O'sish surhati, %
A	1	2	3	4	5	6
Xo'jalik yurituvchi subyekt mol-mulki qiymati		100		100		
1. Uzoq muddatli aktivlar						
2. Joriy aktivlar						
<b>SHu jumladan:</b>						
2.1. Zaxira va xarajatlar						
2.2. Debitorlik qarzlari						
2.3. Pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar						

**Xulosa.** \_\_\_\_\_

**5-topshiriq. Moliyaviy koeffitsientlar yordamida to'lovga qobiliyatlikka baho bering.**

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi(+, -)
1	2	3	4	5
1	Pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar			
2	Debitorlik qarzlari			
	Muddati o'tgan debitorlik qarzlari			
3	Tovar-moddiy zaxiralar			
6	Joriy majburiyatlar			
7	Mutloq likvidlilik koeffitsienti			
8.	Oraliqni qoplash koeffitsienti			
9.	Joriy likvidlilik koeffitsienti			

**Xulosa** \_\_\_\_\_

## **2-bob. BUXGALTERIYA BALANSI VA MOLIYAVIY HOLAT TAHLILI**

**2.1. Buxgalteriya balansi tahlilini amalga oshirishdagi muhim jihatlar va muammolar**

**2.2. Buxgalteriya balansining muhim elementlari: aktiv, kapital va majburiyat tahlili**

**2.3. Buxgalteriya balansining gorizontal, vertikal va trend tahlili**

**2.4. Moliyaviy barqarorlik tahlili**

**2.5. To'lovga qobiliyatlilik va balans likvidligi tahlili**

**2.6. Iqtisodiy nochorlik tahlili**

**2.7. Ish aktivligining tahlili**

**2.1. Buxgalteriya balansi tahlilini amalga oshirishdagi muhim jihatlar va muammolar**

“So‘nggi yillarda mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligiga erishish, eksport tarkibi hamda geografiasini diversifikatsiya qilish, shuningdek, hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar ancha faollashdi. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish ko‘p jihatdan iqtisodiyot yo‘nalishlari hamda sohalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini barpo etish bo‘yicha qulay shart-sharoitlarni yaratish bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uning tarmoqlari rolini, ayniqsa yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda<sup>8</sup>”.

---

<sup>8</sup> N.X.Jumaev, J.X.Ataniyazov. Iqtisodiyot barqarorligi nimalarda namoyon bo‘ladi? 18.05.2021. [www.tfi.uz](http://www.tfi.uz)

O‘z navbatida korxonalarda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning barqaror o‘shish sur‘atlariga erishish, ishlab chiqarish mahsulotlari raqobatbardoshligini ta‘minlash mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritishga zamin yaratadi.

---

Shuningdek bu borada iqtisodiyot tarmoqlariga chet el investitsiyalarini ko‘proq kiritish muhim rol o‘ynaydi.

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining joriy etilishi tashqi foydalanuvchilar tomonidan biror-bir korxonaga nisbatan iqtisodiy qaror qabul qilishda qulaylik yaratadi. Jumladan, mamlakatimizdagi yirik korxonalariga xalqaro moliya bozorlarida ishtirok etish imkoni yaratiladi. Natijada korxonalarining ijobiy moliyaviy natijaviylikka erishishi va barqaror rivojlanishi davlat byudjetiga tushumning oshishiga olib keladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish, korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy, mulkiy va moliyaviy holatini, ularning o‘tgan davrlardagi moliyaviy natijalarini qiyosiy o‘rganish orqali obyektiv baholash kelgusidagi faoliyatni kengaytirish, tashqi moliyaviy manbalarni izlab topish, xalqaro moliyaviy institutlardan kapital jalb qilish imkonini beradi.

Fikrimizcha, moliyaviy holat tahlilining maqsadi korxonalar joriy moliyaviy ahvolini baholash va kelgusi istiqbollari bashoratlardan iboratdir.

“Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida har bir xo‘jalik subyektining faoliyati bozor munosabatlari ishtirokchilarining diqqat predmetida hisoblanadi. Shu bois mudom moliyaviy faoliyatdagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish, korxonalar moliyaviy holatini yaxshilash rezervlarini aniqlash zarur. Korxonaning to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishi, o‘z faoliyatini moliyalashtirish imkoniga ega ekanligi uning yaxshi moliyaviy holatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Moliyaviy holat tahlili quyidagi vazifalarni hal etish imkonini beradi:

- korxonalar moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini va moliyaviy resurslar oqimini baholash;
- moliyaviy holatni baholash va bashoratlash modellarini tuzish, omilli tahlilni amalga oshirish;

- xo‘jalik faoliyatining real sharoitlaridan kelib chiqqan holda ehtimoliy moliyaviy natijalarni prognozlash;
- moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanish va moliyaviy holatni mustahkamlash bo‘yicha aniq tadbirlarni ishlab chiqish”<sup>9</sup>.

Demak, korxonada moliyaviy holatining tahlili moliyaviy ahvolding real obrazini ifodalab beradigan ko‘rsatkichlarni baholash va tahlil etishning kompleks tadbiridir.

Har bir korxonada buxgalteriya faoliyatining asosiy hujjati balans hisoblanadi. Balans korxonaning mablag‘lari va ularning manbalari holatini ma’lum davr uchun aks ettiradigan muhim iqtisodiy jadvalni ifodalaydi.

Uning shakli aniq tartibga solingan va turli mulkchilik shaklidagi korxonalar uchun standart hisoblanadi. Bu buxgalteriya balansini o‘qish va tahlil qilish jarayonini sezilarli osonlashtiradi.

Har bir iqtisodiy tahlil subyekti ma’lum bir maqsaddan kelib chiqib, xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotlarini tahlil qiladi. Jumladan, xo‘jalik yurituvchi subyektning rahbarlari o‘z xo‘jalik-moliyaviy faoliyatining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash va ularni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lish, investorlar xo‘jalik yurituvchi subyekt investitsion muhitini aniqlash, auditorlar tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektdagi qoidabuzarliklar va kamchiliklarni aniqlash, tahlilchilar va yuqori tashkilotlar xodimlari umumiy hisobotni tuzish uchun moliyaviy tahlilni amalga oshiradilar.

M.Q.Pardaev va b. ga ko‘ra, moliyaviy ahvolni tahlil qilish uchun dastlab buxgalteriya balansini tahlilga tayyorlanishi kerak. Tahlilga tayyorgarlik balansni tozalash, raqamlarni yaxlitlash va bo‘limlarni guruhlashdan boshlanadi.

Buxgalteriya balansini tahlil etish odatda tahlil qilinayotgan davrda balans qiymatini o‘zgarishini o‘rganish bilan boshlanadi. Balans qiymatining o‘zgarishi

---

<sup>9</sup> Ивасюк Р.А., Козлова Е.Е. Анализ финансового состояния малых предприятий. Экономический анализ: теория и практика. №23(188), 2010, 32-39 стр.

hisobot davrida korxonada xo‘jalik aylanmasining kengayishi yoki qisqarayotganligidan darak beradi.

---

Xo‘jalik yurituvchi subyekt buxgalteriya balansidagi o‘zgarish va mulkdan foydalanishni umumiy baholashdan keyin uning bo‘limlari va moddalari bo‘yicha tahlilni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Balans passivi strukturasi tahlil etishda xo‘jalik faoliyatini moliyalashtirish uchun o‘z manbalari va jalb qilingan qarz mablag‘larining jami manbalar tarkibidagi ulushini o‘rganish lozim. Jami manbalar tarkibida o‘z mablag‘lari ulushining oshishi korxonada moliyaviy barqarorligining oshishi, qarz mablag‘lari ulushining yuqori bo‘lishi korxonada moliyaviy nobarqarorligi, to‘lovga qobiliyatsizligiga sabab bo‘lishi mumkin.

Biroq buxgalteriya balansi yordamida xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy-iqtisodiy holatini baholashda shuni nazarda tutish lozimki, buxgalteriya balansida ma‘lum bir shartli holatlar, xususiyatlar va qarama-qarshiliklar kuzatiladi. Jumladan:

1. Ma‘lumki, buxgalteriya balansi muayyan hisobot davri uchun tuziladi. Natijada xo‘jalik yurituvchi subyekt balansi ikki muayyan davr orasidagi tasvirni ifodalaydi, unda faqat o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. Biroq aktivlar, o‘z va qarz mablag‘lari harakatini buxgalteriya balansi o‘zida aks ettirmaydi. Bu shuni anglatadiki, buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari qoldiqlari bo‘yicha batafsil axborot mavjud, hisobvaraqlardagi aylanmalar bo‘yicha ma‘lumot mavjud emas yoki nazarda tutilmagan. Natijada investor qaror qabul qilish jarayonida qo‘shimcha ma‘lumotlarga ehtiyoj sezadi hamda buxgalteriya balansiga berilgan izohlardan foydalanishiga to‘g‘ri keladi.

2. Buxgalteriya balansi hisobot davri uchun korxonada moliyaviy-iqtisodiy holatini umumiy aks ettiriladigan tarzda tuziladi. Balans orqali mulk haqida umumiy xulosa qilish mumkin. Aktivning aniq turini kapitalning aniq turi bilan bog‘lashning

imkoni yo‘q. Shu bois, buxgalteriya balansi korxonada rahbari, aksionerlar, investorlarga iqtisodiy va moliyaviy ahvol haqida bir tomonlama axborot beradi.

3. Balansda uning qiymatini qaysi omillar va xo‘jalik operatsiyalari yordamida o‘zgarganligini ko‘rishning imkoni yo‘q. Aniqroq javobga ega bo‘lish uchun qo‘shimcha axborot kerak bo‘ladi, maxsus moliyaviy tahlilni amalga oshirish zaruriyati tug‘iladi.

4. Aktivlar likvidlilik darajasining oshishiga qarab joylashtirilgan. MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarda buxgalteriya balansi aktiv moddalarini tarkibida dastlab yuqori likvidli aktivlar, so‘ngida doimiy aktivlar joylashtirilgan.

5. Unda mavjud aylanma aktivlarning qiymati sotib olingan narxlarda aks ettirilishi tamoyili mulkning real qiymatini aks ettirmasligiga sabab bo‘ladi.

6. Buxgalteriya balansi moddalarining qiymati hisobot davri boshi va oxiriga keltirilgan. Bu esa tahlil jarayonida ayrim ko‘rsatkichlarni, jumladan moliyaviy koeffitsientlarni hisoblashda noqulaylik tug‘diradi.

7. Buxgalteriya balansi ma‘lumotlari asosida moliyaviy tahlilni amalga oshirishning tizimli metodikasi yaratilmagan.

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya balansini tahlil etishda quyidagi jihatlarga ahamiyat qaratish lozim:

- buxgalteriya balansi ma‘lumotlaridan foydalanuvchilar uchun moliyaviy tahlil imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida izoh va tushuntirishlarda ayrim moddalarning keng tavsifini keltirish lozim. Jumladan, asosiy vositalar, debitorlar va kreditorlar tarkibi va b.;

- buxgalteriya balansi moddalarining kamida uch yillik qiymatini aks ettirish lozim;

- moliyaviy tahlilni amalga oshirishning yaxlit tizimli metodikasi va uning dasturiy ta‘minotini yaratish lozim.

## **2.2. Buxgalteriya balansining muhim elementlari: aktiv, kapital va majburiyat tahlili**

Buxgalteriya balansi xo‘jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy ahvoli haqidagi axborotni to‘playdi hamda oshkor qiladi.

Buxgalteriya balansi tadbirkorlik subyektiga tegishli bo‘lgan quyidagi muhim elementlar haqida axborot beradi: aktivlar; kapital; majburiyatlar.

Buxgalteriya balansi ma‘lumotlari undan foydalanuvchilarga tadbirkorlik subyektining joriy va istiqboldagi moliyaviy ahvolini, undagi o‘zgarishlarini aniqlashga imkon beradi.

Aktivlar - bu subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir. Aktivlar sotib olish, o‘zida yaratish va qurish, shuningdek boshqa bitimlar va voqealar asosida egalik qilish yo‘llari bilan shakllantiriladi.

Kapital - bu xo‘jalik yurituvchi subyekt aktivlarining manbai va majburiyatlarni qoplash, uning uzluksiz ishlashini ta‘minlovchi va foydani maksimallashtiruvchi asosdir. Kapital tadbirkorlik faoliyatining asosi, moliyaviy barqarorlikning muhim ko‘rsatkichidir.

Buxgalteriya hisobida o‘z manbalari “Xususiy kapital” tushunchasi bilan ifodalanadi. Xususiy kapital xo‘jalik faoliyatini kengaytirish, mablag‘lardan samarali foydalanishni ta‘minlash, turli maqsadli fondlarni shakllantirish, xo‘jalik yurituvchi subyektning bozor qiymatini oshirishning muhim mezonini hisoblanadi.

Majburiyatlar - shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to‘lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan hatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir.

Aktivlarni joylashtirishda aniq me‘yoriy nisbat belgilanmaydi. Lekin ularni moliyalashtirish manbalari yuzasidan bu nisbatni qaysidir jihatdan aniq belgilab olish mumkin.

### **2.3. Buxgalteriya balansining gorizontal, vertikal va trend tahlili**

Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati tahlilidan manfaatdor barcha iqtisodiy subyektlar ma‘lum bir maqsadni ko‘zlaydilar. Jumladan, investorlar qo‘yilgan

mablag'larning qaytishi va muayyan foyda olishga ishonchi komil bo'lishi kerak. Tovar yetkazib beruvchilar xaridor likvidli, to'lovga qobiliyatli va hisob-kitoblarda ishonchli ekanini bilishi lozim. Buning barchasini korxonaning moliyaviy hisobotlaridagi axborotlarni o'qish orqali aniqlash mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning xo'jalik-moliyaviy faoliyati ko'rsatkichlarining o'zgarishi sabablarini aniqlash, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, faoliyatni rivojlantirishning kelgusi rezervlarini belgilash uchun buxgalteriya balansining chuqur tahlilini amalga oshirish lozim.

Balansni o'qishda uning ma'lumotlari korxonada moliyaviy ahvolini o'rganish, uning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi, to'lovga qobiliyatlilikini aniqlash imkonini berishini bilish lozim.

Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt hisob faoliyatining asosiy hujjati buxgalteriya balansi hisoblanadi. Buxgalteriya balansi korxonada nimaga ega ekanligi va uni yuzaga kelish manbalari tasvirini o'zida aks ettiradi. Respublikamizda uning shakli aniq tartibga solingan va turli mulkchilik shaklidagi korxonalar uchun standart hisoblanadi. Bu buxgalteriya balansini o'qish va tahlil qilish jarayonini sezilarli osonlashtiradi. Buxgalteriya balansini o'rganish malakali tahlilchida korxonada faoliyatining ko'p omillari va uning rahbarlari ish darajasi haqida tasavvur uyg'otadi.

Buxgalteriya balansini o'qish - bu uning raqamlarida xo'jalik mablag'lari va ularning manbalarining shakllanishi, taqsimoti va o'zgarishini ko'rishdir. Buxgalteriya balansini o'qish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisobot davridagi kompleks moliyaviy holatiga baho beriladi.

Buxgalteriya balansini o'qish orqali:

xo'jalik mablag'lari umumiy summasi va uning ikki yillik o'zgarishi; o'z va qarz mablag'lari manbalari summasi, ularning ikki yillik o'zgarishi, ular o'rtasidagi nisbat; o'z mablag'lari manbalari va uzoq muddatli aktivlar nisbati; korxonada majburiyatlari summasi va aylanma aktivlari nisbati; uzoq muddatli aktivlarning turlari bo'yicha

o'zgarishi va holati; korxonada aylanma mablag'lari o'zgarishi va holati; zaxira va xarajatlarning ikki yillik o'zgarishi;

debitorlik va kreditorlik qarzdorlikning mavjudligi va ularning ikki yillik o'zgarishi; korxonada xususiy kapitali o'zgarishi va holati; qarz kapitalining o'zgarishi va holatini aniqlash mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining asosiy tendentsiyalarini o'rganish uchun balansning vertikal va gorizontaal tahlilini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Gorizontaal tahlilda balans moddalari mutloq va nisbiy o'zgarishi davrlar bo'yicha o'rganiladi. Vertikal tahlil uchun jami aktiv yoki passiv tarkibida balans har bir moddasining ulushi o'rganiladi. Balans strukturasi uchun vertikal va gorizontaal tahlil orqali o'rganilayotgan korxonada faoliyati haqida dastlabki tasavvur hosil qilish mumkin.

Buxgalteriya balansida aktiv qatorlarini o'rganishda avvalo, uzoq muddatli aktivlar tuzilishi ko'rib chiqiladi. Uzoq muddatli va aylanma aktivlar o'sish darajasini solishtirishda aktivlar strukturasi uchun "og'irligi" iborasi qo'llaniladi. Uzoq muddatli aktivlar bilan solishtirganda aylanma aktivlar o'sish darajasining yuqoriligi aktivlar strukturasi uchun yetarli darajada mobilligini ifodalaydi. Aks holatda aktivlar strukturasi uchun "og'irligi" kuzatiladi. Bu holat faqat ayrim faoliyat turlariga xosdir.

Shuningdek, ishlab chiqarish hajmi o'sish darajasi asosiy vositalar o'sish darajasidan yuqori bo'lgan holatdagina, asosiy vositalarning oshishini ijobiy hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy iqtisodiyotda xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-iqtisodiy holati ko'p jihatdan aylanma mablag'larning holati va foydalanish samaradorligiga bog'liq.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati davrida aylanma mablag'lar yetishmovchiligi vujudga kelsa, qarz mablag'lari hisobiga shakllantiriladi. Shu bois, buxgalteriya balansini o'rganganda aylanma mablag'lar qaysi manbalar hisobiga shakllanganligi, bu mablag'lar qayerga yo'naltirilishi, aylanma mablag'lar immobilizatsiyasi mavjud emasligi, ular foydalanish samaradorligiga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Aylanma aktivlar tarkibida debitorlik majburiyatlarining o‘shishi mahsulot(ish, xizmat) to‘lovi bilan bog‘liq muammolar mavjudligi haqida tasavvur uyg‘otadi, korxonada faoliyatiga salbiy o‘tkazadi. Debitorlik majburiyatlari summasining joriy majburiyatlar summasidan yuqoriligi o‘z xaridorlariga kreditlar taqdim etayotganligi, kreditorlar tomonidan taqdim etilayotgan to‘lov kechikishlaridan ko‘pligini anglatadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish summasining aylanma aktivlar tarkibida oshishi butlovchi buyumlarning yetishmasligi natijasi bo‘lishi mumkin.

Tayyor mahsulot qoldig‘ining oshishiga ishlab chiqarilayotgan mahsulotga talabning pasayishi, marketing xizmati ishidagi yetishmovchilik, mahsulot sifatining yomonlashishi va mahsulot realizatsiyasini qiyinlashtiradigan boshqa sabablar bo‘lishi mumkin.

Jami aylanma aktivlar tarkibida pul mablag‘lari ulushining kamligi xo‘jalik yurituvchi subyekt to‘lov qobiliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ularning ortiqchaligi pul mablag‘larini boshqarish bo‘yicha qarorning to‘g‘ri qabul qilinmaganligini anglatadi.

Qoida bo‘yicha, hisobot davrida xo‘jalik mablag‘larining oshishi mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining o‘shishi bilan baravar borishi maqsadga muvofiqdir.

Buxgalteriya balansi passivi tuzilishini o‘rganish jarayonida jami moliyalashtirish manbalarida o‘z kapitali ulushiga e‘tibor qaratish lozim. O‘z kapitali o‘shish sur‘atining qarz majburiyatlari o‘shish surhatidan yuqoriligi korxonada moliyaviy barqarorligining mustahkamligini bildiradi. Moliyalashtirish manbalari tarkibida zaxiralar, fondlar va taqsimlanmagan foyda ulushining yuqoriligi korxonada faoliyatining samaradorligidan darak beradi, zero o‘z kapitalining mazkur qismi xo‘jalik faoliyati natijasida yuzaga keladi.

Qarz kapitali tuzilishida uzoq muddatli majburiyatlar ulushining yuqoriligi ijobiy holat hisoblanadi. Ularni odatda to‘lov muddati uzoq bo‘lgani bois o‘z mablag‘lari sifatida qabul qilish amaliyoti mavjud.

Xalqaro amaliyotda qarz va o'z kapitali nisbati kreditorlar uchun riskni aniqlashning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Buxgalteriya balansi xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatning to'liq tavsifi uchun maxsus moliyaviy koeffitsientlarni hisoblash imkonini beradi. Koeffitsientli tahlil uchun maxsus bilimlar talab etiladi, ko'rsatkichlarning oddiy hisob-kitobi kam axborotga ega.

Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari buxgalteriya balansini o'qishda ko'proq erkinlik beradi:

- aktiv va passiv qatorlarni joylashtirishda turli yondoshuvlardan foydalanish mumkin;
- balans tuzishning vertikal yoki gorizontal shaklini tanlash mumkin;
- aktivlar va passivlarning to'liq ikki yillik o'zgarishi summalariga baho berish imkonini beradi;
- ishbilarmonlik obro'si ko'rsatkichlarini aks ettirish shart.

Moliyaviy hisobotning asosiy shakli hisoblanadigan buxgalteriya balansini o'qish uchun quyidagi muhim qoidalarni inobatga olish lozim:

- balans summasining oshishi ijobiy holat hisoblanadi;
- aylanma aktivlar summasining uzoq muddatli aktivlar summasidan oshishi xo'jalik yurituvchi subyekt resurslarining mobilligidan darak beradi;
- asosiy vositalar qiymatining kamayishi xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida modernizatsiya jarayonining mavjud emasligi, ishlab chiqarish quvvatlarining eskirganligini ko'rsatadi;
- rezervlar va foyda hisobiga o'z kapitalning oshishi xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy barqarorligini namoyish etadi;
- o'z mablag'larining qarz mablag'laridan ko'pligi xo'jalik yurituvchi subyektning tashqi moliyaviy manbalardan mustaqilligidan darak beradi;
- majburiyatlarning mavjudligi har doim ham yomon belgi emas, jumladan, debitorlik qarzlari bilan teng holda kreditorlik majburiyatlarining mavjudligi maqbul holat sanaladi.

Buxgalteriya balansining vertikal tahlilida xo‘jalik subyektining mablag‘lari va ular manbasining tarkibiy tuzilishi baholanadi.

Buxgalteriya balansining gorizontal tahlilida mablag‘lar va ularning manbalarini dinamik o‘zgarishlariga baho beriladi.

## 2.1-jadval

### “Toshkent suv ta’minoti” MCHJ Chirchiq shahar bo‘limi buxgalteriya balansini aktivi moddalarining vertikal va gorizontal tahlili<sup>10</sup>

Balans aktivi	2016 davr oxiri		2017 davr oxiri		2018 davr oxiri		2019 davr oxiri		2020 davr oxiri	
	Summa, ming so‘m	Ulushi, %	Summa, ming so‘m	Ulushi, %	Summa, ming so‘m	Ulushi, %	Summa, ming so‘m	Ulushi, %	Summa, ming so‘m	Ulushi, %
Korxonalar balans qiymati, jami	17794324	100	21785223	100	28605910	100	42690635	100	33294706	100
1. Uzoq muddatli aktivlar	2705286	15.20	2980557	13.68	3758098	13.14	3308052	7.75	11913476	35.78
2. Joriy aktivlar	15089038	84.80	18804666	86.32	24847812	86.86	39382583	92.25	21381230	64.22
<b>Shu jumladan:</b>										
2.1 Zaxira va xarajatlar	1104661	6.20	942049	4.32	771454	2.69	818473	1.91	815523	2.45
2.2 Debitorlar	13964888	78.48	16727458	76.78	24072731	84.15	38563807	90.33	20565707	61.77
2.3 Pul mablag‘lari va investitsiyalar	19489	0.11	1135159	5.21	3627	0.01	303	0.0007	0	0
<b>Jami manba</b>	17794324	100	21785223	100	28605910	100	42690635	100	33294706	100
1.O‘z mablag‘lari	6113847	34.36	12378914	56.82	19312947	67.51	24706095	57.87	17838682	53.59
2.Majburiyatlar	11680477	65.64	9406309	43.18	9292963	32.49	17984540	42.13	15456024	46.41
<b>Shu jumladan:</b>										
2.1. Uzoq muddatli majburiyatlar	0	0	0	0	0	0	10554200	24.72	6400542	19.22
2.2. Qisqa muddatli majburiyatlar	11680477	65.64	9406309	43.18	9292963	32.49	7430340	17.41	9055482	27.19
<b>Shu jumladan:</b>										
Joriy kreditorlik qarzlari	11680477	65.64	9406309	43.18	9292963	32.49	6729048	15.76	7270367	21.83

<sup>10</sup> “Toshkent suv ta’minoti” MCHJ Chirchiq shahar bo‘limi ma’lumotlari asosida.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jami aktivlar tarkibida o'tgan yillarda uzoq muddatli aktivlarning salmog'i nihoyatda kam ulushni tashkil etgan holda, joriy aktivlarning ulushi yuqori bo'lgan. 2020 yilda uzoq muddatli kapitalning jalb etilishi hisobiga jami aktivlar tarkibida uzoq muddatli aktivlarning ulushi ortgan. Shuningdek, joriy aktivlar tarkibida debitorlik majburiyatlar ulushining nihoyatda ko'pligi va pul mablag'larining kamligi bevosita korxonaning to'lov qobiliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Korxonaning moliyaviy mustaqillik darajasi 2020 yilgacha o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan, 2020 yilda 2019 yilga nisbatan pasayish kuzatilgan.

---

Bunga so'nggi yillarda uzoq muddatli majburiyatlarning jalb etilgani sabab bo'lgan. Jami majburiyatlar yillar davomida joriy kreditorlik qarzlariga teng bo'lgan. Bu holat ilgari korxonaga qisqa va uzoq muddatli kreditlarning jalb etilmaganligini ko'rsatadi.

Trend tahlili moliyaviy hisobot elementlari va ko'rsatkichlarini joriy davrga bo'lgan holatini bazis yili yoki asos yili ko'rsatkichi bilan o'rganishni xarakterlaydi.

Trend tahlilining o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

-trend tahlili uzoq davriylikni qamrab oladi va yaqin kelajakning moliya rejasini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi;

-trend tahlili xo'jalik yurituvchi subyekt xo'jalik-moliyaviy faoliyatining barcha jihatlarni to'la ochib berishga imkon beradi;

-trend tahlil qisqa davriylikda namoyon qilib bo'lmaydigan jihatlarni ham ochib beradi;

-trend tahlili axborotlarning bir necha yillik bazasidan foydalanadi.

#### **2.4. Moliyaviy barqarorlik tahlili**

Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy barqarorligi xo'jalik yurituvchi subyektning ichki va tashqi muhit ta'sirida o'zgaradigan aktivlar va passivlari mutanosibligini saqlab turish imkoniyatidir. Moliyaviy barqarorlik tahlili moliyaviy holat tahlilining muhim elementi hisoblanadi.

O‘z navbatida, agar to‘lovga qobiliyatlilik xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatining tashqi aksi bo‘lsa, moliyaviy barqarorlik pul oqimlari, daromadlar va xarajatlar, mablag‘lar va ularning shakllanish manbalari balansini aks ettiruvchi ichki tomonidir. Moliyaviy barqarorlik turli parametrlar bo‘yicha baholanadi. Moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini statik va dinamik tasniflash mumkin.

Birinchi guruhga kapital strukturasi, aktivlar va passivlar alohida guruhlariga tengligi, balans likvidligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar kiradi. Ular moliyaviy holatni ma‘lum davr uchun belgilash imkonini beradi. Ikkinchi guruh ish aktivligi ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘rsatkichlarning ijobiy o‘zgarishi kelajakdagi barqaror moliyaviy holatni kafolatlaydi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy barqarorligini baholash uchun majburiyatlarni qoplash uchun yetarlicha resurslarning mavjudligi, aktivlarga qo‘yilgan mablag‘larning qanchalik tez real pulga aylanishi, mulk, xususiy va qarz kapitalidan qanchalik samarali foydalanilayotganligini aniqlash zarur. Xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy barqarorligi uning moliyaviy mustaqillik va to‘lovga qobiliyatlilik darajasi bilan aniqlanadi.

Xo‘jalik subyektlari moliyaviy barqarorligi tahlili ikki yo‘nalishda olib boriladi:

1. Mutloq ko‘rsatkichlardagi moliyaviy barqarorlik. Bu holatda xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z aylanma mablag‘larining mavjudligi va uning musbat ifodaga ega ekanligi muhim hisoblanadi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt turli manbalari bilan zaxira va xarajatlarni qoplashiga qarab moliyaviy barqarorlik darajasiga baho beriladi:

A) o‘z mablag‘lari bilan zaxira va xarajatlarning qoplanishi

$$O'M-ZX= Mb$$

Bu yerda: O‘M-o‘z mablag‘lari, ZX-zaxira va xarajatlar, Mb-moliyaviy barqarorlik darajasi.

B) o‘z va uzoq muddatli manbalar bilan zaxira va xarajatlarning qoplanishi

$$(O'M+UMM)-ZX=Mb$$

Bu yerda: UMM-uzoq muddatli manbalar.

V) o‘z, uzoq va qisqa muddatli manbalar bilan bilan zaxira va xarajatlarning qoplanishi

$$(O'M+UMK+QMM)-ZX=Mb.$$

Bu yerda: QMM-qisqa muddatli manbalar.

2. Nisbiy ko‘rsatkichlardagi moliyaviy barqarorlik. Bunday yo‘nalishni moliyaviy koeffitsientlar deyish ham mumkin. Bu holatda o‘zaro bog‘liq koeffitsientlarni nisbati va ularning me‘yor darajasiga baho beriladi<sup>11</sup>.

Iqtisodiy adabiyotlarda xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy barqarorligining to‘rt guruhi tarkiblanadi (2.2-jadval):

Mutlaq moliyaviy barqarorlik;

Normal moliyaviy barqarorlik;

Moliyaviy nobarqarorlik; Krizis

moliyaviy holat.

## 2.2-jadval

### Moliyaviy barqarorlik turlari

Moliyaviy barqarorlik turlari	Qoplash manbalari	Qisqacha tavsifi
<b>Mutlaq moliyaviy barqarorlik.</b> Ishlab chiqarish zaxiralari qiymati o‘z oborot mablag‘laridan kam bo‘lgan holda o‘rinlidir.	O‘z oborot mablag‘lari	Yuqori to‘lovga qobiliyatlilik, xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati kreditorlarga bog‘liq emas.
<b>Normal moliyaviy barqarorlik.</b> Ishlab chiqarish zaxiralari qiymati va o‘z oborot mablag‘lari tengligini ifodalaydi.	O‘z oborot mablag‘lari va uzoq muddatli kredit va qarzarlar	Normal to‘lovga qobiliyatlilik, samarali ishlab chiqarish faoliyati
<b>Moliyaviy nobarqarorlik.</b> Xo‘jalik yurituvchi subyekt to‘lovga qobiliyatlilikini buzilishiga olib kelishi mumkin.	O‘z oborot mablag‘lari hamda uzoq muddatli kredit va qarzarlar	To‘lovga qobiliyatlilikni izdan chiqishi, qarz mablag‘larini alb etilishi, holatni yaxshilash imkoniyati

<sup>11</sup> Abdujabarova M.T. Xo‘jalik subyektlari moliyaviy holatining tahlili // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy

<p><b>Krizisli moliyaviy holat.</b> Bu holatda xo'jalik yurituvchi subyekt bankrotlik chegarasida turadi. Bu holatda ishlab chiqarish zaxiralari summasi o'z oborot mablag'lari hamda uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlardan ko'p bo'ladi.</p>	<p>Barcha mumkin bo'lgan qoplash manbalari</p>	<p>Xo'jalik yurituvchi subyekt to'lovga qobiliyatsiz va bankrotlik yoqasida.</p>
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------

Barqaror moliyaviy holat xo'jalik yurituvchi subyektning samarali faoliyatining muhim shartidir. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati va uning barqarorligi ko'p jihatdan kapital manbalarining (o'z va qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbat) hamda aktivlarning optimal strukturasi (asosiy va aylanma kapitalining o'zaro nisbati)ga, shuningdek aktiv va passivlarning mutanosibligiga bog'liqdir.

Agar moliyaviy resurslarini me'yordan ortiq ishlab chiqarish zaxiralarga yo'naltirsa, yoki debitorlik majburiyatlarining yirik summasiga yo'l qo'ysa, yaxshi

---

electron jurnali. №2 - Toshkent, 2019. 1-14 betlar.

moliyaviy natijalarga ega bo'lib turib ham, xo'jalik yurituvchi subyekt qiyinchiliklarni boshidan kechirishi mumkin. Moliyaviy barqarorlik uchun ijobiy omil manbalarning mavjudligi, zaxiralarni shakllantirish, salbiy omil esa, zaxiralar hajmi. Ya'ni, nobarqaror va krizis holatdan chiqishning asosiy yo'llari manbalarni to'ldirish, zaxiralarni shakllantirish, oborot mablag'lar ulushini oshirish, uning strukturasi optimallashtirish, shuningdek zaxiralar darajasini asosli kamaytirish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish yoki ta'minot jabhasidagi muammolar, shuningdek kapital turlaridan nooqilona foydalanish ham xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining nobarqaror yoki krizis holatda deb, baholashga sabab bo'ladi<sup>12</sup>.

Bozor sharoitida xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun joriy majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun yetarli miqdorda barqaror tushumga ega bo'lish lozim, ya'ni xo'jalik

---

<sup>12</sup> Abdujaborova M.T. Xo'jalik subyektlari moliyaviy holatining tahlili // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №2 - Toshkent, 2019. 1-14 betlar.

yurituvchi subyekt moliyaviy barqarorligi asosida uning to'lovga qobiliyatligi yotadi.

G.V.Savitskaya barqaror moliyaviy holat asosiy faoliyat hajmi, ishlab chiqarish ehtiyojlarini zaruriy resurslar bilan ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb, hisoblaydi<sup>13</sup>. Shuning uchun moliyaviy faoliyat xo'jalik faoliyatining tarkibiy qismi sifatida pul mablag'larining reja asosida kirimi va sarflanishini ta'minlash, hisob distsiplinasining bajarilishi, o'z va qarz kapitali ratsional nisbatlariga erishish hamda ulardan yanada samarali foydalanishga yo'naltirilishi lozim.

Moliyaviy nobarqarorlik va hisoblashishlarning o'z vaqtida amalga oshirilmasligi xorijiy investorlarning ishonchini qo'lga kiritish imkoniyatini kamaytiradi va xo'jalik tizimiga o'tish jarayonini sekinlashtiradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holati va moliyaviy barqarorligini tahlil etishda iqtisodchi olimlar bir necha moliyaviy koeffitsientlarni taklif etishadi (2.3-jadval).

### 2.3-jadval

#### Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatini baholash koeffitsientlari

№	Mualliflar	Moliyaviy koeffitsientlar	Aniqlanishi
1.	G.V.Savitskaya <sup>14</sup>	1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	O'z kapitali / Balans jami summasi
		2. Moliyaviy qaramlik koeffitsienti	Qarz kapitali / Balans jami summasi
		3. Joriy qarzdorlik koeffitsienti	Qisqa muddatli majburiyatlar / Balans jami summasi
		4. Uzoq muddatli moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	O'z va qarz kapitali nisbati / Balans jami summasi
		5. Qarzlarning o'z kapitali bilan qoplanganligi koeffitsienti	O'z kapitali / Qarz kapitali

<sup>13</sup> Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник. Москва, Инфра-М, 2009, 538 стр.

<sup>14</sup> Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник. Москва, Инфра-М, 2009, 538 стр.

<sup>21</sup> Давыденко И.Г., Алешин В.А., Зотова А.И. Экономический анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия. М.: Кнорус, 2019, 375 б.

		6. Moliyaviy leveridj koeffitsienti	Qarz kapitali / O‘z kapitali
	Birinchi, to‘rtinchi va beshinchi ko‘rsatkichlarning yuqoriligi, ikkinchi, uchinchi va oltinchi ko‘rsatkichlarning past darajasi xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holati barqarorligidan darak beradi.		
2.	I.G.Davidenko, V.A.Aleshin, A.I.Zotova <sup>21</sup>	1. Kapitalizatsiya koeffitsienti	Qarz kapitali / O‘z kapitali (1,5dan kichik bo‘lishi lozim).
		2. O‘z manbalari bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti	(O‘z kapitali – Oborotdan tashqari aktivlar) / Oborot aktivlari.
		3. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	O‘z kapitali / Balans jami (optimal $\geq 0,4-0,6$ ).
		4. Moliyalashtirish koeffitsienti	O‘z kapitali / Qarz kapitali, (normal $> 0,7$ , optimal $\geq 1,5$ ).
		5. Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti	(O‘z kapitali + Uzoq muddatli majburiyatlar) / Balans jami, (normal $\geq 0,6$ ).
3.	M.Yu.Raximov, N.N.Kalandarova <sup>15</sup>	1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	O‘z kapitali / Balans jami
		2. O‘z va qarz mablag‘lari nisbati koeffitsienti	O‘z kapitali / Qarz kapitali
		3. Moliyaviy qaramlilik koeffitsienti	Qarz kapitali / Balans jami summasi
		4. O‘z sarmoyasining harakatchanlik koeffitsienti	(O‘z kapitali + Uzoq muddatli kredit va qarzlar – Uzoq muddatli aktivlar) / O‘z kapitali
		5. Qarz va o‘z mablag‘lari nisbati koeffitsienti	Qarz kapitali / O‘z kapitali

Shu bilan birga, davlat ishtirokidagi korxonalar tarkibida moliyaviy nobarqaror korxonalar soni oshib borayotganini, ko‘rilayotgan choralar esa kutilgan

samarani bermayotgani O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1013-son qarorini qabul qilinishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, ushbu Qarorga binoan ilova tariqasida “Davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilish uchun ma‘lumotlarni taqdim etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom va “Davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holati tahlilini o‘tkazish” Reglamenti qabul qilindi. Mazkur Reglamentga muvofiq, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi

<sup>15</sup> Raximov M.Yu., Kalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik. T.: “Iqtisod-moliya”, 2019, 726 b.

mavjud bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat unitar korxonalari tahlil obyekti hisoblanadi<sup>16</sup>

Shundan kelib chiqib, iqtisodiyotning turli tarmoq korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishning tizimli modeli ishlab chiqildi. Unda bir necha moliyaviy koeffitsientlarni hisob-kitob qilish orqali moliyaviy holatga baho beriladi(2.4jadval):

**Moliyaviy koeffitsientlar hisob-kitobi natijalari asosida korxonalar moliyaviy holatiga baho berishning ballik tizimi**

**2.4-jadval**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar nomi</b>	<b>1 guruh</b>	<b>Ball</b>	<b>2 guruh</b>	<b>Ball</b>	<b>3 guruh</b>	<b>Ball</b>
1.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (K1)	$K6 > 0,75$	15	$K6 > 0,5$	10	$K6 < 0,5$	5
2.	To'lov qobiliyati (qoplash) koeffitsienti (K1)	$K1 \geq 1,2$ 5	15	$K1 \geq 0,7$ 5	10	$K1 \geq 0,2$ 5	5
3.	O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (K2)	$K2 \geq 0,2$	15	$K2 \geq 0,1$	10	$K2 \geq 0$	5
4.	O'z mablag'lari rentabelligi koeffitsienti (K3)	$K3 > 0,2$	15	$K3 > 0,1$	10	$K3 < 0,1$	5
5.	Aktivlar rentabelligi koeffitsienti (K4)	$K3 > 0,2$	15	$K3 > 0,1$	10	$K3 < 0,1$	5
6.	O'z va qarz mablag'larining nisbat koeffitsienti (K5)	$K5 > 1$	15	$K5 > 0,5$	10	$K > 0$	5
7.	Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti (K7)	$K7 < 0,5$	10	$K7 = 0,5$	5	$K7 > 0,5$	0
	Jami:		100		65		30

2.5-jadvalda keltirilgan moliyaviy koeffitsientlarning hisoblash tartibini keltiramiz(2.5-jadval):

**Moliyaviy koeffitsientlarning aniqlanishi tartibi**

**2.5-jadval**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar nomi</b>	<b>Aniqlanishi</b>
1.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (K1)	O'z mablag'lari / Jami manbalar

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1013-son qarori. 14 dekabr 2018 yil.

2.	To'lov qobiliyati (qoplash) ko'effitsienti (K1)	Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar
3.	O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'effitsienti (K2)	(O'z mablag'lari + Uzoq muddatli majburiyatlar – Uzoq muddatli aktivlar) / Joriy aktivlar
4.	O'z mablag'lari rentabelligi ko'effitsienti (K3)	Sof foyda / O'z mablag'lari
5.	Aktivlar rentabelligi ko'effitsienti (K4)	Sof foyda / Jami aktivlar
6.	O'z va qarz mablag'larining nisbat ko'effitsienti (K5)	O'z mablag'lari / Qarz mablag'lari
7.	Asosiy vositalarning eskirish ko'effitsienti (K7)	Asosiy vositalarning eskirish darajasi / Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati

Shuningdek, balans moddalarining hisobot davri boshiga nisbatan ortishi, joriy aktivlarning o'sish sur'ati uzoq muddatli aktivlarning, shuningdek, o'z kapitali miqdori va uning o'sish sur'ati qarz kapitalining o'sish sur'atidan yuqori bo'lishi, joriy majburiyatlarning joriy aktivlar bilan qoplanishi, aktivlarning likvidlilik darajasi yuqori bo'lishi, ish va bozor aktivligidagi ijobiy o'zgarishlar va ularning risklardan himoyalanganlik darajasi yuqori ekanligi moliyaviy holatning yaxshiligidan dalolat beradi. Odatda xo'jalik subyektlarining moliyaviy holati barqaror, nobarqaror, krizis holatda bo'lishi mumkin.

Korxonalar moliyaviy holatini baholashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bu moliyaviy barqarorlikdir. Biz, korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ko'ra, ularning moliyaviy barqarorlik darajasiga baho berishda, ularni moliyaviy barqaror, nobarqaror, iqtisodiy nochor deb belgilash mumkin, deb hisoblaymiz.

2.5-jadval ma'lumotlari asosida iqtisodiyotning turli tarmoq korxonalarining moliyaviy holatiga umumiy baho berish imkoniyati yaratiladi(2.6-jadval):

## 2.6-jadval

### Umumiy xulosa

№	Guruhlar	Ball	Moliyaviy barqarorlik toifalari
1	I	66-100	Moliyaviy barqaror
2	II	31-65	Moliyaviy nobarqaror

3	III	0-30	Krizis holatida
---	-----	------	-----------------

2.6-jadval moliyaviy ma'lumotlaridan ko'rinadiki, berilgan ballar intervaliga qarab, korxonalar moliyaviy holati 3 guruhga ajratilgan. Moliyaviy koeffitsientlar bo'yicha berilgan ballar yig'indisi 66-100 ball oralig'ida bo'lsa, korxonalar moliyaviy barqaror holatda deyish mumkin. Moliyaviy koeffitsientlar berilgan ballar yig'indisi 31-65 oralig'ida bo'lishi, korxonani moliyaviy nobarqaror ekanligini bildiradi. Shuningdek, moliyaviy koeffitsientlar bo'yicha ballar yig'indisi 0-30 oralig'ida bo'lishi, uning krizis holatda ekanligini ko'rsatadi.

Bizning korxonamizda o'rganilayotgan davrlarda bu holatni quyidagicha ifodalash mumkin(2.7-jadval):

## 2.7-jadval

### Moliyaviy holatni ballik tizimda baholanishi<sup>17</sup>

№	Moliyaviy koeffitsientlar	2020 yili	Ball	2021 yili	Ball
1.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (K1)	0,98	15	0,98	15
2.	To'lov qobiliyati (qoplash) koeffitsienti (K1)	3,56	15	2,06	15
3.	O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (K2)	0,95	15	0,93	15
4.	O'z mablag'lari rentabelligi koeffitsienti (K3)	0,02	5	0,02	5
5.	Aktivlar rentabelligi koeffitsienti (K4)	0,02	5	0,02	5
6.	O'z va qarz mablag'larining nisbat koeffitsienti (K5)	54,35	15	56,52	15
7.	Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti (K7)	0,49	10	0,35	10
	Jami:	-	80	-	80

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2021 yilda moliyaviy koeffitsientlar miqdori yig'indisi bo'yicha jami ball 80 ga teng bo'lib, mos ravishda 2020 yilda 80 ga teng bo'lgan. Bu holat korxonaning mutlaq moliyaviy barqarorligidan darak beradi.

Ushbu metodikani amalda qo'llash bo'yicha biz tomonimizdan dasturiy ta'minot loyihasi ishlab chiqilmoqda. Ushbu dasturning yaratilishi raqamli

<sup>17</sup> "O'z kimyosanoat loyiha" moliyaviy hisobotlari asosida.

iqtisodiyot talablariga mos bo‘lib, iqtisodiyotning turli tarmoq korxonalari moliyaviy hisobotlari asosida ularning moliyaviy holatiga baho berish imkonini beradi.

“Tarmoq va hudud rahbarlari raqamlashtirishsiz natija, rivojlanish bo‘lmasligini tushunib yetishi shart. Barcha darajadagi rahbarlar buni o‘ziga kundalik vazifa sifatida belgilab, raqamlashtirish sohasini alifbosidan boshlab chuqur o‘rganishi kerak. Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat iqtisodiyotining kelajagi yo‘q”<sup>18</sup>.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati xususiyatlarini o‘rganib, ular moliyaviy holatini yaxshilashning muhim jihatlari sifatida quyidagilarni tavsiya qilamiz: aylanma mablag‘larni aylanishini tezlashtirish asosida kreditorlik

majburiyatlarini kamaytirish; aylanma mablag‘larning normativdan oshiq qiymatini

kamaytirish orqali

ularning aylanuvchanligini oshirish; qo‘shimcha faoliyat turlarini rivojlantirish;

debitorlik qarzlarni kamaytirish tadbirlarini ishlab chiqish; qarz kapitalini

jalb etish va undan samarali foydalanishning rejasini ishlab

chiqish.

Moliyaviy barqarorlikning muhim ko‘rsatkichi o‘z aylanma aktivlarining mavjudligi va ularning dinamikasidir. Tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga keldikki, o‘z aylanma aktivlarining mavjud summasi aylanma kapitalning 10% idan kam bo‘lmasligi maqsadga muvofiqdir. O‘z aylanma aktivlari doimo xo‘jalik yurituvchi subyekt foydalanishida bo‘ladi va o‘z resurslari hisobiga shakllantiriladi.

Moliyaviy barqarorlikka inflyatsiyaning ta‘sirini baholash ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Inflyatsiya xo‘jalik yurituvchi subyekt aktivlarining va yuklab

---

jo‘natilgan mahsulot uchun kelgusida kelib tushadigan pul mablag‘larining qadrsizlantiradi, bu esa moliyaviy barqarorlikning yo‘qolishiga olib keladi.

---

<sup>18</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 22 sentyabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishdagi nutq. 22 sentyabr, 2020.

## 2.5. To'lovga qobiliyatlilik va balans likvidligi tahlili

“Ma'lumki, hozirgi zamon butun jahon iqtisodiyoti raqamlashtirish jarayoniga o'tayotgan, “yashil” texnologiyalar va innovatsion taraqqiyot har qanday soha va biznes rivoji uchun ustuvor ahamiyat kasb etayotgan bir davrdir<sup>19</sup>”.

Bugungi kunda ko'pgina korxonalar to'lovga layoqatliligining pastligi bois murakkab moliyaviy-iqtisodiy vaziyatlarga duch kelmoqda. Zamonaviy texnologiyalar asosida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xo'jalik yuritish hamda ishlab chiqarishni boshqarish shakllarini takomillashtirish orqali mazkur masalalarni hal etish mumkin.

To'lovga qobiliyatlilik moliyaviy holatni baholashning muhim kriteriyalaridan biri hisoblanadi. Amaliyotda uzoq muddatli va joriy to'lovga qobiliyatlilik farqlanadi. Uzoq muddatli to'lovga qobiliyatlilik korxonaning barcha majburiyatlari bo'yicha uzoq muddatli kelajakda hisob-kitoblarni olib borish imkoniyatidir. Korxonaning qisqa muddatli majburiyatlari bo'yicha hisob-kitoblarni olib borish imkoniyati joriy to'lovga qobiliyatlilik deyiladi. Boshqacha aytganda, agar korxonaga o'z oborot mablag'lari hisobiga qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash holatiga ega bo'lsa, to'lovga qobiliyatli hisoblanadi.

To'lovga qobiliyatlilik korxonada zudlik bilan qoplash lozim bo'lgan joriy majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun pul va uning ekvivalentlarining mavjudligini ifodalaydi. Hisob-kitob schetida yetarlicha resurslarning mavjudligi va muddati o'tgan kreditorlik majburiyatlarining yo'qligi to'lovga qobiliyatlilikning asosiy belgilari hisoblanadi<sup>20</sup>.

---

<sup>19</sup> Investirlar uchun qulay va jozibador sharoit yaratishga qaratilgan amaliy ishlarimizni yanada jadallashtiramiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqi// 2022 yil 26 mart. [htt's://www.xs.uz](http://www.xs.uz)

<sup>20</sup> Abdujaborova M.T. Xo'jalik subyektlari moliyaviy holatining tahlili// Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. 2019, №2.

Ilmiy izlanishlarda “to‘lovga qobiliyatlilik” tushunchasi iqtisodchi olimlar tomonidan “to‘lovga layoqatlilik” tushunchasi bilan bir xil ma’noda keltirilgan holatlar mavjud.

V.S.Kudryashov talqiniga binoan, korxonaga to‘lovga layoqatliligi deganda, uning o‘z imkoniyatlarini hisobga olgan holda majburiyatlarini bajarish qobiliyati tushuniladi<sup>21</sup>.

G.V.Savitskaya korxonaning moliyaviy ahvolini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlardan biri to‘lovga qobiliyatlilik hisoblanadi, ya’ni o‘z to‘lov majburiyatlarini naqd pul resurslari bilan to‘lash imkoniyati deb, izohlaydi<sup>22</sup>.

L.S.Vasileva, M.V.Petrovskaya ta’kidlashicha, to‘lovga qobiliyatlilik korxonaga menejerlarining o‘z majburiyatlarini vaqtida va to‘liq bajarish imkoniyatining darajasidir<sup>30</sup>.

V.D.Gerasimova, L.R.Tuktarova, O.A.Chernyaeva to‘lovga qobiliyatlilik - o‘z to‘lov majburiyatlarini naqd pul mablag‘lari bilan uzish imkoniyatidir deb, ta’rif beradi<sup>23</sup>.

I.G.Davidenko, V.A.Aleshin, A.I.Zotova fikriga binoan, umumiy to‘lovga qobiliyatlilik korxonaning barcha majburiyatlari bo‘yicha hisob-kitobni amalga oshirish imkoniyatini anglatadi. Joriy to‘lovga qobiliyatlilik korxonaning o‘z qisqa muddatli majburiyatlarini uzish imkoniyatini bildiradi<sup>24</sup>.

N.N.Selezneva, A.F.Ionova korxonaga to‘lovga qobiliyatliliigi uning moliyaviy barqarorligining tashqi belgisi hisoblanadi va oborot aktivlarini uzoq muddatli manbalar bilan ta’minlanganlik darajasini asoslaydi<sup>25</sup>.

---

<sup>21</sup> Кудряшов В.С. Теоретические и методические аспекты анализа платежеспособности финансовой устойчивости предприятий// Стратегии бизнеса. 2016, № 12(32).

<sup>22</sup> Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник. Москва, Инфра-М, 2009, 538 стр.

<sup>30</sup> Васильева Л.С., Петровская М.В. Анализ финансовой отчетности// Учебник. –М.: Кнорус, 2019.

<sup>23</sup> Герасимова В.Д., Туктарова Л.Р., Черняева О.А. (2020) Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия// Учебное пособие. М.: Кнорус.

<sup>24</sup> Давыденко И.Г., Алешин В.А., Зотова А.И. Экономический анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия. М.: Кнорус, 2019, 375 б.

<sup>25</sup> Селезнева Н.Н., Ионова А.Ф. (2006) Финансовый анализ. Управление финансами// Учебное пособие. М.: ЮНИТИ-ДАНА.

Korxonalar to'lovga qobiliyatligi tahlili uning faoliyat samaradorligini tavsiflaydi. To'lovga qobiliyatlik tahlili korxonaning o'z to'lov majburiyatlarini

to'liq va o'z vaqtida naqd pul mablag'lari bilan to'lash imkoniyatini baholashdir. Korxonalar to'lovga layoqatliligi tahlili korxonaning o'zi uchun kelgusidagi moliyaviy vaziyatlarni prognoz qilish, investorlar va kreditorlar uchun yo'naltirilgan mablag'larning qaytarilishini baholash, bank uchun – mijoz-korxonaning kreditga layoqatliligi aniqlash uchun zarur.

To'lovga qobiliyatlik ko'rsatkichlari aktivlarning harakatchanligi, passivlarning barqarorligi, amalga oshirilgan aktiv va passiv operatsiyalarning muvofiqligi, korxonaning olingan majburiyatlarni qoplash imkoniyatini ifodalaydi.

Tadqiqotchilar va amaliyotchilar to'lovga qobiliyatlik ko'rsatkichlarini aniqlashda turli yondoshuvlar mavjud hamda ular ko'rsatkichlarining me'yor darajasini belgilashadi.

## 2.8-jadval

### To'lovga qobiliyatlik ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha yondoshuvlar

№	Mualliflar	To'lovga qobiliyatlik ko'rsatkichlari	Aniqlanishi	Tavsiya etilayotgan me'yor
1.	I.G.Davidenko	$K_{mtq}$	$(QMMQ+PM) / (QMKK+KM+KXR+BQMM)$	0,2-0,5
		$K_{ttq}$	$(DM+QMMQ+PM) / (QMKK+ KM+KXR+BQMM)$	0,7-1,0
		$K_{jtq}$	$(JA) / (QMKK+ KM+KXR+BQMM)$	1,0-2,0
2.	M.Yu.Raximov	$K_{mtq}$	$(QMMQ+PM) / KM$	-
		$K_{ttq}$	$(QMMQ+PM+SDM) / KM$	-
		$K_{jtq}$	$(QMMQ+PM+SDM+TMZ) / KM$	-
3.	G.V.Savitskaya	$K_{mtq}$	$(QMMQ+PM) / JM$	-
		$K_{ttq}$	$(QMMQ+PM+DM) / JM$	0,7-1,0
		$K_{jtq}$	$JA/JM$	>2,0
4.	M.T.Abdujaborova	$K_{mtq}$	$(QMMQ+PM) / JM$	0,2-0,5
		$K_{ttq}$	$(QMMQ+PM+SDM-TUKQ) / KM$	1,0-2,0
		$K_{jtq}$	$(QMMQ+PM+SDM-TUKQ+TMZ) / KM$	2,0-3,0

**Belgilar izohi:** QMMQ - qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar; PM - pul mablag'lari; QMKK - qisqa muddatli kredit va qarzarlar; KM - kreditorlik majburiyatlari; KXR - kelgusi xarajatlar rezervlari; BQMM - boshqa qisqa muddatli majburiyatlar; DM - debitorlik majburiyatlari; JA - joriy aktivlar; SDM – sof debitorlik majburiyatlari; JM – joriy majburiyatlar; TUKQ – ta'sischilarning ustav kapitali bo'yicha qarzi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, to'lovga qobiliyatlilik ko'rsatkichlarini aniqlashdagi yondoshuvlar ma'lum ma'noda bir-biridan farq qiladi. Bizning fikrimizcha, tez va joriy to'lovga qobiliyatlilik ko'rsatkichlarini aniqlashda debitorlik majburiyatlari tarkibidan muddati o'tgan majburiyatlar bilan birga ta'sischilarning ustav kapitali bo'yicha qarzi (agar mavjud bo'lsa) ni chegirish lozim. Zero, o'z vaqtida undirilmagan hamda shakllantirilmagan ustav kapitali bo'yicha mablag'lar hisobiga joriy majburiyatlarni qoplash imkonsizdir.

Odatda to'lovga qobiliyatlilikni tahlil qilishda quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- mutlaq to'lovga qobiliyatlilik ( $K_{mtq}$ );
- tez to'lovga qobiliyatlilik ( $K_{ttq}$ );
- joriy to'lovga qobiliyatlilik ( $K_{jtq}$ ).

To'lovga qobiliyatlilikning odatda quyidagi uchta koeffitsienti hisob-kitob qilinadi:

1. Joriy likvidlilik koeffitsienti  $((QMMQ+PM+SDM-TUKQ+TMZ) / KM)$ . Mazkur koeffitsient joriy majburiyatlarning har so'miga to'g'ri keladigan joriy aktivlarni (muddati o'tgan debitorlik majburiyatlari, ta'sischilarning ustav kapitali bo'yicha qarzini chegirgan holda) ifodalaydi. Koeffitsientning 2 dan yuqori bo'lishi va o'sish tendentsiyasiga ega bo'lishi ijobiy baholanadi.

2. Tez likvidlilik koeffitsienti  $((QMMQ+PM+SDM-TUKQ)/KM)$ . Mazkur koeffitsientni hisoblashda joriy aktivlar qiymatidan tovar-moddiy zaxiralar va muddati o'tgan debitorlik majburiyatlari, ta'sischilarning ustav kapitali bo'yicha qarzi) summasi chegiriladi. Koeffitsientning 1 dan yuqori bo'lishi ijobiy holat sanaladi.

3. Mutlaq likvidlilik koeffitsienti ((QMMQ+PM)/JM) pul mablag‘lari va qisqa muddatli investitsiyalar aktivlar bilan joriy majburiyatlarni qoplay olish darajasini ifodalaydi. Koeffitsientning 0,2 dan yuqori bo‘lishi ijobiy tavsifga ega. Ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektda jami joriy majburiyatlarning summasiga mos ravishda eng kamida 20% pul mablag‘lari bo‘lishi lozim.

Ilmiy adabiyotlarda va amaliyotda joriy to‘lovga qobiliyatlilik koeffitsienti asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Biroq, bizning fikrimizcha, hamma joriy aktivlar kritik holatda tez pulga aylanish qobiliyatiga ega bo‘lmaganligi bois, mutlaq va tez to‘lovga qobiliyatlilik ko‘rsatkichlari korxonaning haqiqiy to‘lov qobiliyatini ifodalaydi.

Amaliyotda joriy va umumiy to‘lovga qobiliyatlilik farqlanadi. Umumiy to‘lovga qobiliyatlilik korxonaning barcha majburiyatlari bo‘yicha aniqlanadi. Joriy to‘lovga qobiliyatlilik korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini uzish imkoniyatini anglatadi.

Korxonaning to‘lovga qobiliyatligi holati nafaqat korxonah rahbariyati, balki boshqa foydalanuvchilar uchun ham qiziqarlidir. Xomashyo va material yetkazib beruvchilar uchun mutloq to‘lovga qobiliyatlik, kreditorlar uchun tez to‘lovga qobiliyatlik, mulkdorlar va bank uchun joriy to‘lovga qobiliyatlik koeffitsienti muhimdir.

## 2.9-jadval

### To‘lovga qobiliyatlilik tahlili<sup>26</sup>

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yili	Hisobot yili	Farqi
1.	Joriy likvidlilik koeffitsienti	0,72	2,36	1,64
2.	Tez likvidlilik koeffitsienti	0,62	2,25	1,63
3.	Mutlaq likvidlilik koeffitsienti	0,12	0,83	0,71
4.	Pul mablag‘lari	157802,6	891529,7	733727,1
5.	Qisqa muddatli investitsiyalar	-	-	-
6.	Debitorlik qarzlari	846839,9	1654286,2	807446,3
7.	Muddati o‘tgan debitorlik qarzlari	192103	128822	-63281
8.	Ta‘sischilarning ustav kapitali bo‘yicha qarzi	-	-	-
9.	Tovar-moddiy zaxiralar	125595,1	124406,3	-1188,8
10.	Joriy majburiyatlar	1299344,9	1073627,3	-225717,6

<sup>26</sup> “O‘z kimyosanoatloyiha” AJ moliyaviy hisobotlari asosida.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mutlaq likvidlilik koeffitsienti o'tgan yili 0,12, hisobot yilida 0,83 ga teng bo'lgan. Koeffitsientning yuqori surhatda o'zgarishiga pul mablag'larining yuqori sur'atda oshganligi va joriy majburiyatlarning kamayganligi sabab bo'lgan. Tez likvidlilik koeffitsienti o'tgan

---

yili 0,62, hisobot yilida 0,83 ni tashkil etgan. Koeffitsient pul mablag'lari va debitorlik majburiyatlarining yuqori sur'atda oshganligi va joriy majburiyatlarning kamayishi hisobiga o'zgargan. Koeffitsientning debitorlik qarzlari hajmi oshishi hisobiga me'yor darajasidan yuqori ekanligini ham ijobiy baholab bo'lmaydi. Joriy likvidlilik koeffitsienti o'tgan yili 0,72, hisobot yilida 2,36 ga teng bo'lgan. Koeffitsientning o'zgarishiga pul mablag'lari va debitorlik majburiyatlarining yuqori sur'atda oshganligi va joriy majburiyatlarning kamayishi sabab bo'lgan. Biroq tovar-moddiy zaxiralarning kamayishi korxonada ishlab chiqarish potentsialining kamayishidan darak beradi.

Korxonada to'lovga qobiliyatlilik tahlilini koeffitsientlarni qo'llash orqali o'tkazish uning majburiyatlarini samarali boshqarish, to'lovlarni bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish bo'yicha ijobiy imidjni yaratish imkonini beradi.

Tadqiqotlarimiz natijasiga binoan, "korxonada to'lovga qobiliyatlilik" tushunchasi mohiyatiga asosiy jihatni ko'rib chiqamiz:

- korxonaning to'lovga qobiliyatlilikini aniqlashda majburiyatlarning muddati muhim ahamiyat kasb etadi;

- korxonaning to'lovga qobiliyatlilikini ko'rsatkichining qiymati korxonaning ma'lum muddatga to'lovga qobiliyatlilikini ifodalaydi;

- korxonaning to'lovga qobiliyatlilikini debitorlik qarzlarning o'z vaqtida undirilmasligi sabab o'zgarishi mumkin. Zero muddatli kelgan kreditorlik qarzlarni uzishga korxonada hisobraqamida yetarli pul mablag'lari bo'lmaydi. Shuning uchun zaruriy to'lovlarni amalga oshirishga likvid resurslar yetarli bo'lishi kerak;

-joriy aktivlar tarkibida shakllantirilmagan ustav kapitali bo'yicha qarzlarning mavjudligi korxonada to'lovga qobiliyatligi yomonlashishiga olib keladi.

Korxonada joriy to'lov qobiliyatiga uning joriy aktivlari likvidligi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Likvidli mablag'larning yetishmasligi, uning ortiqchaligi kabi maqbul holat emas. Korxonada likvid mablag'larning holati bir necha omillarga bog'liq:

- korxonada faoliyat sohasi va uning miqyosi;
- korxonaning tarmoq mansubligi;
- ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi;
- aylanuvchanlikning davomiyligi; - korxonada ishi mavsumiyligi va b.

Ishlab chiqarish rejasining bajarilmasligi va nomaromiyligi, mahsulot sifatining pasayishi, mahsulot tannarxining oshishi, foyda rejasining bajarilmasligi va oqibatda korxonada o'z moliyalashtirish manbalarining hajmining yetishmasligi, to'lanadigan soliqlarning yuqori summasi to'lovga qobiliyatsizlikning sabablari bo'lishi mumkin. Shuningdek joriy aktivlardan samarasiz foydalanish, debitorlik majburiyatlari katta hajmi va ularning tarkibida muddati o'tgan qismining mavjudligi, zaxiralar hajmining rejadan ortib ketishi, boshqa maqsadlar uchun mablag'larning yo'naltirilishi to'lovga qobiliyatsizlikning pasayishiga sabab bo'ladi.

Korxonada to'lovga qobiliyatligini tahlil etish orqali moliyaviy qiyinchiliklar sabablarini aniqlash va likvidlikni mustahkamlash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish zarur.

Qarz majburiyatlari bo'yicha to'lovni amalga oshirish uchun pul mablag'larini muddati bo'yicha rejalashtirish zarur. Bu holatda ayrim muammolar uchrashi mumkin. Masalan, korxonada har doim ham aktivlar uchun baholangan pul mablag'lari summasini ololmaydi hamda qiyin vaziyatda qoladi.

Bunda korxonada likvidligi riski mavjud. Bu vaziyatni bartaraf etish uchun risklarni minimallashtirish maqsadida korxonada likvid aktivlar rezervini maxsus likvidlik ko'rsatkichlari yordamida optimal darajada barqaror ushab turishi lozim.

Shuningdek, tadqiqotlardan ko'rinadiki, korxonada balansi passivi strukturasi tahlil qilish orqali uning to'lovga qobiliyatsizligiga olib kelgan

moliyaviy nobarqarorlik sabablarini o‘rganish imkoniga ega bo‘lish mumkin. Odatda xususiy kapitaldan oqilona foydalanmaslik va korxonada faoliyatini moliyalashtirishga jalb etilgan qarz kapitali hajmining ortishi to‘lov qobiliyatini pasayishiga olib keladi.

Likvidlilik va to‘lovga qobiliyatlilik bir-biriga aynan mos kelmasligi mumkin. Zero, to‘lovga qobiliyatlilik koeffitsientlari moliyaviy ahvolni ijobiy tavsiflashi mumkin, biroq joriy aktivlar tarkibida asosiy ulushni nolikvid va muddati o‘tgan debitorlik qarzlari tashkil etsa, bu baholash noto‘g‘ri ekanligini bildiradi<sup>27</sup>.

Buxgalteriya balansi likvidligiga baho berish uchun, uning aktiv va passiv moddalari ma’lum belgilariga ko‘ra guruhlariga ajratiladi. Aktiv moddalarni pulga aylanish tezligiga ko‘ra quyidagi guruhlariga ajratamiz:

A1-Eng yuqori likvidli aktivlar (pul mablag‘lari va qisqa muddatli investitsiyalar);

A2-Tez sotiluvchi aktivlar (debitorlik majburiyatlari);

A3-Sekin sotiluvchi aktivlar (tovar-moddiy zaxiralar jami summasi); A4-Qiyin sotiluvchi aktivlar (uzoq muddatli aktivlar).

Passiv moddalarni ham to‘lov muddatini kelishiga qarab quyidagi guruhlariga bo‘lish maqsadga muvofiqdir:

P1-To‘lov muddati kelgan majburiyatlar (kreditorlik qarzlari);

P2-Qisqa muddatli passivlar (qisqa muddatli kredit va qarzlari);

P3-Uzoq muddatli passivlar (uzoq muddatli majburiyatlar); P4-Doimiy passivlar (o‘z mablag‘lari manbalari jami).

## 2.10- jadval

### Balans likvidligining tahlili

Aktiv	Yil boshi	Yil oxiri	Passiv	Yil boshi	Yil oxiri	To‘lov manbalarining ortiqcha (+), yetishmasligi (-)	
						Yil boshi	Yil oxiri
<b>A</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>B</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>
A <sub>1</sub> Yuqori likvidli aktivlar	157802.60	891529.70	P <sub>1</sub> O‘ta tez muddatli majburiyatlar	1299344.90	1073627.30	-1141542.3	-182097,6

<sup>27</sup> Abdujabbarova M.T. Xo‘jalik subyektlari moliyaviy holatining tahlili// Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. №2 - Toshkent, 2019. 1-14 betlar.

A <sub>2</sub> Tez sotiluvchi aktivlar	846839.90	1654286.20	P <sub>2</sub> Qisqa muddatli majburiyatlar	-	-	846839.90	1654286.20
A <sub>3</sub> Sekin sotiluvchi aktivlar	125595.10	124406.30	P <sub>3</sub> Uzoq muddatli majburiyatlar	-	-	125595.10	124406.30
A <sub>4</sub> Qiyin sotiluvchi aktivlar	715098.20	536068.60	P <sub>4</sub> Doimiy passivlar	1966690.90	2132663.50	-1251592,7	-1596594?9
<b>Balans</b>	3266035.80	3206290.80	<b>Balans</b>	3266035.80	3206290.80	-	-

Likvidlilik shartlari:

A<sub>1</sub>>P<sub>1</sub>; A<sub>2</sub>>P<sub>2</sub>; A<sub>3</sub>>P<sub>3</sub>; A<sub>4</sub><P<sub>4</sub> bo'lsa, balans mutloq likvid;

A<sub>1</sub><P<sub>1</sub>; A<sub>2</sub>>P<sub>2</sub>; A<sub>3</sub>>P<sub>3</sub>; A<sub>4</sub><P<sub>4</sub> bo'lsa, balans joriy likvid; A<sub>1</sub><P<sub>1</sub>;

A<sub>2</sub><P<sub>2</sub>; A<sub>3</sub>>P<sub>3</sub>; A<sub>4</sub><P<sub>4</sub> bo'lsa, balans istiqbolli likvid; A<sub>1</sub><P<sub>1</sub>;

A<sub>2</sub><P<sub>2</sub>; A<sub>3</sub><P<sub>3</sub>; A<sub>4</sub><P<sub>4</sub> bo'lsa, balans nolikvid.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, xo'jalik yurituvchi subyekt buxgalteriya balansi joriy likvid (A<sub>1</sub><P<sub>1</sub>; A<sub>2</sub>>P<sub>2</sub>; A<sub>3</sub>>P<sub>3</sub>; A<sub>4</sub><P<sub>4</sub>) holatda bo'lgan. Bunga pul mablag'larining kreditorlik majburiyatlarini qoplashga yetmasligi sabab bo'lgan. Kelgusida debitorlik majburiyatlarining undirilishi nazorat qilinsa, mutloq likvidlilikka erishish mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holati ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy faoliyati natijalariga bog'liqdir. Ishlab chiqarish va moliya rejalarining muvaffaqiyatli bajarilishi xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasi bajarilmasligi, xarajatlarning oshishi, o'z navbatida tushum va foyda hajmining kamayishiga olib keladi. Bu holat oqibatda xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holati va to'lovga qobiliyatligini yomonlashishiga sabab bo'ladi.

## 2.6. Iqtisodiy nochorlik tahlili

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z faoliyati davomida krizis holatlarga uchrab to'lovga qobiliyatsizlik(bankrotlik) darajasiga kelib qolmoqda. Ularning joriy moliyaviy holatini to'lovga qobiliyatsizlik(bankrotlik) ehtimolining metod va modellarini qo'llagan holda baholash hamda prognozlash orqali tashxislash

lozim bo‘ladi. Natijada salbiy oqibatlarni oldindan bartaraf qilish imkoni tug‘iladi. To‘lovga qobiliyatsizlik(bankrotlik)ni prognozlashning maqbul modeli mavjud emas, har bir metodning o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

To‘lovga qobiliyatsizlik(bankrotlik)ni tashxislashdan maqsad krizis holatlar belgilarini oldindan aniqlashdir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bu holatda o‘z vaqtida samarali va ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qila olishi muhim jihat hisoblanadi.

2022 yilning 12 aprel kuni “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonun negizida “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, “bankrotlik” tushunchasi o‘rniga “to‘lovga qobiliyatsizlik” tushunchasidan foydalaniladi. Qonunning 3moddasiga muvofiq, “to‘lovga qobiliyatsizlik - sud tomonidan e‘tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini to‘la hajmda qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘la hajmda bajarishga qodir emasligi”dir<sup>28</sup>.

Ilmiy adabiyotlar va nashrlarda “to‘lovga qobiliyatsizlik” tushunchasi “bankrotlik” tushunchasi bilan bir xil ma’noda keltiriladi.

V.Masaev fikricha, bankrotlik – bu arbitraj sud yoki tashkilot mulkdorlari tomonidan qarzdorning majburiy to‘lovlar va pullik majburiyatlar bo‘yicha kreditorlar e‘tirozi bo‘yicha to‘liq hisoblashish imkonining mavjud emasligi holatidir<sup>37</sup>.

S.E.Jilinskiy talqiniga binoan, nobarqarorlik sabab, bankrotlik uning oqibati hisoblanadi. U nobarqarorlik yuridik shaxs kreditorlar, xodimlar va davlat oldidagi majburiyatlarini qoplash imkoniyatiga ega bo‘lmagan holda yuzaga keladi deb hisoblaydi. Bankrotlik, uning fikricha, qarzdorning so‘nggi sifatidir. Qarzdorning bu sifatini belgilash huquqi ma‘muriy sudlarda mavjud<sup>29</sup>.

---

<sup>28</sup> O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2022 yil 12 aprel, O‘RQ-763-son.

<sup>37</sup>Масаев В. Ключевые финансовые показатели для оценки деятельности предприятия. М.: LAP Lambert Academic Publishing, 2014. 144 с.

<sup>29</sup> Брижак А.С. Современные методы оценки вероятности банкротства коммерческих организаций. Электронный научный журнал «Вектор экономики». 2020, №3.

M.Yu.Raximov fikricha, “Iqtisodiy nochorlik, bankrotlik, krizis holati, inqiroz kabi tushunchalar odatda bitta ma’noni ya’ni, korxonalarining sinishini izohlashda ishlatiladigan tushunchalar hisoblanadi<sup>30</sup>.”

A.A.Dubrovina talqiniga binoan, “bugungi kunda tashkilot uchun o‘z to‘lovga qobiliyatligi, bankrotlik xavfi darajasi va boshqa moliyaviy risklarni boshlanishi ehtimolini baholay olish imkoniyati hayotiy muhim jihat hisoblanadi. Bankrotlik ehtimolini obyektiv baholash krizis holatlar vujudga kelishiga o‘z vaqtida ta’sir o‘tkazish, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi”<sup>31</sup>.

---

Yu.S.Nexaychuk, I.L.Nogas, “o‘z vaqtida va tizimli o‘tkazilgan moliyaviy holat tahlili, shuningdek bankrotlik ehtimolini baholash metodlarini ishlab chiqish, korxonaning bankrotlik ehtimolini o‘z vaqtida aniqlash, uning vujudga kelish xavfini sezilarli kamaytirish imkonini beradi”, deb hisoblaydi<sup>32</sup>.

A.N.Kazimir va b. keltirishicha, “korxonalar bankrotligini bartaraf qilish uchun nobarqarorlikni bashoratlash mexanizmini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish lozim”<sup>33</sup>.

S.N.Ermakova, N.A.Prodanova talqiniga binoan, “bankrotlik kontseptsiyasi asosida erkin bozorning oddiy qoidasi yotadi: raqobat muhitida samarali faoliyatga ega va tovarlari xaridorlarga ega bo‘lgan korxonalar yashab ketadi”<sup>34</sup>.

V.A.Sinyutina, G.A.Korobeynikov keltirilishicha, “korxonalar nobarqarorligining sabablari: faoliyat zararliligi yoki past rentabellik, nooqilona hisob-kitob siyosati, qarz mablag‘lari hisobiga faoliyatning moliyalashtirilishi,

---

<sup>30</sup> Raximov M.Yu. Moliyaviy hisobot tahlili. Darslik. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2021.

<sup>31</sup> Дубровина А.А. Анализ моделей прогнозирования банкротства в современных условиях. Журнал “Economics”, 2019.

<sup>32</sup> Нехайчук Ю.С., Ногас И.Л. Анализ моделей диагностики банкротства в современных условиях. Журнал “Научный вестник: финансы, банки, инвестиции», 2016.

<sup>33</sup> Казимир А.Н., Шевченко А.А., Мокосеева М.А., Тахумова О.В. Анализ финансового состояния как способ определения вероятности банкротства. Журнал “Вестник Алтайской академии экономики и права”, 2020. – № 5.

<sup>34</sup> Ермакова С.Н., Проданова Н.А. Финансовый анализ в процедурах несостоятельности (банкротства). Журнал “Журнал экономических исследований”, №4, 2017.

nooqilona investitsion siyosat, ishlab chiqarish va moliyaviy risklar ta'sirini hisobga olmaslik, tashkiliy omillar va b.”<sup>35</sup>.

K.V.Olinichenko, I.A.Kuzmicheva ta'kidlashicha, “ko'pchilik modellar moliyaviy holat tahlili uchun 3 va undan ko'p koeffitsientlarni qo'llashadi, ularning ko'pchiligi tahlil vaqtidagi faoliyatning moliyaviy natijalarini hisobga oladi, ko'rsatkichlarning davr bo'yicha o'zgarishini hisobga olmaydi”<sup>36</sup>.

M.G'.Axmatova keltirishicha, “To'lovga qobiliyatsizlik” va “bankrotlik” tushunchalari bir qancha mamlakatlar qonunchiligida bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Rossiyada esa, bu atamalar sinonim tarzida ishlatiladi. Ingliz huquqida esa to'lashga nochorlik qarzdor ko'rsatilgan hatti-harakatlardan birini sodir qilganida tasdiqlanadi. Gollandiyada nochorlik kreditorlar talabini qondirishga qodir

---

emaslikni bildiradi. Italiyada bu atama qarzdorning ma'lum muddat ichida to'lovga layoqatsizligi oqibatida qo'llaniladi”<sup>37</sup>.

Ya.V.Sitnikova fikricha, “korxonalar moliyaviy nobarqarorligi moliyaviy tenglik buzilishining oqibatlaridan biri hisoblanadi, o'z navbatida, tenglikning buzilishini ikki omil yordamida aniqlash mumkin: jalb etilgan mablag'larga moliyaviy qaramlik darajasi va majburiyatlarni to'lash uchun o'z mablag'larining yetarli emasligi. Shuningdek, bu omillar o'zaro uzviy bog'liqdir”.

B.K.Kuchkarov, X.X.O'rmonovga binoan, “to'lovga layoqatsizlik - bu tashkilotning kredit, tijorat, soliq va boshqa operatsiyalardan kelib chiqadigan moliyaviy majburiyatlarni bajara olmasligi. Buni bank hisobvaraqlarida mablag' yetishmasligi, kreditorlar oldidagi uzoq muddatli qarzlarni, o'z aylanma mablag'larining yetishmasligi bilan tasdiqlanadi”.

A.O.Xaitboev ta'kidlashicha, “Rasmiy ravishda bankrotlik deganda, qarzdorning ixtiyoriy iltimosiga binoan yoki uning kreditorlarining iltimosiga binoan

---

<sup>35</sup> Синютин В.А., Коробейников Г.А. Журнал “Социально-экономическое управление: теория и практика”. №1(30), 2017.

<sup>36</sup> Олиниченко К.В., Кузьмичева И.А. Банкротство предприятий и система критериев их неплатежеспособности. Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2015, №6.

<sup>37</sup> Axmatova M.G'. O'zbekistonda to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining rivojlanishi. “Ta'lim fidoyilari” jurnali. May, 2022.

qonuniy nochor deb e'tirof etilgan va qolgan mol-mulki ushbu kreditorlarning yurisdiksiyasida bo'lgan yoki ular o'rtasida taqsimlangan holat tushuniladi. Ya'ni, o'z mohiyatiga ko'ra, bankrotlik yuridik jihatdan tan olingan to'lovga layoqatsizlikdir".

To'lovga qobiliyatsizlik(bankrotlik) ehtimolini baholashda xorij va milliy amaliyotda juda ko'p miqdoriy metodlardan foydalaniladi. Ulardan eng ko'p qo'llaniladigani Altman, Lis, Taffler, Tishou modellari hisoblanadi.

Bankrotlik ehtimolini baholash va kreditga layoqatlilikni baholashning mashhur Z-Altman modeli quyidagicha hisoblanadi:

$$Z=1,2X_1+1,4X_2+3,3X_3+0,6X_4+0,999X_5 \text{ Bu}$$

yerda:

$X_1$  – sof kapital (o'z oborot mablag'lari / aktivlar summasi);

$X_2$  – taqsimlanmagan foyda / aktivlar summasi;

$X_3$  – soliqlar va foizlar to'langungacha bo'lgan foyda / aktivlar summasi;

---

$X_4$  –aktsiyalarning bozor qiymati / qarz majburiyatlari;

$X_5$  – sof tushum / aktivlar summasi/

Altman modeli bo'yicha ko'p sonli hisob-kitoblar natijalari ko'rsatadiki, Z umumlashgan ko'rsatkichi [-14, 22] oraliqdagi miqdorni egallaydi.  $Z > 2,99$  bo'lgan kompaniyalar moliyaviy barqaror,  $Z < 1,81$  bo'lgan kompaniyalar nobarqaror, (1,812,99) noaniqlik zonasida hisoblanadi.

## 2.11-jadval

### Altmanning besh omilli modeli asosida bankrotlik ehtimoli tahlili

Ko'rsatkichlar	«O'zmetkombinat» AJ	Kvarts» AJ
$X_1$ – sof kapital (o'z oborot mablag'lari / aktivlar summasi)	0	0
$X_2$ – taqsimlanmagan foyda / aktivlar summasi	0,29	0,05
$X_3$ – soliqlar va foizlar to'langungacha bo'lgan foyda / aktivlar summasi	0,22	0,05

X <sub>4</sub> – aktsiyalarning bozor qiymati / qarz majburiyatlari	0,0000018	0,0000044
X <sub>5</sub> – sof tushum / aktivlar summasi	1,04	0,43
Z-Altman modeli	2,17	0,66

Izoh: “O‘zmetkombinat” AJ ning aktsiyasining bozor qiymati 2023 yil aprel oyi uchun 8900 so‘m, “Kvarts” AJ aktsiyasining bozor qiymati 2900 so‘m.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, Z-Altman modeli bo‘yicha “O‘zmetkombinat” AJ da Z 2,17 ga teng bo‘lib, aksionerlik jamiyati noaniqlik zonasida ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Kvarts” AJ da Z 0,66 ga teng bo‘lib, aksionerlik jamiyati moliyaviy holati nobarqaror ekanligini ko‘rsatmoqda.

Amerikalik analitiklar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, Altman modeli bo‘yicha hisob-kitoblar 95% ehtimollik bilan bir yil oldin, 83% ehtimollik bilan kompaniya bankrotligining aniq tashxisini qo‘yishni ta’minlaydi. Keyinchalik Altman tomonidan bankrotlikni besh yil oldin 70% aniqlik bilan bashoratlash imkonini beradigan yetti omilli model (aktivlar rentabelligi, foydaning o‘shish darajasi, foizlarni qoplash koeffitsienti, joriy likvidlilik koeffitsienti, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, aktivlarning qiymati koeffitsienti) ishlab chiqildi. Biroq, to‘rtinchi koeffitsientda aktsiyalarning bozor qiymati ko‘rsatkichi qatnashganligi bois, bu modelni faqat aktsiyalari birjada kotirovka qilinadigan kompaniyalarda qo‘llash mumkin. Shu bois, keyinroq Altman tomonidan aktsiyalari bozorda kotirovka qilinmaydigan kompaniyalar uchun maxsus variant ishlab chiqildi(2.12-jadval).

## 2.12-jadval

### Aktsiyalari bozorda kotirovka qilinmaydigan kompaniyalar uchun Altmaning besh omilli modelining asosiy ko‘rsatkichlari

Bankrotlik ehtimoli koeffitsienti	$Z=0,717X_1+0,847X_2+3,1X_3+0,42X_4+0,995X_5$
Shartli belgilar	Z – miqdor belgilari krizis holat mavjudligini tashxislaydigan diskriminant funktsiya
	$X_1 = O'z\ oborot\ kapitali / Balans\ summasi$
	$X_2 = Taqsimlanmaydigan\ foyda / Balans\ summasi$
	$X_3 = Soliq\ to'lagunga\ qadar\ bo'lgan\ foyda / Balans\ summasi$

	$X_4 = \text{Xususiy kapital} / \text{Qarz kapitali}$
	$X_5 = \text{Sof tushum} / \text{Balans summasi}$
Bankrotlik ehtimoli darajasi bo'yicha differentsiatsiya	$Z < 1,23$ – bankrotlik ehtimoli yuqori; $1,23 < Z < 2,9$ – noaniqlik zonasi; $Z > 2,9$ – bankrotlik ehtimoli past.

To'rtinchi koeffitsientni hisoblashda aktsiyalarning bozor qiymati o'rniga ularning balans qiymatidan foydalaniladi.

Lis modeli (Buyuk Britaniya) bankrotlik ehtimolini likvidlilik, rentabellik, moliyaviy mustaqillik kabi ko'rsatkichlar asosida aniqlash imkonini beradi(2.13jadval):

**2.13-jadval**

**To'rt omilli Lis modelining asosiy ko'rsatkichlari**

Bankrotlik ehtimoli koeffitsienti	$Z = 0,063X_1 + 0,092X_2 + 0,057X_3 + 0,001X_4$
Shartli belgilar	$Z$ – miqdor belgilari krizis holat mavjudligini tashxislaydigan diskriminant funktsiya
	$X_1 = \text{Aylanma aktivlar} / \text{Balans summasi}$
	$X_2 = \text{Sotishdan foyda} / \text{Balans summasi}$
	$X_3 = \text{Taqsimlanmagan foyda} / \text{Balans summasi}$
	$X_4 = \text{Xususiy kapital} / \text{Qarz kapitali}$
Bankrotlik ehtimoli darajasi bo'yicha differentsiatsiya	$Z < 0,037$ – bankrotlik ehtimoli yuqori; $Z > 0,037$ – bankrotlik ehtimoli past.

Tafflerning to'rt omilli bashoratli modeli (Buyuk Britaniya) sotishdan foyda va joriy majburiyatlar nisbati, aylanma kapitalning majburiyatlarga nisbati, joriy majburiyatlarning aktivlarga nisbati, sof tushumning aktivlarga nisbati kabi ko'rsatkichlar asosida bankrotlik ehtimolini aniqlash imkonini beradi(2.14-jadval):

**2.14-jadval**

**To'rt omilli Taffler modelining asosiy ko'rsatkichlari**

Bankrotlik ehtimoli yakuniy koeffitsienti	$Z = 0,53X_1 + 0,13X_2 + 0,18X_3 + 0,16X_4$
Shartli belgilar	$Z$ – miqdor belgilari krizis holat mavjudligini tashxislaydigan diskriminant funktsiya
	$X_1 = \text{Sotishdan foyda} / \text{Joriy majburiyatlar}$
	$X_2 = \text{Aylanma aktivlar} / \text{Qarz kapitali}$
	$X_3 = \text{Joriy majburiyatlar} / \text{Balans summasi}$

	$X_4 = \text{Sotishdan tushum} / \text{Balans summasi}$
Bankrotlik ehtimoli darajasi bo'yicha differentsiatsiya	$Z < 0,2$ – bankrotlik ehtimoli mavjud; $Z > 0,03$ – ijobiy uzoq muddatli istiqbolga ega.

Springeyt modeli bankrotlik xavfini aniqlashning quyidagi formulasini taqdim etadi(2.15-jadval):

**2.15-jadval**

**Springeyt modeli**

Bankrotlik ehtimoli yakuniy koeffitsienti	$Z = 1,03X_1 + 3,07X_2 + 0,66X_3 + 0,4X_4$
Shartli belgilar	Z – miqdor belgilari krizis holat mavjudligini tashxislaydigan diskriminant funktsiya
	$X_1 = \text{O'z oborot mablag'ari} / \text{Balans summasi}$
	$X_2 = \text{Soliqlar va foizlar to'langungacha bo'lgan foyda} / \text{Balans summasi}$
	$X_3 = \text{Soliq to'langungacha bo'lgan foyda} / \text{Joriy majburiyatlar}$
	$X_4 = \text{Sotishdan tushum} / \text{Balans summasi}$
Bankrotlik ehtimoli darajasi bo'yicha differentsiatsiya	$Z < 0,862$ – bankrotlik ehtimoli mavjud.

Springeyt modeli bo'yicha bashoratlashning aniqligi 92,5% ni tashkil etadi.

A.D.Sheremet tomonidan quyidagi formula asosida hisob-kitob qilinadigan

bankrotlikni bashoratlash koeffitsienti ishlab chiqilgan:

$$BBK = (QMDM + QMMQ + PM - QMQM - QMKM) / BS$$

Bu yerda: QMDM – qisqa muddatli debitorlik majburiyatlari;

QMMQ – qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar;

PM – pul mablag'lari;

QMQM – qisqa muddatli qarz mablag'lari; QMKM

– qisqa muddatli kreditorlik majburiyatlari; BS –

balans summasi.

Sheremetning bankrotlikni bashoratlash koeffitsienti balans aktivi summasida sof aylanma aktivlar ulushini tavsiflaydi. Shu bois moliyaviy nobarqaror kompaniyada ushbu koeffitsientning salbiy dinamikasi kuzatiladi.

Yuqori bankrotlik ehtimoli natijasida moliyaviy holatni bashoratlash, kredit riskini baholash uchun G.V.Savitskayaning balli-reyting metodikasidan foydalanish mumkin(2.16-jadval). Ushbu metodika ma'lumotlariga muvofiq kompaniyalar quyidagi sinflardan biriga mansub bo'lishi mumkin:

I sinf – yaxshi moliyaviy barqarorlik zaxirasiga ega kompaniya, qarz mablag'lari qaytishiga ishonch hosil qilish imkonini beradi;

II sinf – majburiyatlar bo'yicha risk darajasiga ega bo'lgan kompaniya, biroq hali riskli hisoblanmaydi;

III sinf – muammoli kompaniya, mablag'larni yo'qotish riski mavjud emas, biroq foizlarni to'liq olish shubhali bo'ladi;

IV sinf – bankrotlikning yuqori riskiga ega bo'lgan kompaniya, kreditorlar o'z mablag'lari va foizlarni yo'qotish xavfiga ega;

V sinf – yuqori riskli kompaniya, deyarli nobarqaror; VI sinf – kompaniya bankrot.

## G.V.Savitskayaning balli-reyting metodikasi

Ko'rsatkichlar	Mezonlarga muvofiq sinflarning chegarasi											
	I sinf		II sinf		III sinf		IV sinf		V sinf		VI sinf	
	Miqdorning mezon chegarasi	Ball	Miqdorning mezon chegarasi	Ball	Miqdorning mezon chegarasi	Ball	Miqdorning mezon chegarasi	Ball	Miqdorning mezon chegarasi	Ball	Miqdorning mezon chegarasi	Ball
Mutloq likvidlilik koeffitsienti	$\geq 0,25$	20	0,2	16	0,15	12	0,1	8	0,05	4	$\leq 0,05$	0
Tez likvidlilik koeffitsienti	$\geq 1$	18	0,9	15	0,8	12	0,7	9	0,6	6	$\leq 0,5$	0
Joriy likvidlilik koeffitsienti	$\geq 2$	16,5	1,9-1,7	15-12	1,6-1,4	10,57,5	1,3-1,1	6-3	1	1,5	$\leq 0,5$	0
Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	$\geq 0,6$	17	0,59-0,54	15-12	0,53-0,43	11,47,4	0,42-0,41	6,6-1,8	0,4	1	$\leq 0,4$	0
O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti	$\geq 0,5$	15	0,4	12	0,3	9	0,2	6	0,1	3	0,1	0
Zaxiralarni o'z oborot mablag'lari bilan	$\geq 1$	15	0,9	12	0,8	9	0,79	6	0,6	3	$\leq 0,5$	0

ta'minlanganlik koeffitsienti												
Sinflarning balldagi chegarasi	100	85-64	63-57	56-42	28-8	0						

Ushbu modellar asosida aksionerlik jamiyatlarining bankrotlik ehtimolini baholaymiz(2.17-jadval):

## 2.17-

### jadval Turli modellar asosida bankrotlik ehtimoli tahlili

Modellar	Ko'rsatkichlar	«O'zmetkombinat» AJ	Kvarts» AJ
Lis modeli	$X_1 = \text{Aylanma aktivlar} / \text{Balans summasi}$	0,74	0,19
	$X_2 = \text{Sotishdan foyda} / \text{Balans summasi}$	0,34	0,15
	$X_3 = \text{Taqsimlanmagan foyda} / \text{Balans summasi}$	0,29	0,05
	$X_4 = \text{Xususiy kapital} / \text{Qarz kapitali}$	0,64	0,52
Natija $Z=0,063X_1+0,092X_2+0,057X_3+0,001X_4$		0,0951	0,0548
		Bankrotlik ehtimoli past	Bankrotlik ehtimoli past
Taffler modeli	$X_1 = \text{Sotishdan foyda} / \text{Joriy majburiyatlar}$	0,78	0,52
	$X_2 = \text{Aylanma aktivlar} / \text{Qarz kapitali}$	1,22	0,29
	$X_3 = \text{Joriy majburiyatlar} / \text{Balans summasi}$	0,44	0,85
	$X_4 = \text{Sotishdan tushum} / \text{Balans summasi}$	1,05	0,43
Natija $Z=0,53X_1+0,13X_2+0,18X_3+0,16X_4$		0,8192	0,5351
		ijobiy uzoq muddatli istiqbolga ega	ijobiy uzoq muddatli istiqbolga ega
Springeyt modeli	$X_1 = \text{O'z oborot mablag'ari} / \text{Balans summasi}$	0	0
	$X_2 = \text{Soliqlar va foizlar to'langungacha bo'lgan foyda} / \text{Balans summasi}$	0,22	0,05
	$X_3 = \text{Soliq to'langungacha bo'lgan foyda} / \text{Joriy majburiyatlar}$	0,50	0,05
	$X_4 = \text{Sotishdan tushum} / \text{Balans summasi}$	1,05	0,19
Natija $Z=1,03X_1+3,07X_2+0,66X_3+0,4X_4$		1,4254	0,2625
		+	bankrotlik ehtimoli mavjud
G.V.Savitskaya	Mutloq likvidlilik koeffitsienti	0,60	0,02
	Tez likvidlilik koeffitsienti	1,34	0,15
	Joriy likvidlilik koeffitsienti	1,69	0,65
	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	0,39	0,34
	O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti	0	0

	Zaxiralarni o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti	0	0
Natija		48,5	1,5
		IV sinf - bankrotlikning yuqori riskiga ega bo'lgan kompaniya	VI sinf - kompaniya bankrot

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, aksionerlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida turli bankrotlik ehtimolini bashoratlash modellarini qo'llagan holda o'rganilganda turli natijalarni qo'lga kiritish mumkin. Jumladan, "O'zmetkombinat" AJ Lis modeli bo'yicha Bankrotlik ehtimoli past, Taffler modeli bo'yicha ijobiy uzoq muddatli istiqbolga ega, Springeyt modeli bo'yicha bankrotlik ehtimoli mavjud emas, G.V.Savitskaya modeli bo'yicha IV sinf - bankrotlikning yuqori riskiga ega bo'lgan kompaniya hisoblanadi. Xuddi shu kabi, "Kvarts" AJ Lis modeli bo'yicha Bankrotlik ehtimoli past, Taffler modeli bo'yicha ijobiy uzoq muddatli istiqbolga ega, Springeyt modeli bo'yicha bankrotlik ehtimoli mavjud, G.V.Savitskaya modeli bo'yicha IV sinf - bankrot darajasidagi aksionerlik jamiyati ekanini ko'rish mumkin.

M.Q.Pardaev va b. ko'ra, "Likvidlilik va to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga quyidagi yo'llar bilan erishiladi: mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hajmini ko'paytirish; tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot qoldiqlarini qisqartirish; debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish hamda ular yuzasidan muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'lash; o'z majburiyatlari bo'yicha vaqtida hisob-kitob qilish hamda muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'lash; joriy aktivlardagi o'z aylanma mablag'lari ulushini ko'paytirish; aylanma mablag'lar aylanish tezligini oshirish"<sup>38</sup>.

Har bir xo'jalik yurituvchi subyektning o'ziga xos xususiyatlari bo'lgani bois, barcha ko'rib o'tilgan metodikalar universal bo'la olmaydi. Bundan tashqari, to'lovga qobiliyatsizlik(bankrotlik) sabablari turli xil krizislar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

<sup>38</sup> Pardaev M.Q., Xolikulov A.N., Raximov H.A., Berdikulova I.R., Babanazarova S.A. Korxonalar moliyaviy hisobotlari tahlili. Uslubiy qo'llanma. Samarqand, 2022.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatining muntazam moliyaviy nobarqarorligi to‘lovga qobiliyatsizlik(bankrotlik) xavfini ortishiga olib keladi. To‘lovga qobiliyatsizlikning tizimli tahlili xo‘jalik-moliyaviy faoliyatning “og‘riqli nuqtalarini o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi. To‘lovga

qobiliyatsizlik(bankrotlik)ning yuqori ehtimollik darajasida uning yuzaga kelish sabablarini bilish antikrizis choralarini ishlab chiqish jarayonini osonlashtiradi.

Tadqiqotlarga tayanib, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lovga qobiliyatsizlik(bankrot) holatiga tushishini oldini olish uchun quyidagi choratadbirlarni tavsiya etish mumkin(2.18-jadval):

### 2.18-jadval

#### To‘lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik)ni oldini olish bo‘yicha choratadbirlar

<b>№</b>	<b>Faoliyat yo‘nalishlari</b>	<b>Taklif</b>
1.	Operatsion faoliyat	operatsion faoliyat samaradorligini ta‘minlash
		ishlab chiqarish hajmini optimallashtirish orqali tayyor mahsulot qoldig‘ini kamaytirish
		yaratilayotgan mahsulot(ko‘rsatilayotgan xizmat)ning raqobatbardoshligini ta‘minlash
		jami yaratilayotgan mahsulot(xizmat) tarkibida innovatsion mahsulot ulushini oshirish
		sotish hajmi o‘shish tendentsiyasi
2.	Moliyaviy holat	jami manbalar tarkibida o‘z mablag‘lari ulushini oshirish
		aktivlarning optimal strukturasi ishlab chiqish(har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt va uning tarmoq xususiyatini inobatga olgan holda)
		o‘z aylanma mablag‘larining ijobiy ko‘rinishini ta‘minlash
		xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati nobarqarorligini prognozlash mexanizmini takomillashtirish

		debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini ta'minlash, ularning tarkibida muddati o'tgan qarzlarning mavjud emasligi
3.	Moliyaviy natijaviylik	barcha faoliyat turlari bo'yicha ijobiy moliyaviy natijaviylikni ta'minlashga erishish foydalilik ko'rsatkichlarining ijobiy ko'rinishini ta'minlash
4.	Boshqaruv	oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qila olish qobiliyati moliyaviy strategiyani ishlab chiqish kadrlar salohiyati strategik boshqaruv modellari asosida strategik tahlil qilish

I.V.Zenkina, O.A.Omelchenko talqiniga binoan, bankrotlikka olib keladigan sabablar har xil va keng doiradagi omillarning o'zaro ta'siri natijasini o'zida aks ettiradi. Ularni quyidagi tarzda turkumlash mumkin<sup>39</sup> Tashqi omillar:

iqtisodiy: mamlakat iqtisodiyotining krizis holati, inflyatsiya, ishlab chiqarishning kamayishi, moliyaviy tizimning nobarqarorligi; siyosiy: jamiyatning siyosiy nobarqarorligi, davlatning tashqi iqtisodiy siyosati, iqtisodiy aloqalarning uzilishi; ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivoji bilan xalqaro raqobatning kuchayishi; demografik: son, aholi tarkibi, xalq farovonligi darajasi.

Ichki omillar:

samarasiz ishlab chiqarish-tijorat faoliyat yoki investitsion siyosat oqibatida o'z aylanma kapitalining yetishmasligi; ishlab chiqarish texnikasi, texnologiyasi va tashkil etishning past darajasi; faol va nazorat qilinmaydigan xo'jalik faoliyatining kengayishi; me'yordan ortiq tugallanmagan qurilish, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarining vujudga kelishi.

Tadqiqotlarimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, joriy davr uchun to'lovga qobiliyatsizlikni ma'lum jihatdan bartaraf etish mumkin, biroq unga olib keluvchi

<sup>39</sup> Zenkina И.В., Омельченко О.А. Анализ и прогнозирование несостоятельности (банкротства) коммерческой организации. Журнал "Учет и статистика", 2008.

omillar har tomonlama o'rganilmas ekan, tez orada ushbu holat yana takrorlanadi. Shu bois to'lovga qobiliyatlilikni uzoq muddat saqlab qolish uchun strategik tahlil o'tkazilishi lozim.

Aktivlarni samarali boshqarish, zaxiralarni qoplashga o'z aylanma mablag'larining yetarliligi, majburiyatlarni doimiy nazorat qilish va ijobiy moliyaviy natijalar moliyaviy holat sog'lomligining muhim omili hisoblanadi.

---

## **2.7. Ish aktivligining tahlili**

Zamonaviy iqtisodiyotda xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati ko'p jihatdan aylanma mablag'larning holati va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liqdir.

Har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatining samaradorligi va ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish uchun yetarli miqdorda aylanma mablag'larga ega bo'lishi lozim.

Aylanma mablag'lar haqidagi axborot buxgalteriya balansini va unga berilgan izohlardan olinadi. Buxgalteriya balansini aktiv qismining 2-"Aylanma aktivlar" bo'limida aylanma mablag'lar summasi aks ettiriladi. Bu bo'lim xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum davr uchun aylanma mablag'lari jami summasini aks ettiradi.

Odatda tarmoq mansubligiga qarab aylanma mablag'lar jami aktivlar tarkibida yuqori salmoqni tashkil etadi.

Aylanma mablag'lar o'z va qarzi mablag'lari hisobiga shakllanadi. SHu bois buxgalteriya balansini o'rganganda aylanma mablag'larning qaysi manbalar hisobiga shakllanganligiga alohida ahamiyat qaratish lozim. Bularning barchasini buxgalteriya balansini bilan vizual tanishish orqali kuzatish mumkin.

Aylanma mablag‘larni tahlil etishda bir qancha jihatlarga ehtibor qaratish lozim<sup>40</sup>:

aylanma mablag‘lar eng avvalo o‘z mablag‘lari hisobiga shakllanishi lozim; aylanma mablag‘lar tarkibida o‘z mablag‘lari ulushi qarz mablag‘laridan yuqori bo‘lishi lozim; aylanma mablag‘lar summasi joriy majburiyatlar summasidan yuqori bo‘lishi lozim; aylanma mablag‘lar summasi umumiy va turlari bo‘yicha belgilangan me‘yor darajasida bo‘lishi lozim;

---

pul mablag‘lari mudom aylanishda bo‘lishi, biroq ularning qoldig‘i doimiy to‘lovga qobiliyatlikni ta‘minlashi lozim; material qiymatliklar zaxirasi ishlab chiqarish dasturi va mahsulot realizatsiyasining o‘z vaqtida va muntazam bajarilishini ta‘minlashi lozim; har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt ilmiy asoslangan aylanma mablag‘lar va ularning turlari bo‘yicha me‘yorga ega bo‘lishi lozim.

Demak, xo‘jalik yurituvchi subyekt yetarli miqdorda moddiy, mehnat, moliyaviy resurslar bilan ta‘minlanganligi bilan birga, operatsion faoliyat samaradorligini ta‘minlash uchun o‘z aylanma mablag‘lari(O‘AM)ning yetarliligini tahlil qilishi lozim.

Aylanma mablag‘larni tahlil etishda quyidagi umumiy va xususiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

Umumiy ko‘rsatkichlar:

Aylanma mablag‘lar ayanuvchanligi koeffitsienti;

Aylanma mablag‘lar aylanish davri;

Aylanish salmog‘i koeffitsienti.

---

<sup>40</sup> Абдукаримов И.Т. Мониторинг и анализ оборотных средств на основе бухгалтерской (финансовой) отчетности коммерческих предприятий. №5, 2013.

Xususiy ko'rsatkichlar:

TMZ ayanuvchanligi koeffitsienti;

Debitorlik majburiyatlari ayanuvchanligi koeffitsienti;

Pul mablag'lari aylanuvchanligi koeffitsienti;

TMZ aylanish davri;

Debitorlik majburiyatlari aylanish davri;

Pul mablag'lari aylanish davri;

TMZ aylanish salmog'i koeffitsienti;

Debitorlik majburiyatlari salmog'i koeffitsienti;

Pul mablag'lari aylanish salmog'i koeffitsienti.

## 2.19-jadval

### Aylanma mablag'lar aylanishining tahlili<sup>41</sup>

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili
1	Mahsulot(ish,xizmat) sotishdan sof tushum	5299314748	8352753273
2	Aylanma mablag'lar summasi	2748034479	5936665525
3	Aylanma mablag'lar aylanishi koeffitsienti	1,93	1,41
4	Aylanma mablag'lar aylanishi davri, kun	189	259
5	Aylanma mablag'lar salmog'i koeffitsienti	0,52	0,71

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, aksionerlik jamiyatining aylanma mablag'lari aylanishi koeffitsienti hisobot yilida 1,41 ga teng bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 0,52 ga kamaygan. Bunga, o'z navbatida, aylanma mablag'lar summasining yuqori sur'atda o'sganligi sabab bo'lgan.

O'z navbatida aylanma mablag'lar aylanish davri hisobot yilida 259 kunga teng bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 70 kunga uzaydi. Aylanma mablag'lar salmog'i koeffitsienti 0,71 ga teng bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 0,19 ga oshgan. Aksionerlik

<sup>41</sup> "O'zmetkombinat" AJ молиявий ҳисобот маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоби.

jamiyatida aylanma mablag‘lar aylanishi sekinlashganini ijobiy baholab bo‘lmaydi. Shu bois, mahsulot sotishdan sof tushumning aylanma mablag‘lar aylanishiga nisbatan yuqoriroq surhatda o‘shishiga erishishi lozim.

Xalqaro amaliyotda aylanma mablag‘lar turli nomlar bilan, jumladan, joriy aktivlar, mobil aktivlar, oborot aktivlari kabi nomlanadi. Shuningdek, o‘z aylanma mablag‘lari (own circulating assets) iborasi bilan birga, sof oborot aktivlari (pure turnaround actives), o‘z oborot kapitali(own working capital), ishchi kapital (working capital) kabi iboralar qo‘llaniladi.

Korxonada moliyaviy holatini tahlil qilishda o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik ko‘rsatkichini( $K_{O'AM}$ )ni aniqlash muhim o‘rin tutadi. Bu ko‘rsatkich o‘z aylanma mablag‘larining joriy aktivlar tarkibidagi ulushini ifodalaydi.

Mazkur masala ko‘pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganiladi hamda moliyaviy tahlilni o‘tkazishda unga alohida o‘rin ajratiladi(2.20-jadval).

### O‘z aylanma mablag‘lari tushunchasiga berilgan ta‘riflar

#### 2.20-jadval

№	Mualliflar	Izoh
1.	Sheremet A.D., Kozelgtseva Ye.A. <sup>42</sup>	O‘z oborot mablag‘larining mavjudligi(O‘AM) o‘z mablag‘lari manbalari plyus uzoq muddatli qarz mablag‘lari hamda asosiy vositalar va qo‘yilmalar o‘rtasidagi farqqa teng.
2.	Mironov A.V. <sup>43</sup>	Bu oborot mablag‘lari va qisqa muddatli majburiyatlar o‘rtasidagi tafovutdir.

<sup>42</sup> Шеремет А.Д., Козельцева Е.А. Финансовый анализ: Учебно-методическое пособие. – М.: Экономический факультет МГУ имени М. В. Ломоносова, 2020. – 200 стр.

<sup>43</sup> Сигидов Ю.И., Мороз Н.Ю., Оксанич Е.А., Ясменко Г.Н. Анализ финансовой отчетности: учебник / - Краснодар: КубГАУ, 2020. - 358 стр.

3.	Blajevich O.G., Mriouk V.D. <sup>44</sup>	Bu korxonaning oborot mablag‘lariga qo‘yilgan va korxonaning joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan o‘z mablag‘laridir.
4.	Benderskaya O.B. <sup>45</sup>	O‘z oborot mablag‘lari(O‘AM) balans ma‘lumotlari asosida doimiy kapital va oborotdan tashqari aktivlar o‘rtasidagi tafovut sifatida hisoblanadi.
5.	Buxonova S.M., Doroshenko Yu.A. <sup>46</sup>	Bu kompaniya doimiy kapitalining oborot aktivlarini qoplash manbasi sifatidagi qismidir.

Normal faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektda o‘z aylanma mablag‘lari miqdori ijobiy ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bunday ifoda qisqa muddatli qarz manbalarini qoplash uchun o‘z aylanma mablag‘larining yetarliligini ko‘rsatadi. O‘z aylanma mablag‘larining ijobiy miqdori va o‘zgarishi xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy barqarorligini tavsiflaydi.

Shu bilan birga, shunday xo‘jalik yurituvchi subyektlar borki, o‘z aylanma mablag‘larining salbiy miqdori to‘lovga qobiliyatsizlik bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarmaydi. Bunday holat operatsion tsiklning juda qisqaligi va zaxiralarning yuqori aylanuvchanligi bilan bog‘liq hisoblanadi.

---

Shunday tarzda umuman iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik ko‘rsatkichining manfiy miqdorini kuzatish mumkin.

## 2.21-jadval

### O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik ko‘rsatkichini hisoblash modellari

Modellar	Hisoblash formulasi	Iqtisodchi olimlar
----------	---------------------	--------------------

<sup>44</sup> Сигидов Ю.И., Мороз Н.Ю., Оксанич Е.А., Ясенко Г.Н.. Анализ финансовой отчетности: учебник / - Краснодар: КубГАУ, 2020. - 358 стр.

<sup>45</sup> Васильева Н.К. // Финансовая устойчивость и оценка финансового состояния организации / Васильева Н.К., Васильева Н.П. // Проблемы и перспективы развития теории и практики экономического анализа в России и за рубежом: сб. ст. III Междунар. науч.-практ. конф. студентов, аспирантов и преподавателей. - Краснодар: КубГАУ, - 2015. - 272 стр. - 26-30 стр.

<sup>46</sup> Васильев В.П. Методические аспекты анализа оборотных активов / Васильева Н.П., Васильев В.П. // Проблемы и перспективы развития экономического контроля и аудита в России. - 2015. 163-169 стр.

I model	O'MM-UMA	Dontsova L.V., Nikiforova N.A., Gavrilova A.N., Nezamaykin V.N.
II model	O'MM+KDD+BM-UMA	Savitskaya G.V., Kozeltseva Ye.A., Markaryan E.A., Gerasimenko G.P.
III model	JA-QMM	Abdulkarimov I.T., Kovalev V.V., Volkova O.N., Efimova O.V., Mironov A.V.
IV model	O'MM+UMM-UMA	Abdulkarimov I.T., Blank I.A., Lyubushin N.P., Dyakova V.G., Sheremet A.D., Kozeltseva Ye. A.
V model	O'MM-(UMA-(UMKQ-A)-(QMKQ-G))	Glazunov M.I.

**Belgilar izohi:** O'OM – o'z oborot mablag'lari, O'MM – o'z mablag'lari manbalari, UMA – uzoq muddatli aktivlar, KDD – kelgusi davr daromadlari, BM – baholangan majburiyatlar, JA – joriy aktivlar, QMM – qisqa muddatli majburiyatlar, UMM – uzoq muddatli majburiyatlar, UMKQ – uzoq muddatli kredit va qarzarlar, A – oborot aktivlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kredit va qarzarlar, QMKQ – qisqa muddatli kredit va qarzarlar, G - oborot aktivlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan qisqa muddatli kredit va qarzarlar.

Tadqiqotlarimizdan ko'rinadiki, aylanma mablag'lar tarkibida aylanishda bo'lmagan va ishlab chiqarish jarayonida qatnasha olmaydigan aktivlar summasi ham bo'lishi mumkin. Jumladan, muddati o'tgan debitorlik qarzlari, ta'sischilarning ustav kapitali bo'yicha qarzarlar summasi kabi aktivlar o'z aylanma mablag'larining mavjud summasidan ayiriladi.

$$O'AM = O'AM - MO'DM - TUKQ.$$

O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi analitik ko'rsatkich sifatida moliyaviy tahlilning likvidlilik, ish aktivligi, to'lovga qobiliyatlilik, joriy moliyaviy barqarorlik tahlili yo'nalishlarida qo'llaniladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning o'z aylanma mablag'lari bilan yetarli miqdorda ta'minlanishi aktivlar va passivlarning optimal nisbatini ifodalaydi. Bundan ko'rinadiki, moliyaviy holatga nafaqat kapital va aktivlarning holati, balki ular o'rtasidagi yuzaga kelgan bog'liqlik ham ta'sir ko'rsatadi.

Fikrimizcha, aylanma mablag'lar tahlilini uch bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

aylanma mablag'lar holatini tahlil qilish; aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik tahlili; aylanma mablag'lardan samarali foydalanish tahlili.

Aylanma mablag'lar holatini tahlil etishda muayyan davr uchun ularning hajmi, tarkibi, strukturasi e'tibor qaratish, dinamik o'zgarishlarini aniqlash, o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlikni tahlil qilish lozim. Aylanma mablag'lar holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri ularning strukturasi hisoblanadi.

Aylanma mablag'lar strukturasi o'rganishda hisobot davri ma'lumotlari o'tgan bir necha yillar bilan solishtirilib, o'zgarish dinamikasiga baho berish lozim. Shuningdek, ular turlari bo'yicha korxonaning normal faoliyat yuritishini ta'minlashi uchun yetarli miqdorda bo'lishi lozim. Aylanma mablag'larni tahlil qilishda haqiqiy mavjud aylanma mablag'lar me'yor bilan solishtirilishi, ularning ortiqchaligi yoki yetishmovchiligi aniqlanishi lozim.

Jumladan, ishlab chiqarish zaxiralari summasining oshishi xo'jalik yurituvchi subyekt ishlab chiqarish hajmini oshirayotganligi yoki xomashyo va materiallarning me'yordan ortiq zaxirasini jamg'arayotganligini anglatadi. Ishlab chiqarish zaxiralarida o'z mablag'lari manbalari ulushining yuqori bo'lishi korxonaning moliyaviy barqarorligi, kreditorlik qarzlariga qaram emasligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining pastligini bildiradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmiga bog'liq hisoblanadi. Uning haddan tashqari oshishi ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining oshayotganligi yoki ishlab chiqarishni yakunlash uchun xomashyo va materiallarning yetishmayotganini bildiradi.

Tayyor mahsulot hajmining oshishi mahsulotga bo'lgan talabning pasayishi, xaridorlarning yo'qligi, mahsulot sifatining yomonlashishi natijasi bo'lishi mumkin.

Debitorlik majburiyatlari, xususan muddati oshgan qismining oshishi xaridor va buyurtmachilarning to'lovga qobiliyatlilik darajasining yetarli darajada o'rganilmaganligidan darak beradi. Belgilangan me'yor doirasida debitorlik majburiyatlarning mavjudligi normal holat hisoblanadi. Debitorlik majburiyatlarining belgilangan me'yordan oshishi korxonada mablag'larining immobilizatsiyasi, oborotdan chiqishiga olib keladi. Xususan, muddati o'tgan debitorlik majburiyatlariga e'tibor berish lozim. Bunday debitorlik qarzlarning mavjudligi aylanma mablag'lar immobilizatsiyasi, likvidlilik va to'lovga qobiliyatlilik darajasining pasayishi, shuningdek korxonada moliyaviy holatining yomonlashishiga olib keladi.

Pul mablag'larining nihoyatda oshishi ham ijobiy holat hisoblanmaydi. Zero ular aylanishda bo'lishi va daromad keltirishi, hisob schyotlarida bekor turib qolmasligi lozim. Ularning mavjud emasligi korxonada to'lovga qobiliyatsizligini ifodalaydi.

Bir necha holatlar aylanma mablag'lar strukturasi yaxshiligidan darak beradi:

aylanma mablag'lar tarkibida o'z mablag'lari ulushining oshishi; aylanma mablag'lar tarkibida qarz mablag'lari ulushining kamayishi; aylanma mablag'lar tarkibida debitorlik majburiyatlari ulushining kamayishi; ishlab chiqarish va sotish hajmi oshishi hisobiga aylanma mablag'lar tarkibida zaxira va xarajatlar ulushining oshishi; muddati kelgan to'lov majburiyatlarini qoplash uchun yetarli pul mablag'larining mavjudligi.

Shuningdek, aylanma mablag'lar strukturasi baho berganda bir qancha ko'rsatkichlarni ham hisob-kitob qilish maqsadga muvofiqdir:

o'z mablag'larining aylanma mablag'lardagi ulushi; qarz mablag'larining aylanma mablag'lardagi ulushi; debitorlik majburiyatlarining aylanma mablag'lardagi ulushi; zaxira

va xarajatlarning aylanma mablag‘lardagi ulushi; pul mablag‘larining aylanma mablag‘lardagi salmog‘i.

Aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlikni tahlil etishda ularning summa va kunda belgilangan me‘yorlarda ekanligi o‘rganiladi, oborotda o‘z va qarz mablag‘larining ishtiroki aniqlanadi, aylanma mablag‘larning umumiy va alohida turlari bo‘yicha shakllanish manbalari tahlil etiladi.

Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi, aylanma mablag‘lar rentabelligi ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar muntazam o‘z aylanma mablag‘larining hajmining dinamikasiga baho berish bilan birga, ularni oshirishning ichki va tashqi imkoniyatlarini o‘rganib borishi lozim(2.22-jadval):

## 2.22-jadval

### Korxonada o‘z aylanma mablag‘larini oshirishning asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalishlar	Izoh
Zaxiralar	Zaxiralarning hajmini optimallashtirish va me‘yorlashtirish
	Ishlab chiqarish zaxiralarning aylanishini tezlashtirish
Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari	To‘lovlarning eng yaxshi shartlarini belgilash
	Xaridorlar bilan hisoblashishda imtiyozlarni kamaytirish
	Muddati o‘tgan debitorlik majburiyatlarini qisqartirish
	Sotish hajmini oshirish
Pul mablag‘lari	Pul mablag‘larining optimal qoldig‘ini belgilash va me‘yorlashtirish metodikasini ishlab chiqish
	Pul mablag‘lari harakatini rejalashtirish va nazorat qilish

Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligini sekinlashishiga sabab korxonada ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsientining pastligi, korxonada mahsulotiga talabning yomonligi, katta summada muddati o‘tgan debitorlik qarzlarning vujudga kelganligi hisoblanadi.

Aylanma mablag‘lar normativi har bir korxonada uchun alohida o‘rnatilishi va tasdiqlangan hisob siyosatiga muvofiq biznes-rejada keltirilishi maqsadga muvofiqdir. Biroq bugungi davrgacha aylanma mablag‘lar normativini belgilash metodikasi ishlab chiqilmagan.

Ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligini ta'minlash uchun mavjud resurslarning bir shakldan boshqasiga aylanib turishi hamda me'yordan ortiqcha yig'ilib qolmasligini ta'minlash lozim. Aks holda aylanma mablag'larning aylanuvchanligi sekinlashadi va ishlab chiqarish jarayoni izdan chiqadi.

Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish dasturini bajarish uchun ushbu mablag'larga bo'lgan talab miqdorini kamayishi, korxonada moliyaviy holati mustahkamlanishi, majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun o'z vaqtida pul mablag'larini jamg'arish, tannarxni kamaytirish, rentabellikni oshirish imkonini beradi.

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi aylanma aktivlarga qo'yilgan pul mablag'larining nechi kunda aylanayotganligini tavsiflaydi. Mazkur ko'rsatkichning samaradorlik ko'rsatkichlariga mansubligiga sabab bir oborotga qanchalik kunlar soni kam bo'lsa, ishlab chiqarish dasturini bajarishga shunchalik kam mablag' zarur bo'ladi. Aksincha aylanuvchanlikning sekinlashishi qo'shimcha mablag'lar jalb qilishni taqozo qiladi. Shuningdek, aylanma mablag'larning har bir turi uchun korxonada tomonidan aylanuvchanlik me'yori belgilanishi lozim.

Aylanma mablag'lar dinamikasiga baho berishda uning o'sish darajasi mahsulot ishlab chiqarish hajmi va sotish hajmi o'sish darajasi bilan solishtiriladi. Mos ravishda aylanma mablag'larning bunday darajada oshishi ijobiy holat sanaladi.

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligining oshishi bevosita korxonada moliyaviy holatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik tahlili ularning holati va ta'minlanganligini yaxshilash, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha tavsiyalar berish hamda tahlil natijalari asosida xulosalar berish bilan yakunlanishi lozim.

Shu bilan birga, xo'jalik faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan aylanma mablag'lardan samarali foydalanishga bog'liq. Aylanma mablag'lar operatsion

tsiklning ta'minlanishi va kapitalning qayta tiklanishi uchun xizmat qiladi. Qoidaga ko'ra, aylanma mablag'larning hajmi mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini ta'minlash uchun yetarli bo'lishi lozim. Aylanma mablag'lardan oqilona foydalanish xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining umumiy samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xo'jalik yurituvchi subyektning yillik ish hajmi aylanma mablag'larining aylanish tezligiga bog'liq. Qoidaga ko'ra, aylanuvchanlik qancha yuqori bo'lsa, xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holati shunchalik yaxshilanadi. Aylanishning tezlashishi natijasida zaxira va xarajatlarga yo'naltirilgan mablag'larning bo'shishi kuzatiladi, bu esa oqibatda xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatini yaxshilanishiga va to'lov qobiliyatining mustahkamlanishiga olib keladi.

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligiga xo'jalik yurituvchi subyektning qaysi tarmoqqa mansubligi, biznes hajmi, aylanma mablag'larning strukturasi, xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy siyosati, ishlab chiqarishning o'sish darajasi, mavjud hisob-kitob tizimi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish darajasini oshirish uchun resurs-tejovchi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish va sotish tsikli davomiyligini qisqartirish, moddiy-texnik ta'minot tizimini isloh qilish, aylanma mablag'lar shakllanishi va harakatining nazoratini ta'minlash, aylanma mablag'larning o'sish sur'atidan sotish hajmi o'sish surhatining yuqoriligiga erishish, mahsulotlarning material sig'imdorligi va energiya sig'imdorligini kamaytirish kabi tadbirlarni amalga oshirish lozim.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Buxgalteriya balansi tarkibi va tuzilishini tavsiflang.
2. Buxgalteriya balansidagi muhim elementlari haqida aytib o'ting.
3. Buxgalteriya balansini tayyorlash va taqdim etishning umumiy qoidalari haqida nima bilasiz?
4. Buxgalteriya balansini tahlil etishning asosiy metodlarini tavsiflang: gorizonttal va vertikal tahlil, trend tahlil, koeffitsientlar metodi, balansni o'qish.
5. Buxgalteriya balansi likvidligi tahlili qanday amalga oshiriladi?

6. To'lovga qobiliyatlilikning tarkib ko'rsatkichlari va ularning mezonlari haqida gapiring.

7. Moliyaviy barqarorlik tahlilini amalga oshirish bo'yicha yondoshuvlar haqida aytib o'ting.

8. Iqtisodiy nochorlik tahlili va uni amalga oshirishning xorij modellarini tavsiflang.

9. Ish aktivligi va uning tarkib ko'rsatkichlari tahlili qanday amalga oshiriladi?

10. Moliyaviy holatni sog'lomlashtirish yo'llari bo'yicha fikringizni bayon eting.

### Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:

#### 1-topshiriq. Buxgalteriya balansi likvidligi tahlilini amalga oshiring.

AKTIV	Db	Do	PASSIV	Db	Do	Majburiyatlarni qoplashdagi ortiqchalik(+), yetishmovchilik (-)	
						Db	Do
Doimiy harakatdagi aktivlar			To'lov muddati kelgan majburiyatlar				
Tez pulga aylanadigan aktivlar			Qisqa muddatli passivlar				
Sekin pulga aylanadigan aktivlar			Uzoq muddali passivlar				
Qiyin pulga aylanadigan aktivlar			Doimiy passivlar				
<b>Aktiv jami</b>			<b>Passiv jami</b>				

**Xulosa** \_\_\_\_\_

---

## 2-topshiriq To'lovga qobiliyatlikni tahlil eting.

№	Ko'rsatkichlar	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga	Farqi (+, -)
1	2	3	4	5
1.	Pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar			
2.	Qisqa muddatli debitorlik majburiyatlari			
3.	Shu jumladan, muddati o'tgani			
4.	Zaxiralar,			
5.	Aktivlar,jami			
6.	Joriy majburiyatlar			
7.	Mutloq likvidlilik koeffitsienti (L2)			
8.	Oraliqni qoplash koeffitsienti			
9.	Joriy likvidlilik koeffitsienti (L4)			

**Xulosa** \_\_\_\_\_

## 3-topshiriq. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlikni tahlil eting.

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi
1. O'z mablag'larining manbalari			
2. Uzoq muddatli majburiyatlar			
Z. Jami manbalar (1+2 satrlar)			
4. Uzoq muddatli aktivlar			
5. Balans bo'yicha o'z oborot mablag'larini mavjud summasi (3 satr - 4 satr)			
6. Moddiy qiymatliklardagi oborot mablag'lari			
7. Oborot mablag'larini ortiqcha(+), yetishmasligi (-) (5 satr - 6 satr)			
8. Qoplanish koeffitsienti, % (5 satr: 6satr)*100%			

**Xulosa** \_\_\_\_\_

**4-topshiriq** Aylanma mablag‘lar aylanishini tahlil qiling.

Ko‘rsatkichlar nomi	O‘tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+,-)
1	2	3	4=3-2
1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum, ming so‘mda			
2. Jami tovar – moddiy zaxiralari, ming so‘mda			
3. Tovar modddiy zaxiralarining (aylanma mablag‘larning) aylanish koeffitsienti			
4. Tovar moddiy zaxiralarining (aylanma mablag‘larning) aylanish davri, kun hisobida			
5. Aylanish salmog‘i koeffitsienti			
6. Aylanishni tezlashishi yoki sekinlashishidan mablag‘larning bo‘shashganligi (-) yoki qo‘shimcha (+) jalb qilinganligi: a) kun hisobida b) summada, ming so‘mda			

**Xulosa**

**5-topshiriq.** Moliyaviy barqarorlikni mutlaq ko‘rsatkichlar asosida tahlil eting.

Ko‘rsatkichlar nomi	Davr boshiga	Davr oxiriga	O‘zgarishi (+,-)	O‘sish darajasi,%
1.O‘z mablag‘lari manbalari (O‘MM)				
2.Uzoq muddatli aktivlar (UMA)				
3.O‘z aylanma mablag‘lari naqdligi(O‘AMN)				
4.Uzoq muddatli kreditlar va qarzlari (UMM)				
5.O‘z mablag‘lari va uzoq muddatli kreditlar, qarzlari summasi (O‘AMN + UMM)				
6.Qisqa muddatli kreditlar va qarzlari (QMM)				
7.Zaxira va xarajatlarni moliyalashtirishning jami manbasi (JM)				

8.Zaxira va xarajatlar (ZX)				
9.O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (O'AMN) - ZX				
10.O'z mablag'lari va uzoq muddatli qarz mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (O'AMN + UMM) - ZX				
11.Jami mablag'lar bilan ta'minlanganlik (JM) - ZX				

Xulosa \_\_\_\_\_

### 6-topshiriq Moliyaviy barqarorlikni nisbiy ko'rsatkichlar asosida tahlil eting.

Koeffitsientlar	Aniqlanishi	Birliklar ifodasi	Db	Do	Farqi
Moliyaviy mustaqillik (avtonomiya) koeffitsienti	O'mm / BJ	O'mm - O'z mablag'lari manbayi BJ - Jami mablag'lar			
O'z mablag'lari manbasi va majburiyatlar nisbati koeffitsienti	O'mm/M	M - majburiyatlar			
Moliyaviy qaramlik koeffitsienti	M / BJ	BJ - balans jami			
Xususiy kapitalning manyovrlilik koeffitsienti	O'AMN / XK	O'AMN - o'z aylanma mablag'lari naqdligi			
Majburiyatlarning o'z mablag'lari nisbati koeffitsienti	M / O'mm	M - majburiyatlar O'mm - O'z mablag'lari manbasi			
Uzoq muddatli majburiyatlarning jami mablag'lar va majburiyatlar tarkibidagi salmog'i koeffitsienti	Umm / BJ, M	Umm - uzoq muddatli majburiyatlar			
Joriy majburiyatlarning jami mablag'lar va majburiyatlar tarkibidagi salmog'i	JM / BJ, M	JM - joriy majburiyatlar			
Kreditorlik majburiyatlarining jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i koeffitsienti	Km/ BJ, M	Km-kreditorlik majburiyatlari			

Xulosa \_\_\_\_\_

•

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**7-topshiriq.** Moliyaviy koeffitsientlar asosida xo'jalik subyektlarining kreditga layoqatliligini tahlil qiling (A bank mezoni).

№	Moliyaviy koeffitsientlar	Aniqlanishi	O'tgan yili		Hisobot yili	
			Miqdori	Sinfi	Miqdori	Sinfi
1.	Qoplash koeffitsienti	$(JA-MO \cdot DM)/JM$				
2.	Likvidlilik koeffitsienti	$((DM-MO \cdot DM)+PM+QMI)/JM$				
3.	Avtonomiya koeffitsienti	$O \cdot MM/BPJ$				
4.	Sof aylanma aktivlarning aylanuvchanligi koeffitsienti	$ST/SAA_{o'yq}$				
5.	TMZ aylanish davri	$(TMZ_{o'yq} \cdot HD)/SMT$				
6.	Debitor qarzdorliklarning aylanuvchanlik koeffitsienti	$(DM_{o'yq} \cdot HD)/ST$				
7.	Sof aylanma aktivlar miqdori*	$(O \cdot MM+UMM)-UMA$				

\*Izoh: nolikvid balansga kredit ajratilmaydi.

Xulosa \_\_\_\_\_

---

## Uslubiy ko'rsatma

## Moliyaviy koeffitsientlar asosida xo'jalik subyektlarining kreditga layoqatliligi

№	Moliyaviy koeffitsientlar	Sinflar				
		1 sinf	2 sinf	3 sinf	4 sinf	5 sinf
1.	Qoplash koeffitsienti	$K > 2$	$2 > K > 1,5$	$1,5 > K > 1,0$	$K \leq 1$	-
2.	Likvidlilik koeffitsienti	$K \geq 1,5$	$1,5 > K > 1,0$	$1,0 > K > 0,7$	$0,7 > k > 0,4$	$K < 0,4$
3.	Avtonomiya koeffitsienti	$K > 0,75$	$0,75 > K > 0,5$	$0,5 > K > 0,4$	$0,4 > K > 0,3$	$K < 0,3$
4.	Sof aylanma aktivlarning aylanuvchanligi koeffitsienti	$K > 10$	$10 > K > 6$	$6 > K > 4$	$4 > K > 2$	$K < 2$
5.	TMZ aylanish davri	$K < 30$	$60 > K > 30$	$90 > K > 60$	$120 > K > 90$	$K > 120$
6.	Debitor qarzdorliklarning aylanuvchanlik koeffitsienti	$K < 30$	$45 > K > 30$	$60 > K > 45$	$90 > K > 60$	$K > 90$
7.	Sof aylanma aktivlar miqdori*	$K > 0$ likvid balans; $K \leq 0$ nolikvid balans.				

## Ball belgilash tartibi

Sinf	Ball
1 sinf	5
2 sinf	4
3 sinf	3
4 sinf	2
5 sinf	1

## Kredit berish shartlari

Ballar	Sinf	Tavsifi	Izoh
25-30	1	Mutlaq to'lovga layoqatlilik	Kredit ajratiladi
20-25	2	Normal to'lovga layoqatlilik	

16-20	3	Past to'lovga layoqatlilik	Kengash qarori bilan
12-16	4	To'lovga layoqatsizlik	Kredit ajratilmaydi
K<12	5	Bankrotlik arafasida	

### **3-bob. FOYDA VA ZARARLAR TAHLILI**

**3.1. Foyda va zararlar tahlilining mazmuni, vazifalari va axborot manbalari**

**3.2. Xo‘jalik subyektining moliya-xo‘jalik faoliyati natijaviyligini tahlil etish va baholash**

**3.3. Yakuniy moliyaviy natija va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili**

**3.4. Rentabellik tahlili**

**3.1. Foyda va zararlar tahlili mazmuni, vazifalari va axborot manbalari**

O‘zbekistonda 2022 yilning 1 avgust holatiga ko‘ra jami faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yurituvchi subyekt va xo‘jalik yurituvchi subyektlar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) soni 565 982 tani tashkil etgan.

Qayd etilishicha, ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 8,8 foizga oshgan. Shuningdek, 88,7 foizini (501 768 tani) tadbirkorlik subyektlari tashkil etgan.

2021 yil yakunlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatgan kichik xo‘jalik yurituvchi subyekt va mikrofirmalardan 138105 tasi sof foyda olishga erishgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p sof foyda olishga erishgan kichik xo‘jalik yurituvchi subyekt va mikrofirmalar savdo sohasida – 60566 tani tashkil qildi.

Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sohasida – 32408 ta, sanoat sohasida – 24043 ta, qurilishda esa – 17324 tani tashkil etdi<sup>47</sup>.

Inson hayoti to‘g‘ridan-to‘g‘ri uning normal yashashini ta’minlaydigan daromad hajmiga bog‘liq. Zamonaviy jamiyat ko‘pgina firma, tashkilotlar, xo‘jalik yurituvchi subyektlardan iborat. Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishdir. Har bir rahbar uni oshirish yo‘llarini izlashga intiladi. Foydaga erishish uchun ko‘pgina omillarni inobatga olish lozim: ichki va tashqi xarajatlar, qaysidir faoliyat sohasida sarflarni amalga oshirish va uni umumiy

---

<sup>47</sup> <https://stat.uz/uz>

daromad hisobidan qoplash. Vaqt o'tishi bilan faqat daromadning hajmi kamlik qiladi va shuning uchun xo'jalik yurituvchi subyekt uni muttasil oshirib borishi lozim. Bu nafaqat rahbar xohishining mahsuli, balki soliqlarning oshishi, resurslar narxining oshishi, uskunalarning eskirishi va ularni yangilash kabi jihatlar bilan ham bog'liqdir.

Moliyaviy natijalar xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining pirovard natijasi bo'lib, foyda yoki zarar shaklida ifodalanadi. Foyda ijtimoiy ishlab chiqarish barcha bosqichlarining iqtisodiy kategoriyasidir.

M.Yu.Raximov biznesni harakatga keltiruvchi kuch faoliyatning yakunida erishiladigan foyda, deb hisoblaydi. Shu bois, foyda mulk shaklidan qathiy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini baholashning yagona ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Shuningdek, foyda maqsadli harakatning rag'batidir. Tijorat faoliyati va uning davomiyligi ko'pincha ushbu unsurning hajmiga, to'g'ri taqsimotiga va ishlatilishiga bog'liq<sup>48</sup>.

Bir guruh iqtisodchi olimlar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyektning oldiga qo'ygan asosiy maqsadi foyda olish ekanligini ta'kidlagan. Ular foydani barpo etish, uni realizatsiya qilish kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishni, qiymat qonunini va xo'jalik yuritish usuli sifatida foydalanadigan xo'jalik hisobining obyektiv talabi deb, hisoblashadi<sup>49</sup>.

Bizning fikrimizcha, foyda xo'jalik yurituvchi subyekt xo'jalik va moliyaviy faoliyatining natijasini ifodalovchi muhim moliyaviy kategoriyadir. Foyda ishlab chiqarish samaradorligi, ishlab chiqarilgan mahsulotning hajm va sifatini ifodalaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda foyda va zararlarni tahlil etishdan maqsad joriy davrda moliyaviy natijalar hajmi va sifatiga baho berish, o'zgarish tendentsiyalarini o'rganish va uni oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir.

---

<sup>48</sup> Raximov M. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. T.; «Iqtisod-moliya», 2015, 290 b.

<sup>49</sup> Vahobov A.V., Ishonqulov N.F., Ibrohimov A.T. «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». Darslik. T.; Iqtisod-Moliya, 2013, 600 b.

Foyda va zararlar tahlilining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: foyda va zararlar tarkibi, tuzilishi va dinamikasiga baho berish;

---

faoliyat turlari bo'yicha foyda hajmi va sifatini o'rganish; foyda hajmi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish; sof foyda va sof tushum nisbatiga baho berish; foyda hajmini oshirishning ichki va tashqi imkoniyatlarini o'rganish.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda foyda va zararlar tahlilini quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich. Tahlil uchun zarur axborotni yig'ish.

2-bosqich. Xo'jalik yurituvchi subyektning foyda(zarar) hajmini aniqlash.

3-bosqich. Olingan ma'lumotning rejaga muvofiqligining tahlili.

4-bosqich. Rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash va uning omilli tahlilini amalga oshirish.

5-bosqich. Foydani oshirish maqsadida texnika va texnologiya tarkibida o'zgarishlarni tadqiq qilish.

6-bosqich. Qaror qabul qilish.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot xo'jalik yurituvchi subyektlarda foyda va uning turlarini tahlil qilishning asosiy axborot manbai hisoblanadi.

### **3.2. Xo'jalik subyektining moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijaviyligini tahlil etish va baholash**

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari ularning daromadlari va xarajatlarini solishtirish orqali aniqlanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda moliyaviy natijaviylikning asosiy ko'rsatkichlari aniqlanish tartibi bo'yicha keltirilgan:

mahsulot(ish, xizmat) sotishdan sof tushum(MSST); mahsulot(ish, xizmat) sotishdan yalpi moliyaviy natija(MSYaMN); asosiy faoliyatning moliyaviy natijasi(AFMN); umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi(UFMN); soliq to'lagungacha

bo‘lgan moliyaviy natija(STMN); yakuniy moliyaviy natija(YaMN).

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot bo‘yicha moliyaviy natijalar quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$MSST = MSYaT - ES,$$

Bu yerda: MSYaT – mahsulot(ish, xizmat) sotishdan yalpi tushum; ES – egri soliqlar.

$$MSYaMN = MSST - SMT,$$

Bu yerda: SMT – sotilgan mahsulot tannarxi.

$$AFMN = MSYaMN - DX + AFBD,$$

Bu yerda: DX – davr xarajatlari;

AFBD – asosiy faoliyatning boshqa daromadlari.

$$UFMN = AFMN + MFMN,$$

Bu yerda: MFMN – moliyaviy faoliyatning moliyaviy natijasi.

$$STMN = UFMN + FF(FZ),$$

Bu yerda: FF(FZ) – favqulodda foyda(favqulodda zarar). YaMN = STMN – DS,

Bu yerda: DS – daromad solig‘i.

Turli guruhdagi foydalanuvchilar manfaatlarini inobatga olgan holda nashr etiladigan moliyaviy hisobotdagi foyda ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda bir qancha boshqa ko‘rsatkichlar ham hisob-kitob qilinadi(EBITDA, EBIT, NOPAT)<sup>50</sup>:

EBITDA (Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation and Amortization) – foizlar, soliqlar va amortizatsiya to‘lovlarigacha bo‘lgan foyda quyidagicha hisobkitob qilinadi:

$$EBITDA = STBF + A + FT,$$

Bu yerda: STBF – soliq to‘lagunga qadar bo‘lgan foyda;

A – amortizatsiya;

FT – foiz to‘lovlari.

---

<sup>50</sup> Вахрушина М.А. Анализ финансовой отчетности. Учебник. М.: ИНФРА-М, 2022.

EBITDA amortizatsiya hisoblash metodi va turli kreditorlar oldidagi majburiyatlar tuzilishidan qat'iy nazar, foyda olish imkoniyatini tavsiflaydi. Ushbu

---

ko'rsatkichdan, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyekt rentabelligini aniqlashda foydalaniladi.

EBIT (Earnings Before Interest, Taxes) – foizlar, soliqlar to'lovlarigacha bo'lgan foyda quyidagicha hisob-kitob qilinadi:

$$EBIT = EBITDA - A.$$

Mazkur ko'rsatkich sof aktivlar rentabelligini (ROA) ni hisoblashda qo'llaniladi.

NOPAT (Net Operation Profit After Taxes) – soliq to'lovlaridan keyingi sof operatsion foyda quyidagicha aniqlanadi:

$$NOPAT = EBIT (1 - te),$$

Bu yerda: te – samarali soliq stavkasi, joriy foyda solig'i va daromad solig'i to'lovigacha bo'lgan keiktirilgan soliqlar o'rtasidagi nisbat.

Mazkur ko'rsatkich investitsiyalangan kapital rentabelligini (ROIC) ni hisoblashda qo'llaniladi.

Barcha foyda ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq hisoblanadi. Moliyaviy natijaviylik ko'rsatkichlari xo'jalik yurituvchi subyekt iqtisodiy rivojlanishi va moliyaviy munosabatlari mustahkamlanishining asosi hisoblanadi. Shu bois moliyaviy natijaviylikning har bir ko'rsatkichining batafsil tahlili xo'jalik yurituvchi subyekt va uning faoliyati bilan qiziqadigan turli guruh manfaatdor tomonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati uchun moliyaviy natijalar tahlili uning rivojlanish istiqbollari aniqlash imkonini beradi. Zero yakuniy moliyaviy natija hisoblanadigan foyda hajmi joriy va kelgusi faoliyatni moliyalashtirishning muhim manbasi hisoblanadi.

Ta'rischilar va aksionerlar uchun moliyaviy natijalar tahlili mazkur xo'jalik yurituvchi subyektga yo'naltirilgan kapitalga to'g'ri keladigan daromad summasini oshirish imkoniyatlarini o'rganish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir.

Kreditorlar moliyaviy natijalarni tahlil qilish orqali xo'jalik yurituvchi subyekt kredit va qarzlarni qaytara olish imkoniyati aniqlaydilar.

Soliq inspeksiyalari barcha daromadlarning soliq to'lanadigan bazaga kiritilganligini aniqlashdan manfaatdordir.

Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy natijalarining tahlili quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

hisobot davrida moliyaviy natijaviylikni ifodalovchi har bir ko'rsatkichning o'zgarishini baholash (gorizontal tahlil); moliyaviy natijaviylikni ifodalovchi ko'rsatkichlarning tuzilishi va ularning o'zgarishini baholash (vertikal tahlil); moliyaviy natijaviylikni ifodalovchi ko'rsatkichlarning bir necha hisobot davrlari bo'yicha o'zgarishini o'rganish (trend tahlil); moliyaviy natijaviylikni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'zgarishining omilli tahlili.

Foyda va zararlar (moliyaviy natijalar) ni tahlil etishning maqsadi xo'jalik yurituvchi subyektning joriy faoliyatining moliyaviy natijaviylikni baholash, uning o'zgarishi sabablarini aniqlash va kelgusida uni oshirish imkoniyatlarini belgilashdan iboratdir.

Foyda va zararlar (moliyaviy natijalar) ni tahlil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

foйда va zararlarining tarkibi, tuzilishi va dinamikasini o'rganish;  
foйда ko'rsatkichlari o'zgarishining omilli tahlilini amalga oshirish;  
sof foydadan foydalanishni baholash;  
rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlash va uning omilli tahlilini amalga oshirish;  
sof foyda hajmini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

Foyda ko'rsatkichlarini tahlil etishda kapital o'sishi va lividendlar to'lashning manbasi hisoblanadigan foyda sifatiga alohida e'tibor berish lozim.

Foyda sifati bu miqdor o'lchoviga ega bo'lmagan, moliyaviy natijaviylik ko'rsatkichlari shakllanishining omillarini tavsiflaydigan, marketing, ishlab chiqarish va moliyaviy menejment sohalarida qabul qilingan boshqaruv qarorlari bilan asoslanadigan ko'rsatkichdir<sup>51</sup>.

Foyda sifatinin tahlili buxgalteriya hisoboti foydalanuvchilariga foyda shakllanishi omillarini hisobga olgan holda turli xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini solishtirma tahlil qilish, menejerlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, foyda sifati tahlili natijalaridan moliyaviy natijalarni bashoratlashda foydalanish imkonini beradi.

### **3.3. Yakuniy moliyaviy natija va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili**

Sof foyda har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining muhim natijaviy ko'rsatkichi hisoblanadi. Sof foyda hajmi korxonah rahbariyati va mulkdorlar bilan birga investorlar, kreditorlar va boshqa iqtisodiy subyektlar uchun ham manfaatli hisoblanadi.

Aynan sof foyda xo'jalik yurituvchi subyektlarga moddiy bazani mustahkamlash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish uchun resurslarni yo'naltirish, texnologiyani takomillashtirish va faoliyat yuritishning ilg'or usullarini o'zlashtirish imkonini beradi. Bularning barchasi xo'jalik yurituvchi subyektning yangi ta'minot bozorlariga chiqishi, sotish hajmini kengaytirish, natijada sof foydahajmining o'sishiga olib keladi.

Foydaga erishish uchun yangi ishlab chiqarish liniyalari yaratiladi, moddiy va mehnat resurslaridan intensiv foydalaniladi, daromadlilikni oshirishning samarali usullari topiladi.

Sof foydah ko'p komponentli ko'rsatkich hisoblanadi. Shu bilan birga, hisoblashda qo'llaniladigan har bir parametr murakkab tuzilishga ega. Jumladan,

---

<sup>51</sup> Вахрушина М.А. Анализ финансовой отчетности. Учебник. М.: ИНФРА-М, 2022

mahsulot(ish, xizmat) sotishdan sof tushum, mahsulot (ish, xizmat) tannarxi faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha farqlanadi, turli tuzilishga ega.

---

## 3.1-jadval

Moliyaviy natijalarning qiyosiy tahlili<sup>52</sup>

Balans aktivi	2016 yil davr boshi		2016 yil davr oxiri		2017 yil davr oxiri		2018 yil davr oxiri		2019 yil davr oxiri		2020 yil davr oxiri	
	Summa, ming so‘m	Sof tushumdagi ulushi, %	Summa, ming so‘m	Sof tushumdagi ulushi, %	Summa, ming so‘m	Sof tushumdagi ulushi, %	Summa, ming so‘m	Sof tushumdagi ulushi, %	Summa, ming so‘m	Sof tushumdagi ulushi, %	Summa, ming so‘m	Sof tushumdagi ulushi, %
A	1	2	3	4								
Mahsulot sotishdan sof tushum	2456358	100	14038460	100	15487603	100	19542479	100	24318381	100	26295296	100
Sotilgan mahsulot tannarxi	1994990	81,22	7711779	54,93	8107048	52,34	11945731	61,12	16811112	69,13	19163421	72,88
Mahsulot sotishdan yalpi foyda	461368	18,78	6326681	45,07	7380555	47,66	7596748	38,88	7507269	30,87	7131875	27,12
Davr xarajatlari	448586	18,26	1964233	13,99	1847923	11,93	2148242	38,81	2331171	9,58	1475571	5,61
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	83425	3,39	178419	1,27	171186	1,11	86311	1,56	59658	0,24	11140	0,04
Moliyaviy faoliyat daromadlari va xarajatlari	-	-	-1302	0,01	-	-	-	-	-	-	-	-
Soliq to‘laguncha bo‘lgan foyda	96207	3,91	4539565	32,33	5703817	36,83	5534817	28,32	5235756	21,53	5667444	21,55
Sof foyda	74877	3,05	4539565	32,33	5703817	36,83	5534817	28,32	5235756	21,53	5667444	21,55

<sup>52</sup> “Toshkent suv ta’minoti” MCHJ Chirchiq shahri moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, faoliyat natijaviyligini ifodalaydigan ko'rsatkichlari yillar davomida o'sish tendentsiyasiga ega. Bu korxonada faoliyatining kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Jadval moliyaviy natijalarni vertikal, gorizontal, trend tahlilini amalga oshirish imkonini beradi. Yillar davomida sof foydaning sof tushum tarkibidagi ulushi ortib borayotganligini ko'rish mumkin. Bu xo'jalik yurituvchi subyektning oqilona boshqaruv qarorlaridan darak beradi.

---

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda sof foyda tahlilining maqsadi sof foyda hajmini baholash, uning o‘zgarishiga ta’sir etgan omillarni aniqlash, uning hajmini oshirish imkoniyatlarini aniqlashdir.

Shu bilan birga har bir iqtisodiy subyekt sof foyda hajmini tahlil etishda o‘ziga xos manfaatga ega bo‘ladi. Jumladan, mulk egalari faoliyat samaradorligini aniqlash, investorlar xo‘jalik yurituvchi subyektning investitsion jozibadorligini baholash, kreditorlar va banklar to‘lovga qobiliyatlilik va kreditga layoqatlilikni belgilashdan manfaatdordir.

Sof foyda tahlili xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining natijasi va hisobot davrida qabul qilingan barcha boshqaruv qarorlarining samaradorligini tavsiflaydi.

Odatda xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyati, xususan dastlabki bosqichlarda unga kutilgan sof foyda hajmini olib kelmaydi. Bu holatda odatda qo‘shimcha faoliyat turlari yaxshi daromad hajmini ta’minlaydi. Jumladan, boshqa iqtisodiy subyektlarning faoliyatida qatnashish, bo‘sh turgan asosiy vositalarni ijaraga berish.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z faoliyatida qarz mablag‘laridan foydalanayotgan bo‘lsa, kredit to‘lovlari va ular bo‘yicha foizlar miqdori ham bevosita sof foyda hajmini kamaytiradi.

Sof foyda tahlili gorizontaal, vertikal, omilli tahlil usullaridan foydalanib tahlil qilinadi.

Daromad va xarajatlarning umumiy ko‘rsatkichlari sof foyda shakllanishi omillari, ularning o‘zgarishi sof foyda hajmining o‘zgarishi omillari sifatida yuzaga chiqadi.

$$\Delta SF = \Delta D - \Delta X,$$

Bu yerda,  $\Delta SF$  – sof foydaning o‘zgarishi,  $\Delta D$  – daromadlarning o‘zgarishi,  $\Delta X$  – xarajatlarning o‘zgarishi.

Gorizontaal tahlil sof foyda hajmini reja, o‘tgan davrlar ma’lumotlari bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Vertikal tahlil moliyaviy natijaviylikni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni sof foyda hajmiga nisbatan o‘rganish orqali tahlil amalga oshiriladi, sof foyda ko‘rsatkichlarini shakllanish tuzilishini aniqlash imkonini beradi.

Sof foyda hajmining omilli tahlili quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$\Delta SF = \Delta ST + \Delta MT + \Delta SX + \Delta MX + \Delta BD + \Delta BX - \Delta DS,$$

gde:

$\Delta ST$  — sof tushum hajmining o‘zgarishi;

$\Delta MT$  — mahsulot tannarxining o‘zgarishi;

$\Delta SX$  – sotish xarajatlarining o‘zgarishi;

$\Delta MX$  – ma‘muriy xarajatlarning o‘zgarishi;

$\Delta BD$  – boshqa daromadlarning o‘zgarishi;

$\Delta BX$  - boshqa xarajatlarning o‘zgarishi;  $\Delta DS$

– daromad solig‘ining o‘zgarishi.

Sof foyda hajmini tahlil etishda quyidagi moliyaviy koeffitsientlar qo‘llaniladi:

1. Sof foyda marjasi;
2. Bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan foyda (EPS);
3. Xususiy kapital rentabelligi (ROE);
4. P/E koeffitsienti;
5. PEG koeffitsienti.

Sof foyda marjasi sof foydaning sof tushumga nisbatini ifodalaydigan ko‘rsatkichdir. U sof foyda hajmiga to‘g‘ri keladigan sof tushum miqdorini ifodalaydi.

$$SFM = SF / ST$$

Ushbu nisbat bir necha davrlar bo‘yicha o‘rganiladi, keskin pasayish yoki kamayish kuzatilgani o‘rganiladi. Investitsion analitiklar ushbu ma‘lumot orqali investorlarga xo‘jalik yurituvchi subyektning aksiyasini sotib olish yoki sotish bo‘yicha maslahat berishadi.

Bir aksiyaga to'g'ri keladigan foyda (EPS) ko'rsatkichi har bir aksiyaga to'g'ri keladigan foyda summasini ifodalaydi va quyidagicha aniqlanadi:  $EPS = SF / AS$ ,

Bu yerda:

AS – aksiyalar soni.

Xususiy kapital rentabelligi (ROE) ko'rsatkichi xo'jalik yurituvchi subyekt kapitaliga to'g'ri keladigan sof foydani (foizlarda) tavsiflaydi.

P/E koeffitsienti xo'jalik yurituvchi subyekt aksiyalari umumiy bozor qiymatining sof foydaga nisbatini ifodalaydi.

$$P/E = ABQ / SF,$$

Bu yerda, ABQ – aksiyalarning bozor qiymati;

SF – sof foyda.

PEG koeffitsienti bevosita P/E koeffitsienti bilan uzviy bog'liqdir va quyidagicha aniqlanadi:

$$PEG = P/E / SF_{o'o'd},$$

Bu yerda:  $SF_{o'o'd}$  – sof foydaning o'rtacha o'sish darajasi(CAGR).

Sof foydaning o'rtacha o'sish darajasi(CAGR) quyidagicha aniqlanadi:

$$SF_{o'o'd} = (SF_{do} / SF_{db})^{1/n} - 1,$$

$SF_{do}$  – sof foyda hisobot davri oxiriga;

$SF_{db}$  – sof foyda hisobot davri boshiga,

$1/n$  – davrlar soni.

Foyda ko'rsatkichi korxonada qiymatni qayerda o'stirish lozimligini ko'rsatib beruvchi signal hisoblanadi, ushbu sohani investitsiyalash uchun rag'bat yaratadi. Korxonaning o'zi foydani tahlil etish jarayonida o'z faoliyatining samaradorligi, mustahkamligi, moliyaviy mustaqilligi va barqarorligi haqida ma'lumotga ega bo'ladi, shuningdek, istiqbolli rejalarni tuzish, investitsion kapitalni jalb etish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish, aktivlardan oqilona foydalanish orqali kelgusida korxonada faoliyatining umumiy samaradorligini oshirishga imkoniyatlar yaratadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda yuqori foydaga erishish uchun mavjud resurslardan samarali foydalanish, mahsulot tannarxini kamaytirish, yuqori texnologiyali asosiy vositalarni joriy etish hamda ularni o'z vaqtida yangilanishini ta'minlash, xodimlarning malaka darajasini oshirish, mehnatni to'g'ri tashkil qilish va boshqarish lozim.

### 3.4. Rentabellik tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati va mahsulotlari raqobatdoshligini ta'minlashning eng muhim tayanchi bu uning rentabellik darajasidir. Uning iqtisodiy mazmunini moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan, shuningdek, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi ifoda etadi.

Ilmiy adabiyotlarda tomonidan bir nechta rentabellik ko'rsatkichlarining aniqlash tartibi belgilangan (3.2-jadval).

3.2-

**jadval Rentabellik ko'rsatkichlari<sup>53</sup>**

<b>№</b>	<b>Rentabellik ko'rsatkichlari</b>	<b>Aniqlanishi</b>
<b>Asosiy</b>		
1.	Aktivlar rentabelligi	Sof foyda / Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
2.	Sotuv rentabelligi	Mahsulot (ish va xizmat)lar sotishning yalpi foydasi / Sotishdan sof tushum
3.	Operatsion faoliyat rentabelligi	Operatsion foyda / Sotishdan sof tushum
4.	Xususiy kapital rentabelligi	Sof foyda / Xususiy kapital
<b>Qo'shimcha</b>		
5.	Asosiy vositalar rentabelligi	Sof foyda / Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati
6.	Xodimlar rentabelligi	Sof foyda / Xodimlarga xarajatlar
7.	Aktivlarning bazaviy foydalilik koeffitsienti	Soliq to'loviga qadar foyda / Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
8.	Investitsiyalangan kapital rentabelligi	Operatsion foyda / O'z mablag'lari manbasi va uzoq muddatli qarz kapitali
9.	Jalb qilingan kapital rentabelligi	Sof foyda / (O'z mablag'lari manbasi + uzoq muddatli qarz mablag'lari)
10.	Jami aktivlar rentabelligi	Soliq to'loviga qadar foyda / Jami aktivlar

<sup>53</sup> Raximov M.Yu., Kalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik. T.: «Iqtisod-moliya», 2019, 726 b.

11.	Biznes rentabelligi	aktivlari	Sof foyda / Biznes aktivlari
12.	Sof aktivlar rentabelligi		Soliq to'loviga qadar foyda / Sof aktivlar
13.	Ishlab rentabelligi	chiqarish	Sof foyda / (Asosiy vositalar + Aylanma aktivlar)
14.	Marja rentabelligi		Sotilgan mahsulot bahosi - Sotilgan mahsulot tannarxi / Sotilgan mahsulot tannarxi

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini tahlil qilish va baholash, kelgusi moliyaviy imkoniyatlarini to'g'ri bashoratlash rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash asosida amalga oshirilishi lozim. Rentabellik ko'rsatkichlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishningning iqtisodiy samaradorligini umumlashtiruvchi jihatdir. Shuningdek, olingan daromadlar va foyda hamda unga sarflangan kapital nisbatini ko'rib chiqish orqali ishlab chiqarish samaradorligiga baho bersa bo'ladi.

Rentabellikning bir nechta guruhi aktivlar, ishlab chiqarish, sotuv va kapital rentabelligi guruhi tarkiblanadi. Har bitta guruhga bir necha ko'rsatkichlar tizimi kiritiladi. Lekin baholashda, omilli tahlil etishda ularning har bittasi alohida hisobkitob qilinadi va baholanadi.

Xorijiy mualliflar ishlarida rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlashda soliq to'lagunga qadar bo'lgan foyda ko'rsatkichidan foydalaniladi. Fikrimizcha, korxonada ixtiyorida qoladigan yakuniy moliyaviy natija sof foyda bo'lgani bois, rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblashda aynan ushbu ko'rsatkichdan foydalanish lozim.

### 3.3-jadval

#### Aktivlar rentabelligi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili<sup>54</sup>

№	Ko'rsatkichlar	2019 yili	2020 yili	Farqi
1.	Sof foyda, ming so'm	5235756	5667444	431688
2.	Aktiv qiymati, ming so'm	42690635	33294706	-9395929
3.	Uzoq muddatli aktivlar	3308052	11913476	8605424


<sup>54</sup> "Toshkent suv ta'minoti" MCHJ Chirchiq shahar bo'limi moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida.

4.	Joriy aktivlar	39382583	21381230	-18001353
5.	Aktivlar rentabelligi, %	12,26	17,02	4,76
	Aktivlar rentabelligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili		4,76	
A)	Sof foyda qiymatining o'zgarishi		1,01	
B)	Aktivlar qiymatining o'zgarishi		3,75	
	Aktivlar rentabelligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili		4,76	
A)	Sof foyda qiymatining o'zgarishi		1,01	
B)	Uzoq muddatli aktivlar qiymatining o'zgarishi		-2,23	
S)	Joriy aktivlar qiymatining o'zgarishi		5,98	

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, hisobot yilida aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi 17,02% ga teng bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 4,76% ga oshgan. Bu o'zgarishga sof foyda summasining o'tgan yilga nisbatan oshishi hamda aktivlar qiymatining kamayishi sabab bo'lgan. Aktivlar qiymatining kamayishi joriy aktivlar summasining kamayishi hisobiga yuzaga kelgan.

Shuningdek, aktivlar rentabelligining o'zgarishiga aktivlar tarkibidagi o'zgarishlarning ta'sirini hisoblab o'rganish mumkin. O'rganilayotgan davrda uzoq muddatli aktivlar qiymatining oshishi aktivlar rentabelligining 2,23% ga kamayishiga, joriy aktivlar qiymatining kamayishi aktivlar rentabelligini 5,98 % ga oshishiga sabab bo'lgan.

“Dyupont” firmasi mutaxassislari tomonidan 1919 yilda omilli tahlilning sxemasi taklif etilgan. Dyupont korporatsiyasi omilli modelida birinchi marta bir nechta ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq ravishda aks ettiriladi va uchburchak strukturaviy ko'rinishda keltiriladi. Uchburchakning yuqori bo'rchagida aktiv rentabelligi ko'rsatkichi (Ra (ROA)) firma faoliyatiga yo'naltirilgan resurslar samaradorligini aks ettiradigan ko'rsatkich sifatida aks ettirilgan. Asosini sotish rentabelligi (Rs (NPM)) va resurs qaytimi (Qr (TAT)) ko'rsatkichlari tashkil etadi.



Bu model formula ko‘rinishida quyidagicha aks ettiriladi (3.4-jadval):

$$ROA = RS * K_{ayl} = SF/ST * ST/A$$

Bu yerda:

SF - sof foyda, ST - sof tushum, A - aktiv.

### 3.4-jadval

#### Dyupon modeli asosida aktivlar rentabelligining ikki omilli tahlili<sup>55</sup>

№	Ko‘rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	Farqi
1.	Sof foyda, ming so‘m	5235756	5667444	431688
2.	Sof tushum, ming so‘m	24318381	26295296	1976915
3.	Aktiv qiymati, ming so‘m	42690635	33294706	-9395929
4.	Sotish rentabelligi (1/2), %	21,53	21,55	0,02
5.	Aktivlar aylanuvchanligi (2/3), so‘m	0,57	0,79	0,22
6.	Aktivlar rentabelligi, %	12,26	17,02	4,76
	Aktivlar rentabelligi o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili	x	x	4,76
A)	Sotish rentabelligining o‘zgarishi	0,02*0,57		0,01
B)	Aktivlar aylanuvchanligining o‘zgarishi	21,55*0,22		4,74

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, hisobot yilida aktivlar rentabelligi ko‘rsatkichi 17,02% ga teng bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 4,76% ga oshgan. Bu o‘zgarishga sotish rentabelligi hamda aktivlar aylanuvchanligining oshishi sabab bo‘lgan. O‘z navbatida sotish rentabelligining oshishiga sof foyda hajmining sof

<sup>55</sup> “Toshkent suv ta’minoti” MCHJ Chirchiq shahar bo‘limi moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida.

tushum hajmiga nisbatan yuqori surhatda oshganligi, mos ravishda aktivlar aylanuvchanligining oshishiga sof tushum summasining oshganligi hamda aktivlar qiymatining kamayishi sabab bo'lgan.

Sotish rentabelligi hisobot yilida 21,55% ga teng bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 0,02% ga oshgan. Bu esa o'z navbatida aktivlar rentabelligining 0,01% ga oshishiga sabab bo'lgan. Aktivlar aylanuvchanligi hisobot yilida 0,79 so'mga teng bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 0,22 so'mga oshgan. Natijada aktivlar rentabelligi 4,76% ga oshgan.

Keyinchalik Dyupon modeli xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichining (R<sub>xk</sub> (ROE)) omilli tahlilida qo'llanilgan.

---

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning muhim elementlarini tavsiflang.
2. Moliyaviy natijalarni xarakterlovchi muhim ko'rsatkichlar haqida gapiring.
3. Yalpi foyda va uning o'zgarishiga omillar ta'sirining tahlili qanday amalga oshiriladi?
4. Marjinal foyda qanday aniqlanadi va tahlil etiladi?
5. O'zgaruvchan va doimiy xarajatlarni tavsiflang.
6. Asosiy faoliyat foydasi va uning omilli tahlili qanday amalga oshiriladi?
7. Sof foyda va uning omilli tahlili qanday amalga oshiriladi?
8. Tushum-xarajat-natija aloqadorligi tahlili qanday amalga oshiriladi?
9. Rentabellik ko'rsatkichlari darajasi va ularning omilli tahlili qanday amalga oshiriladi?

10. Sof foydani hajmini oshirishning ichki va tashqi imkoniyatlarini keltiring.

**Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:**

**1-topshiriq.** Moliyaviy natijalarni tarkib bo'yicha tahlilini amalga oshiring.

<b>Ko'rsatkichlar nomi</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>O'tgan yili</b>	<b>Hisobot yili</b>	<b>Farqi</b>	<b>O'sishi</b>
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	010				
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	020				
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	030				
Davr xarajatlari jami, shu jumladan:	040				
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	090				
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	100				
Moliyaviy faoliyatning daromadlari jami	110				
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	170				
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	220				
Favqulodda foyda(zarar)	230				
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)	240				
Daromad (foyda) solig'i	250				
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	260				
Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	270				

**Xulosa**

---

**2-topshiriq.** Marjinal foyda va uning omilli tahlilini amalga oshiring.

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>O'tgan yil</b>	<b>Hisobot yili</b>	<b>Farqi (+,-)</b>
Mahsulot sotishdan sof tushum			
Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxida o'zgaruvchan xarajatlar (72%)			
Marjinal foyda			
Sotilgan mahsulot tannarxida o'zgarmas xarajatlar			
Mahsulot sotishdan yalpi foyda			



Jami davr xarajatlari						
-----------------------	--	--	--	--	--	--

**Xulosa**

---

**5-topshiriq.** Rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qiling.

Ko'rsatkichlar nomi	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi, (+, -)	O'sishi, %
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum				
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi				
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari)				
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)				
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)				
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)				
Hisobot davrining sof foydasi (zarari)				
Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati				
Joriy aktivlarning o'rtacha yillik qiymati				
Uzoq muddatli aktivlarning o'rtacha yillik qiymati				
Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati				
Aylanma aktivlarning o'rtacha yillik qiymati				
O'z mablag'larining o'rtacha yillik qiymati				
Qarz kapitalining o'rtacha yillik qiymati				
Xodimlarga va ular nomidan qilingan xarajatlar				
Aktivlarning rentabelligi, %				
Joriy aktivlarning rentabelligi,%				
Uzoq muddatli aktivlarning rentabelligi,%				
Asosiy vositalarning rentabelligi,%				
O'z mablag'larining rentabelligi,%				
Qarz kapitalining rentabelligi,%				
Xodimlarga va ular nomidan qilingan xarajatlar rentabelligi, %				
Sotuv rentabelligi, %				
Ishlab chiqarish rentabelligi, %				
Asosiy faoliyat rentabelligi, %				

**Xulosa**

---

**6-topshiriq.** Berilgan ma'lumotlar asosida rentabellik ko'rsatkichlarining omilli tahlilini olib boring va xulosa yozing.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Shartli ko'rsatkich	Hisobot yil	Jami o'zgarish	SHu jumladan:	
					sof foydaning o'zgarishi hisobiga	aktivlarning o'zgarishi hisobiga
1. Asosiy vositalar rentabelligi ( $R_a^{sh}$ ), %						
2. Joriy aktivlar rentabelligi ( $R_j^{sh}$ ), %						

**Izoh:** Asosiy vositalar rentabelligining shartli ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_a = \frac{\text{Sof foyda, hisobot davri (2 - shakl, 270 - satr)}}{\text{Asosiy vositalar qiymati, o'tgan yil}} \cdot 100$$

Joriy aktivlar rentabelligining shartli ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_{*} = \frac{\text{Sof foyda, hisobot yil (2 - shakl, 270 - satr)}}{\text{Joriy aktivlar qiymati, o'tganyil}} \cdot 100$$

**Xulosa** \_\_\_\_\_

#### 4-bob. PUL OQIMLARI TAHLILI VA UNING KUTILISHLARINI BASHORATLASH

**4.1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini jalb etish qobiliyatini baholash va tahlil etishning zaruriy jihatlari hamda o'ziga xos xususiyatlari**

**4.2. Pul mablag'lari kirimi va chiqimi bo'yicha ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili**

**4.3. Pul oqimlarining to'g'ri va egri usuldagi tahlili**

**4.4. Pul oqimlari samaradorligi va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili**

## **4.5. Bo‘lajak pul oqimlarini bashoratlash**

### **4.1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarini jalb etish qobiliyatini baholash va tahlil etishning zaruriy jihatlari hamda o‘ziga xos xususiyatlari**

Xo‘jalik yurituvchi subyekt xo‘jalik va moliyaviy faoliyatining muhim elementi pul mablag‘larining harakatidir. Ulardan to‘g‘ri foydalanish, oqilona boshqarish bevosita to‘lovga qobiliyatlilik va moliyaviy holatga ta’sir ko‘rsatadi.

Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi axborot undan foydalanuvchilarga xo‘jalik yurituvchi subyektning pul ishlab topish qobiliyatini baholash imkonini beradi.

Pul mablag‘larini tahlil qilishdan maqsad pul mablag‘larining joriy oqimini baholash va uning optimal hajmini belgilash bo‘yicha oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishdir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning optimal hajmdagi pul mablag‘lari bilan ta’minlanganligi uning bir maromda faoliyat olib borishini ta’minlaydi. Pul mablag‘larining yetishmovchiligi korxonada faoliyatiga salbiy ta’sir o‘tkazadi, to‘lovga qobiliyatsizlik, likvidlilikning pasayishi, bankrotlikka olib keladi.

Pul mablag‘larining harakati bo‘yicha optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyati mudom pul mablag‘lari harakatining holati bo‘yicha axborotga ega bo‘lishi lozim. Bu esa pul mablag‘lari harakatini tizimli batafsil tahlilini tashkil etishni taqozo etadi.

Pul mablag‘larini tahlil qilishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- pul oqimini tarkib qatorlari va tuzilishi bo‘yicha o‘rganish;
- pul mablag‘lari oqimini dinamikasini baholash;
- pul mablag‘lari harakatining yo‘nalishlariga baho berish;
- pul oqimining sof kirimi va chiqimiga baho berish;
- pul oqimining moliyaviy holat va barqarorlikka ta’sir darajasini baholash;
- pul oqimlarini bashoratlash;
- pul oqimini samarali boshqarish va uning optimal hajmini belgilash.

Tahlil uchun zarur bo'lgan axborotlar buxgalteriya balansi, pul oqimi to'g'risidagi hisobot, qo'shimcha ma'lumotlar manbaidan olinadi.

Pul mablag'lari oqimi yuzasidan quyidagi muhim tushunchalarni tasniflash lozim:

Pul - boshqa tovarlar, xizmatlar qiymatini baholash vositasi, yuqori likvidlikka ega bo'lgan maxsus tovardir.

“Pul oqimi” ularning kirimi va chiqimini aks ettiruvchi tushunchadir.

“Pul oqimi to'g'risida” gi hisobot xo'jalik subyekting o'tgan davr bo'yicha pul mablag'lari va uning ekvivalentlari harakati bo'yicha ma'lum bir sanaga bo'lgan holatini aks ettiruvchi hisobot shakli hisoblanadi.

“Pul oqimini bashoratlash” kelgusidagi pul mablag'lari kirimi va chiqimini rejalashtirishdir.

Pul mablag'lari - kassadagi naqd pul va talab qilib olinadigan depozitlar, shuningdek bankning hisob-kitob, valyuta va boshqa schyotlaridagi mablag'laridir.

Pul ekvivalentlari - ma'lum pul mablag'iga tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi o'zgarishlar tufayli biroz xatari bo'lgan qisqa muddatli, yuqori likvidli investitsiyalar (moliyaviy qo'yilmalar) dir.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot - hisobot davrida pul mablag'lari oqimini batafsil ko'rsatuvchi manbalarning tizimlashtirilgan shaklidir

Pul oqimlari tahlili bo'yicha amaliyotdagi muammolar yuzasidan quyidagilarni ta'kidlash lozim:

1. Pul mablag'lari oqimi to'g'risidagi hisobotni tuzish qoidalarining xalqaro standartlardan farq etishi va ularga to'la mos emasligi.

2. Pul oqimini prognozlash masalasi tahlildagi eng muhim muammolardan bittasi hisoblanadi.

3. Pul oqimini tahlil etishning to'g'ri va egri uslubini qo'llashning aniq metodik ishlanmasi yaratilmaganligi ham sohadagi muammolardan bittasi hisoblanadi.

4. Pul oqimlarini tahlil etishning muhim manbasi bu pul oqimi to'g'risidagi hisobot hisoblanadi. Lekin, pul oqimlarini faoliyat turlari bo'yicha o'rganishda, omilli tahlil etishda qo'shimcha ma'lumotlarni olishga zaruriyat seziladi. Shu sababli, qo'shimcha manbalarni shakllantirish va ularni moliyaviy hisobotga qaydlar, izohlar shaklida alohida keltirish talab etiladi.

5. Pul oqimlarini tahlil etishning alohida dasturiy ta'minotlarining yo'qligi.

Pul mablag'larini oqilona boshqarish masalasi doimo mulk egalari va menejerlar e'tiboridagi masala bo'lib kelgan. Negaki, jo'natilgan mahsulot bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilmasligi, tadbirkorlik subyektining qarshi tomon oldidagi majburiyatlarining ham ortishiga olib keladi. Natijada, tadbirkorlik subyektining moliyaviy ahvoli va natijaviyligida salbiy holatlar kuzatila boshlaydi.

Investitsiyalarni pul ekvivalenti deb hisoblash uchun ular erkin ravishda naqd pulga aylantiriladigan bo'lishi va qiymatining o'zgarishida biroz xavf bo'lishi lozim. Shu sababli, investitsiya qisqa muddatda to'lanadigan bo'lsa, ya'ni xarid qilingan paytdan boshlab taxminan uch oy ichida to'lanadigan bo'lsa, uni pul ekvivalenti deb hisoblash mumkin bo'ladi.

Tahlil maqsadi: moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida pul oqimini obyektlari, faoliyat turlari, shakli va davri bo'yicha o'rganish orqali tadbirkorlik subyektining pul mablag'larini ichki va tashqi omillarga bog'liq holdagi o'zgarishlarini retrospektiv a perspektiv tahlilini amalga oshirish orqali ularni maqsadli boshqarishni yo'lga qo'yishdan iborat.

#### **4.2. Pul mablag'lari kirimi va chiqimi bo'yicha ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili**

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot pul tushumlari va to'lovlarini uchta asosiy toifaga ajratadi:

operatsiya faoliyati;

investitsiya faoliyat;

moliyaviy faoliyat.

Operatsion faoliyat - xo‘jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyatidir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning operatsiya faoliyati natijasida vujudga keladigan pul oqimi hajmi xo‘jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab turish, dividendlarni to‘lash va moliyalashtirishning tashqi manbalariga murojaat qilinmay faoliyat yuritishida muhim hisoblanadi.

Operatsion faoliyatdan pul oqimi xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatidan kelib chiqadi. Odatda, xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyati mahsulotni sotishga, ishlarni bajarishga yoki xizmat ko‘rsatishga qaratilgan bo‘ladi.

Operatsion faoliyatidan asosiy pul oqimiga quyidagilar kiradi:

tovarlarni sotish va xizmat ko‘rsatishdan tushgan pul; royalti, badallar, vositachilik haqi va o‘zga yo‘llar bilan pul mablag‘lari tushumi; tovarlar va xizmatlar uchun ularni yetkazib beruvchilarga pul to‘lovlari; xodimlarga va xodimlar nomidan to‘lovlar; sug‘urta xo‘jalik yurituvchi subyektsining sug‘urta polislari bo‘yicha mukofotlari, talablari, yillik va o‘zga to‘lovlari bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari; soliqlar bo‘yicha pul to‘lovlari yoki uning o‘rnini bosuvchi to‘lovlar, agar ular

investitsiya va moliya faoliyatiga taalluqli bo‘lmasa;

savdo yoki dilerlik maqsadlarida tuzilgan bitimlar bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari;

boshqalar.

Investitsiya faoliyati - xo‘jalik yurituvchi subyektning uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotish bilan bog‘liq faoliyatidir.

Investitsion faoliyatidan olingan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

-asosiy vositalarni, nomoddiy va o‘zga uzoq muddatli aktivlarni xarid qilishga pul to‘lovlari. Bu to‘lovlar tajriba-konstruktorlik ishlariga ajratilgan sarmoyalashtirilgan xarajatlar shuningdek, xo‘jalik usulida amalga oshirilgan qurilishlar bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lovlarni o‘z ichiga oladi;

-asosiy vositalarni, nomoddiy va o‘zga uzoq muddatli aktivlarni sotishdan olingan pul tushumi;

-boshqa subyektlarning aksiyalari yoki qarz majburiyatlarini hamda qo‘shma xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishtirok etish huquqini sotib olishga doir pul to‘lovlari, pul ekvivalentlari hisoblangan yoki dilerlik maqsadlariga yoki savdo maqsadlariga saqlab qo‘yilgan to‘lov hujjatlari bo‘yicha to‘lovlar (veksellar kabi hujjatlar bo‘yicha to‘lovlar)dan tashqari;

-boshqa subyektlarning aksiyalari va qarz majburiyatlarini hamda qo‘shma xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishtirok etish huquqini sotishdan kelgan pul tushumlari, pul ekvivalenti hisoblangan yoki dilerlik yoki savdo maqsadlari uchun saqlanayotgan veksel kabi to‘lov hujjatlari bo‘yicha tushumlar bunga kirmaydi;

-boshqa taraflarga berilgan bo‘naklar va kreditlar (moliyaviy muassasalarga berilgan bo‘naklar va kreditlardan tashqari);

-boshqa taraflarga berilgan bo‘naklar va ssudalar qaytarilishidan pul tushumlari (moliyaviy muassasalarga berilgan bo‘naklar va kreditlardan tashqari);

-fyuchers va forvard bitimlari, opsiyon bitimlar va svop bitimlar bo‘yicha to‘lovlar, ular diler yoki savdo maqsadlari uchun mo‘ljallangan holatlar bundan mustasno bo‘ladi yoki to‘lovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasnif etiladi.

-fyuchers va forvard bitimlari, opsiyon bitimlar va svop bitimlar bo‘yicha pul tushumlari, ular diler yoki savdo maqsadlariga mo‘ljallangan holatlar bundan mustasnodir yoki to‘lovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasnif etiladi.

-boshqalar.

Moliyaviy faoliyat - xo‘jalik yurituvchi subyektning qimmatli qog‘ozlar, foizlar va dividendlar bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha faoliyatidir.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy faoliyatidan bo‘ladigan pul oqimlari to‘g‘risidagi axborotni alohida ko‘rsatadi. Bu axborot moliyaviy faoliyatdan bo‘lajak pul oqimlarini taxmin qilish uchun zarur bo‘ladi.

Moliyaviy faoliyatdan keladigan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

-aktsiyalar yoki o'z mablag'i bilan bog'liq boshqa vositalarni chiqarishdan keladigan pul tushumlari;

-subyektlar aktsiyalarining haqini to'lash yoki sotib olish uchun ularning egalariga to'lovlar;

-ta'minlanmagan obligatsiyalar emissiyasidan, moliya xo'jalik yurituvchi subyektlari tomonidan berilgan ssudalardan, garovga qo'yilgan va boshqa qisqa hamda uzoq muddatli zayomlardan pul tushumlari;

-zayomlarni to'lash;

-moliyaviy lizing bo'yicha majburiyatlarni qisqartirish uchun ijarachilarning to'lovlari va boshqalar.

### **4.3. Pul oqimlarining to'g'ri va egri usuldagi tahlili**

Tuzilish maqsadidan kelib chiqib, operatsion faoliyatdan pul mablag'lari oqimi to'g'ri va egri usulda tuziladi. Investitsion va moliyaviy faoliyatdan pul mablag'lari oqimi faqat to'g'ri usulda aks ettiriladi.

Pul mablag'lari oqimi to'g'risidagi hisobot to'g'ri usulda quyidagicha tuziladi:

asosiy usul. Usulning mohiyati pul mablag'lari hisobvaraqlari bo'yicha o'tkazmalarni tahlil qilish va ularni uchta asosiy faoliyat turlari bo'yicha ajratishdir. Bunda, pul mablag'larining ichki harakati inobatga olinmaydi.

korrektirovkalash usuli. Bunda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning har bir qatori korrektirovkalanadi. Jumladan, hisobot davrida xaridorlardan kelib tushgan pul mablag'lari summasini ko'rish uchun mahsulot sotishdan sof tushum summasi debitorlik majburiyatlari qoldig'i o'zgarishi bilan korrektirovkalanadi.

Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotni to'g'ri usulda tuzishning quyidagi afzalliklari bor:

- pul mablag'lari kirimining asosiy manbalari va chiqimining yo'nalishlarini aks ettirish imkoniyati;

- turli joriy majburiyatlar bo'yicha to'lovlar uchun mablag'larning yetarliligi bo'yicha xulosa qilish imkoniyati.

Asosiy pul mablag‘lari kirimi va chiqimi bo‘yicha axborotlar moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot hamda foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlaridan olinadi.

#### 4.1-jadval

##### Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobotni to‘g‘ri usulda tuzish

1. Xaridorlardan kelib tushgan pul mablag‘lari =
(+) sotishdan sof tushum
+(-) debitorlik majburiyatlarining kamayishi (oshishi)
olingan avanslar
2. Mol yetkazib beruvchilar va xodimlarga to‘lovlar =
(-) sotilgan mahsulot(xizmat) tannarxi
+ (-) tovar zaxiralarning oshishi (kamayishi)
+(-) kreditorlik majburiyatlarining kamayishi (oshishi)
+(-) kelgusi davr xarajatlarining kamayishi (oshishi)
+ umumxo‘jalik, sotish va mahmuriy xarajatlar
+(-) boshqa majburiyatlarning kamayishi (oshishi)
3. Foiz hamda boshqa joriy xarajatlar va daromadlar
(-) foiz xarajatlari
+(-) hisoblangan foizlarning kamayishi (oshishi)
+(-) kelgusi to‘lovlar uchun zaxiralarning kamayishi (oshishi)
+(-) boshqa daromadlar (xarajatlar)
4. To‘langan soliqlar
(-) soliqlar
+(-) soliq majburiyatlari/zaxiralarning kamayishi (oshishi)
+(-) soliq to‘lovlari bo‘yicha bo‘naklarning oshishi (kamayishi)
Operatsion faoliyat bo‘yicha pul oqimi = 1 – 2 – 3 – 4

To‘g‘ri usulning kamchiligi erishilgan moliyaviy natijalar va xo‘jalik yurituvchi subyektning pul mablag‘lari o‘zgarishi o‘rtasida bog‘liqlikni ochib bermaydi.

Joriy boshqaruvda to‘g‘ri usulning axborotlaridan foydani shakllanishi jarayonini nazorat qilish va joriy majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlar mablag‘larning yetarliligi bo‘yicha xulosa qilishda foydalaniladi. Uzoq muddatli istiqbolda to‘g‘ri usulda hisoblangan pul oqimi hisobvaraqlardagi pul mablag‘lari harakatini batafsil aks ettirganligi bois xo‘jalik yurituvchi subyekt likvidligini baholash, shuningdek

xo‘jalik yurituvchi subyektda mavjud resurslar bilan investitsion va moliyaviy ehtiyojlarni qoplash darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.

To‘g‘ri usulning afzalligi pul oqimining strukturasi va dinamikasini to‘liq tavsiflaydi.

Egri usulda operatsion faoliyatdan pul mablag‘lari oqimi pul mablag‘lari qatorlari bilan birga aktiv hamda passivlarning pul mablag‘lari oqimiga ta’sir ko‘rsatadigan boshqa qatorlari o‘rganiladi.

#### 4.2-jadval

##### **Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobotni egri usulda tuzish**

Operatsion faoliyatdan pul mablag‘lari harakati
+ Sof foyda
+ Amortizatsiya
+(-) debitorlik majburiyatlarining oshishi (kamayishi)
+(-) tovar zaxiralarning oshishi (kamayishi)
+(-) boshqa aylanma aktivlarning oshishi (kamayishi)
+(-) kreditorlik majburiyatlarining oshishi (kamayishi)
+(-) hisoblangan foizlarning oshishi (kamayishi)
+(-) kelgusi to‘lovlari uchun zaxiralarning oshishi (kamayishi)
+(-) soliq to‘lovlari bo‘yicha majburiyatlarning oshishi (kamayishi)

Egri usul foydaning sof foydadan nima maqsadda foydalanganligi yoki pul mablag‘larining qaysi yo‘nalishda yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Egri usul hisobkitobining osonligi bilan birga moliyaviy natijalar va aylanma kapital o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalashi bilan ahamiyatlidir.

Uzoq muddatli istiqbolda egri usul harakatsiz pul mablag‘lari jamlangan muammoli makonlarni aniqlash va ularni bu holatdan chiqarish yo‘llarini belgilash imkonini beradi.

#### **4.4. Pul oqimlari samaradorligi va uning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili**

Pul oqimlarini tahlil qilishda quyidagi koeffitsientlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Biver koeffitsienti.

$$K_{Biver} = (SF+A) / (UMM_{o'rt} + JM_{o'rt}) \text{ Bu}$$

yerda:

SF – sof foyda;

A – amortizatsiya;

UMM<sub>o'rt</sub> – uzoq muddatli majburiyatlarning o'rtacha summasi; JM<sub>o'rt</sub> - joriy majburiyatlarning o'rtacha summasi.

Koeffitsientning me'yori 0,4-0,45.

2. Joriy majburiyatlarni foyda hisobiga qoplash koeffitsienti

$$K_{jmq} = (SF+A) / JM_{o'rt}$$

3. Sof pul oqimining yetarliligi koeffitsienti

$$K_{spoe} = SPO / (MBT + ^MAA_{qo'} + D) \text{ Bu}$$

yerda:

SPO – sof pul oqimi;

MBT – majburiyatlar bo'yicha to'lovlar;

^MAA<sub>qo'</sub> - moddiy aylanma aktivlar qoldig'ining o'sishi; D – hisobot davrida to'langan dividendlar.

4. Pul oqimining samaradorligi koeffitsienti.

$$K_{pos} = SPO / PMCH \text{ Bu}$$

yerda:

SPO – sof pul oqimi;

PMCH – pul mablag'lari chiqimi.

Pul mablag'larini samarali boshqarish uchun ularni oqilona optimallashtirish lozim, ya'ni ijobiy va salbiy pul oqimi hajmini balanslashtirish lozim. Ularning yetishmovchiligi yoki ortiqchaligi xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga jidiy ta'sir ko'rsatadi.

Pul mablag'larining yetishmovchiligi likvidlilik va to'lov qobiliyatiga ta'sir ko'rstadi. Natijada xo'jalik yurituvchi subyektda muddati o'tgan kreditorlik majburiyatlari yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida pul mablag'lari va aktivlar

rentabelligining pasayishiga sabab bo‘ladi. Faoliyat turlari bo‘yicha pul oqimining o‘zaro bog‘liqligini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin(4.3-jadval):

#### 4.3-jadval

##### Faoliyat turlari bo‘yicha pul oqimining o‘zaro bog‘liqligi

Vaziyatlar	Faoliyat turlari	Sof pul oqimi	Izoh
1	Operatsion faoliyat	+	Yaxshi holat
	Investitsion faoliyat	-	
	Moliyaviy faoliyat	-	
2	Operatsion faoliyat	+	Normal holat
	Investitsion faoliyat	-	
	Moliyaviy faoliyat	+	
3	Operatsion faoliyat	-	Krizis holat
	Investitsion faoliyat	+	
	Moliyaviy faoliyat	+	

Bundan ko‘rinadiki, operatsion faoliyatning sof pul oqimi orqali investitsion faoliyat va moliyaviy faoliyatning moliyalashtirilishi bu pul mablag‘larining samarali boshqarilayotganligini bildiradi. Shuningdek, operatsion faoliyat va moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimi bilan investitsion faoliyatning moliyalashtirilishi normal holat hisoblanadi. Biroq xo‘jalik yurituvchi subyektning operatsion faoliyatdan salbiy pul oqimiga egaligi hamda investitsion faoliyat va moliyaviy faoliyatdan olingan sof pul oqimi orqali moliyalashtirilishi krizis holatdan darak beradi.

Pul mablag‘larini samarali boshqarish xo‘jalik yurituvchi subyektning xo‘jalik–moliyaviy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi:

- xo‘jalik-moliyaviy faoliyatning barcha sohalarini moliyalashtirish imkoni tug‘iladi;
- to‘lovga qobiliyatsizlik riski pasayadi;
- kapital aylanuvchanligi tezlashadi;
- qaramlilik ehtimoli pasayadi;
- investitsion faoliyatga yo‘naltirilishi mumkin bo‘lgan ortiqcha pul oqimi yuzaga keladi;
- ishlab chiqarish jarayonining maromiyligi ta’minlanadi.

#### **4.5. Bo‘lajak pul oqimlarini bashoratlash**

Pul oqimini bashoratlash xo‘jalik yurituvchi subyektning rahbariga to‘lovga qobiliyatsizlikni oldini olish imkonini beradi. Bashoratlashni o‘tkazishning muddati xo‘jalik yurituvchi subyektning biznes tavsifi, tarmoq xususiyatidan kelib chiqib o‘tkaziladi. To‘lovga qobiliyatsizlikning kritik darajasida bashoratlash har kuni ham o‘tkazilishi mumkin.

Pul oqimini bashoratlashda quyidagi jihatlarga ahamiyat berish lozim:

- oldindan qancha miqdorda pul mablag‘lari yetishmasligini aniqlang;
- mol yetkazib beruvchilar va xodimlarga to‘lovni amalga oshirish imkoniyatini baholang;
- xaridorlarning to‘lovi bilan bog‘liq muammolarga diqqat qarating.

Pul mablag‘lari oqimini bashoratlashdagi eng oddiy metod barcha manbalardan pul mablag‘lari kirimi va chiqimini aks ettiruvchi elektron jadvalni shakllantirishdir. Bunda mahsulot(ish, xizmat) sotishdan pul mablag‘lari kiriminin miqdori va muddatini aniqlashtirib olish muhimdir. Sababi har doim ham kutilgan sotish hajmiga erishish imkoniyati bo‘lmasligi yoki xaridorlar o‘z vaqtida to‘lovlarni amalga oshirmasliklari mumkin.

Pul mablag‘lari oqimini bashoratlashni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchi bosqichda dastlabqi qo‘yilmalarning miqdori belgilanadi. Asosiy kapitalni shakllantirish, dastlabki xaridlar va to‘lovlarni amalga oshirgandan so‘ng qoladigan pul miqdori aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda biznesni kerakli darajada saqlab qolish imkonini beradigan sotish hajmi davrlar bo‘yicha bashoratlanadi. Bunda qancha xaridorlar sizda mahsulot sotib olishi va aynan qaysi mahsulotni tanlashi bashoratlanishi lozim.

Uchinchi bosqichda umumiy sotiladigan mahsulotlar hajmi va xarajatlar summasini aniqlash lozim. Kutilayotgan sotish hajmi tarmoqning oʻrtacha koʻrsatkichi bilan solishtirilishi lozim.

Toʻrtinchi bosqichda xarajatlar strukturasi batafsil oʻrganilishi lozim. Bu esa xarajatlarni kamaytirish yoʻnalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Beshinchi bosqichda maʼlum davr boʻyicha biznes natijasiga koʻra umumiy pul mablagʻlari oqimi hajmi aniqlanadi. Faoliyat davomiyligini taʼminlash uchun ushbu summa ijobiy tavsifga ega boʻlishi lozim.

Pul mablagʻlari oqimini bashoratlashda bir qancha qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- daromadlarni kutilayotgan hajmidan kamroq belgilash. Ularni aniq jadval boʻyicha kutilishlarini rejalashtirish lozim. - xarajatlarni optimallashtirish.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Pul oqimlarini tahlil etishning ahamiyati nimadan iborat?
2. Faoliyat turlari boʻyicha pul mablagʻlari oqimini tavsiflang.
3. Asosiy faoliyatdan pul oqimini tavsiflang.
4. Investitsion faoliyatdan pul oqimini tavsiflang.
5. Moliyaviy faoliyatdan pul oqimini tavsiflang.
6. Pul oqimlarining toʻgʻri usuldagi tahlili qanday amalga oshiriladi?
7. Pul oqimlarining egri usuldagi tahlili qanday amalga oshiriladi?
8. Pul oqimlari oʻzgarishiga qanday omillar taʼsir etadi?
9. Pul oqimlarini bashoratlash yoʻnalishlarini aytib oʻting.
10. Valyuta mablagʻlari tahlilining oʻziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

### Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:

**1-topshiriq.** Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini o'tgan yilga nisbatan o'zgarishlarini baholang.

Ko'rsatkichlar nomi  1	Satr kodi  2	O'tgan yil		Hisobot yili		Farqi	
		Kirim 3	Chiqim 4	Kirim 5	Chiqim 6	Kirim 7	Chiqim 8
<b>Operatsion faoliyat</b>							
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari	010						
Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol etkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari	020						
Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari	030						
Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlar va to'lovlari	040						
Jami: operatsion faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi	050						
<b>Investitsiya faoliyati</b>							
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	060						
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	070						
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish	080						
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	090						
Jami: investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi	100						
<b>Moliyaviy faoliyat</b>							
Olingan va to'langan foizlar	110						
Olingan va to'langan dividendlar	120						
Aktsiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari	130						
Xususiy aktsiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari	140						
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	150						
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	160						
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	170						

Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirim/chiqim	180						
<b>Soliqqa tortish</b>							
To‘langan daromad (foyda) solig‘i	190						
To‘langan boshqa soliqlar	200						
Jami: to‘langan soliqlar	210						
Jami: moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining sof pul kirimi/chiqimi	220						
Yil boshidagi pul mablag‘lari	230						
Yil oxiridagi pul mablag‘lari	240						

**Xulosa**

–

## 2-topshiriq. Pul oqimini ko'rsatkichlar orqali tahlil qiling.

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>O'tgan yili</b>	<b>Hisobot yili</b>	<b>Farqi (+,-)</b>
1.	Biver koeffitsienti			
2.	Foyda hisobiga qisqa muddatli majburiyatlarning qoplanishi			
3.	Sof pul oqimining yetarliligi koeffitsienti			
4.	Pul oqimining samaradorligi koeffitsienti			

**Xulosa** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

## 5-bob. XUSUSIY KAPITAL TO'G'RISIDAGI HISOBOT MA'LUMOTLARI ASOSIDA O'Z MABLAG'LARI MANBASINING TAHLILI

**5.1. Xususiy kapital tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili**

**5.2. Xususiy kapital samaradorligi tahlili**

**5.3. Xususiy kapitalning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholash**

**5.4. Xususiy kapital (o'z mablag'lari manbai) tahlili bo'yicha ilmiynazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish**

**5.1. Xususiy kapital tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili**

Xo'jalik yurituvchi subyektning o'z kapitali bilan ta'minlanganligi faoliyatni rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashda aksar hollarda aynan xususiy kapital summasidan foydalaniladi.

Xususiy kapital tarkibiga ustav kapitali, rezerv kapitali, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar va turli rezervlar kiritiladi.

Turli mulkchilik shakllarida xususiy kapitalni shakllantirish o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Kapital foyda olish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga yo'naltirilgan qiymatni ifodalaydi.

Xususiy kapital xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan aktivlarni moliyalashtirish va foyda olish maqsadida yo'naltirilgan o'z kapitali qiymatini ifodalaydi.

Hisobot davrida kapital va uning elementlarining o'zgarishini xususiy kapital tahlilining obyektini hisoblanadi. Xususiy kapital o'zgarishi sof foydaning ma'lum qismini yo'naltirish, ta'sischi'larning qo'yilmasi, mulkni qayta baholash va b. hisobiga ro'y berishi mumkin.

Xususiy kapital shuningdek investitsiyalangan va jamg'arilgan kapitalga ajratiladi. Investitsiyalangan kapital biznes egalari tomonidan dastlab yo'naltirilgan kapital qiymatini ifodalaydi. Jamg'arilgan kapital faoliyat davomida qo'shilgan kapital qiymatini ifodalaydi.

Xususiy kapital bilan ta'minlanganlikning afzal jihatlari quyidagilardan iborat:

jalb qilishning qulayligi;  
olingan foyda hajmining faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirish imkoniyatining mavjudligi; moliyaviy barqarorlik va to'lov qobiliyatini uzoq muddat saqlab qolishning  
mumkinligi; bankrotlik ehtimolining  
pastligi.

Biroq raqobatdosh sharoitda faoliyatni rivojlantirish uchun faqat o'z kapitalining qiymati yetarli bo'lmashligi va qo'shimcha qiymat yaratish imkonini bermasligi mumkin.

Xususiy kapital tahlilining maqsadi xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy mustaqillik darajasini belgilash, uning hajmi va shakllanish manbalarini o'rganish hamda faoliyat davomiyligini ta'minlash uchun optimal miqdorini belgilashdir.

Xususiy kapital tahlilining vazifalari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

xususiy kapitalning tarkibi, tuzilishi va dinamikasiga baho berish; xususiy kapital hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini baholash; moliyaviy mustaqillik darajasiga baho berish va xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati xususiyatini inobatga olgan holda xususiy kapitalning optimal miqdorini belgilash; xususiy kapitalning moliyaviy barqarorlik darajasiga ta'sirini o'rganish.

M.Raximov fikriga binoan, xususiy kapital tahlilini quyidagi bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi<sup>56</sup>:

-xo'jalik yurituvchi subyektning kapitalga talabini o'rganish, tahlil etish va uni maqbullashtirish;

-xo'jalik yurituvchi subyekt xususiy kapitali, uning tarkibiy tuzilishi va dinamikasini tahlil etish;

---

-xo'jalik yurituvchi subyekt xususiy kapitali va uning samaradorligini baholash;

-xususiy kapital aylanuvchanligini baholash, rentabelligini tahlil etish;

-investitsiyalangan kapital va jamg'arilgan kapitalni moliyaviy koeffitsientlarda baholash;


-xususiy kapitaldagi o'zgarishlarning xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy barqarorligiga ta'sirini baholash;

---

<sup>56</sup> Рахимов М.Ю. Молиявий ҳисобот таҳлили. Дарслик. Т.: "ИҚТИСОД-МОЛИЯ", 2021.

-xususiy kapitalni, sof aktivlarni boshqarish yuzasidan xo‘jalik yurituvchi subyektdagi joriy siyosatining qay darajada optimal ekanligini, aksionerlarga foydali ekanligini baholash.

Bizning fikrimizcha, xususiy kapital tahlilini quyidagi tartibda tashkil etish maqsadga muvofiqdir:



### **5.1-rasm. Xususiy kapital tahlilini o‘tkazish modeli**

Xususiy kapitalni tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari tahlil subyektining manfaatiga bog‘liq hisoblanadi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari tomonidan tahlil o‘tkazilganda xususiy kapital hisobiga oid barcha hisob hujjatlari, moliyaviy hisobotlar va qo‘shimcha axborot manbalaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Xususiy kapital tahlili tashqi subyektlar amalga oshirilgan taqdirda moliyaviy hisobotlar va qo‘shimcha manbalardan foydalaniladi.

### **5.2. Xususiy kapital samaradorligi tahlili**

Kapital samaradorligini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi:

- jami kapital samaradorligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlili;
- xususiy kapital bilan bog‘liq bo‘lgan samaradorlik ko‘rsatkichlari;
- qarz kapitali bilan bog‘liq bo‘lgan samaradorlik ko‘rsatkichlari.

Xususiy kapital samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi.

1. Xususiy kapitalning aylanuvchanlik koeffitsienti.

Xususiy kapitalning aylanuvchanlik koeffitsienti ( $K_{xk}$ ) mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushumlar summasini xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida topiladi.

Ya'ni:

$$K_{xk} = ST / XK$$

Bunda: ST-Sotishdan tushum; XK-Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati.

2. Xususiy kapitalning aylanish davri( $K_d$ ).

Xususiy kapital aylanish davri xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatini mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushumga nisbati asosida topiladi va hisobot yilidagi shartli kunlar soniga ko'paytiriladi.

Ya'ni:

$$K_d = XK * 360 / ST \text{ yoki } 360 / K_{xk}$$

Bunda:360-shartli, yil kunlari.

3.Xususiy kapital rentabelligi( $K_r$ ).

Xususiy kapital rentabelligi sof foyda hajmini xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida topiladi.

Ya'ni:

$$K_r = SF * 100\% / XK$$

Bunda: SF-Sof foyda.

Dyupon modeli xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichining ( $R_{xk}(ROE)$ ) omilli tahlilida qo'llanilgan:

$$R_{xk}(ROE) = R_a(ROA) * M_r(DR) = SF/ST * ST/A * A/XK$$

Model xususiy rentabellik ko'rsatkichiga ko'p sonli omillar ta'sirini hisoblash imkonini beradi.

## 5.1-jadval

### Dyupon modeli asosida xususiy kapital rentabelligining ko‘p omilli tahlili<sup>57</sup>

№	Ko‘rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	Farqi
1.	Sof foyda, ming so‘m	5235756	5667444	431688
2.	Sof tushum, ming so‘m	24318381	26295296	1976915
3.	Aktiv qiymati, ming so‘m	42690635	33294706	-9395929
4.	Xususiy kapital, ming so‘m	24706095	17838682	-6867413
5.	Sotish rentabelligi(1/2), %	21,53	21,55	0,02
6.	Aktivlar aylanuvchanligi(2/3), so‘m	0,57	0,79	0,22
7.	Aktivlarning xususiy kapitalga nisbati(3/4), ming so‘m	1,72	1,86	0,14
8.	Xususiy kapital rentabelligi(1/4), %	21,19	31,77	10,58
	Xususiy kapital o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili	x	X	10,58
A)	Sotish rentabelligining o‘zgarishi	0,02*0,57*1,72		0,02
B)	Aktivlar aylanuvchanligining o‘zgarishi	21,55*0,22*1,72		8,15
S)	Aktivlarning xususiy kapitalga nisbatining o‘zgarishi	21,55*0,79*0,14		2,38

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, hisobot yilida xususiy kapital rentabelligi 31,77% ga teng bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 10,58% ga oshgan. Bu o‘zgarishga sotish rentabelligi, aktivlar aylanuvchanligi, hamda aktivlarning xususiy kapitalga nisbati ko‘rsatkichlarining oshishi sabab bo‘lgan.

Sotish rentabelligi hisobot yilida 21,55% ga teng bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 0,02%ga oshgan. Bu esa o‘z navbatida xususiy kapital rentabelligining 0,02%ga oshishiga olib kelgan. Aktivlar aylanuvchanligi hisobot yilida 0,79 so‘mga teng bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 0,22 so‘mga kamaygan. Natijada xususiy kapital rentabelligi 8,15%ga oshgan. Aktivlarning xususiy kapitalga nisbati hisobot yilida 1,86 ming so‘mga teng bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 0,14 ga oshgan. Bu holat xususiy kapital rentabelligining 10,58% ga oshishiga sabab bo‘lgan.

---

<sup>57</sup> “Toshkent suv ta’minoti” MCHJ Chirchiq shahar bo‘limi moliyaviy hisobotlari asosida.

Xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichining o'zgarishiga aniqroq baho berish uchun aktivlar rentabelligi, xarajatlar rentabelligi ko'rsatkichlarini ham aniqlash va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

## 5. 2-

**jadval Xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichining tizimli tahlili**

<b>Aktivlar rentabelligi</b>	<b>Xarajat rentabelligi</b>	<b>Xususiy kapital rentabelligi</b>	<b>Izoh</b>
O'sish	O'sish	O'sish	Biznes muvaffaqiyatli o'smoqda.
O'sish	O'sish	O'zgarish yo'q	Xo'jalik yurituvchi subyekt jalb etilgan mablag'lar hajmini kamaytirgan, biroq vaziyat barqaror.
O'sish	O'sish	Pasayish	Xo'jalik yurituvchi subyekt jalb etilgan mablag'lar hajmini kamaytirgan, natijada foyda kamaygan.
Pasayish	Pasayish	Pasayish	Barchasi yomon, antikrizis boshqaruvini yo'lga qo'yish lozim.
Pasayish	Pasayish	O'zgarish yo'q	Barchasi yomon, xo'jalik yurituvchi subyekt o'z majburiyatlarini oshirish hisobiga yashamoqda.
Pasayish	Pasayish	O'sish	Juda noaniq vaziyat. Foyda hajmining oshishi natijasida faoliyat optimallashtirilganini yoki qulash oldidan vaqtinchalik o'sishni anglatishi mumkin. Mablag'lar dinamikasiga qarash lozim.
O'sish	Pasayish	O'sish	Faoliyat hajmi kamayishi yoki xarajatlar optimizatsiyasini anglatishi mumkin.
O'sish	Pasayish	O'zgarish yo'q	Kreditorlik majburiyati kamaygan.
O'sish	Pasayish	Pasayish	Mablag'lar hajmi kamaygan, mutlaq foyda kamaygan, mulkdorlar hozircha o'z ulushini olib ketmayapti.
Pasayish	O'sish	O'zgarish yo'q	Resurslar hajmi kamaygan, xo'jalik yurituvchi subyekt mahsuloti(xizmati) narxi oshgan. Juda negativ tendentsiya.
Pasayish	O'sish	Pasayish	Oldingi holat bilan bir xil. Faqat jalb etilgan mablag'lar hajmi ham kamaygan.
O'zgarish yo'q	O'sish	O'sish	Xususiy kapital hajmining oshishi asosan qarz mablag'lari hisobiga ro'y bergan.
O'zgarish yo'q	O'sish	O'zgarish yo'q	Tovar(xizmat) narxi oshgan, biroq sezilarli o'zgarish yo'q.

O'zgarish yo'q	O'sish	Pasayish	Tovar(xizmat) narxining keskin oshishi.
----------------	--------	----------	-----------------------------------------

Zamonaviy iqtisodiyotda kapital tarkibi xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga - uning to'lov qobiliyati va likvidligiga, daromad miqdori, rentabelligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi.

Tashqi foydalanuvchilar (banklar, investorlar, kreditorlar) bitimlar tuzishda moliyaviy tavakkalchilik nuqtai nazaridan xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lari manbalarining umumiy manbalardagi ulushining o'zgarishini baholaydi.

Moliyaviy tahlilning xorij amaliyotida qarz va hususiy kapital nisbati qarz beruvchi uchun riskni baholash usuli bo'lib hisoblanadi.

### **5.3. Xususiy kapitalning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholash**

Xususiy kapital hajmi xo'jalik yurituvchi subyektning tashqi manbalardan moliyaviy mustaqilligi darajasi hamda kelgusida rivojlanish uchun sharoitlarning mavjudligini belgilaydi. Moliyaviy barqarorlik darajasiga ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Tashqi omillarga valyuta kursi o'zgarishi, kredit va qarzlar bo'yicha foizlar darajasi, soliq stavkalari va imtiyozlar, mahsulot(ish, xizmat)ga bo'lgan talab hajmi kabi omillar kiradi. Xo'jalik yurituvchi subyektning tashkiliy strukturasi, faoliyat turi, mulkning holati, kadrlar salohiyati, boshqarish qobiliyati kabi omillar moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatadigan ichki omillar hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlikni belgilaydigan muhim ko'rsatkichlardan biri o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichdan moliyaviy barqarorlikning mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarini aniqlashda foydalaniladi.

Ma'lumki, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$O'AM = O'MM + UMM - UMA$$

Bu yerda:

O'MM – o'z mablag'lari manbalari;

UMM – uzoq muddatli majburiyatlar;

UMA – uzoq muddatli aktivlar.

Hisoblash formuladan ko'rinadiki, o'z aylanma mablag'larining hajmi bevosita o'z mablag'lari manbalarining summasiga bog'liq. Zero har doim ham xo'jalik yurituvchi subyektlar uzoq muddatli majburiyatlarni jalb etmasliklari mumkin.

### 5.3-jadval

#### Moliyaviy barqarorlikning xususiy kapital bilan bog'liq ko'rsatkichlari tavsifi

Koeffitsientlar	Mazmuni	Hisoblash tartibi	Izoh
O'z va qarz kapitali o'rtasidagi nisbat koeffitsienti	O'z kapitalining qarz kapitaliga nisbatini ifodalaydi.	$O'MM / M$	$\geq 1$
Qarz va o'z kapitali o'rtasidagi nisbat koeffitsienti	Qarz kapitalining o'z kapitaliga nisbatini ifodalaydi.	$M / O'MM$	$\leq 1$
Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	O'z mablag'larining jami manbalardagi ulushini ifodalaydi.	$O'MM / BPJ$	$\geq 0,5$
Mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsienti	O'z aylanma mablag'larining o'z mablag'lari manbalaridagi ulushini ifodalaydi.	$(O'MM+UMM-UMA) / O'MM$	$\geq 0,5$
Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti	Jami manba tarkibida foydalaniladigan uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari ulushini ifodalaydi.	$(O'MM+UMM) / BPJ$	0,5-0,6
Tovar-moddiy zaxiralarni o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi koeffitsienti	Tovar-moddiy zaxiralarni o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi holatini ifodalaydi.	$(O'MM+UMMUMA) / TMZ$	0,6-0,8

Belgilar izohi: O'MM – o'z mablag'lari manbalari, M – majburiyatlar, BPJ – balans passivi jami, UMA – uzoq muddatli aktivlar, UMM – uzoq muddatli majburiyatlar, TMZ – tovar-moddiy zaxiralar.

#### **5.4. Xususiy kapital (o'z mablag'lari manbai) tahlili bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish**

Xususiy kapital (o'z mablag'lari manbalari) tahlili bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish yuzasidan quyidagilarni alohida e'tirof etish lozim:

1. Xususiy kapital tahlilida baholanadigan ko'rsatkichlarni tizimlashtirish lozim. Negaki ularning soni va aniqlanish tartiblari turli manbalarda turlicha keltiriladi. Ularning yagona tartibga keltiruvchi me'yorlar belgilanmagan.

2. Moliyaviy tahlilning xorijiy amaliyotida qarz kapitali va xususiy kapital nisbati qarz beruvchi uchun riskni baholashda muhim ko'rsatkich sifatida baholanadi. Bunday sharoitda, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar balansdan tashqari aks ettirishlar orqali majburiyatlar miqdorini sun'iy ravishda kamaytirishga intiladilar.

3. G'arb mamlakatlari amaliyotini kuzatish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyektlar ustav kapitalini qo'shimcha investitsiya kiritish yoki aktsiya chiqarish hisobiga ko'paytirishga kam ahamiyat qaratishadi. Negaki bu jarayon bir qadar qimmat jarayon hisoblanadi. Chunki aktsiyalarni chiqarish va ularni tarqatish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar ko'plab moliyaviy sarflarga va qiyinchiliklarga olib keladi. Bunda, moliyaviy sarflarning umumiy hajmi aktsiyalar nominal qiymatining 5-10 foizgacha qismini tashkil etishi ham mumkin. Shu bilan birgalikda, qo'shimcha aktsiyalarning chiqarilishi ularning bozor bahosiga ham ta'sir qiladi, ya'ni aktsiyalar qiymatining tushib ketishiga olib keladi. Bu jarayonni taqsimlanmagan foyda hisobiga aktsiyaning nominal qiymatini oshirish yoki muomaladagi eski aktsiyalarni yangilari bilan almashtirish, bonusli aktsiyalarni chiqarish hisobiga hal etish o'rinli hisoblanadi.

4. Rezerv kapitali hajmi va uning xususiy kapitaldagi jamg'arilgan qismiga muhim ahamiyat qaratish lozim. Uning hajmi ustav kapitalidan kelib chiqqan holda belgilanishi lozim.

Jamiyat ustavida nazarda tutilgan, ammo uning ustav fondining (ustav kapitalining) o'n besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi. Jamiyatning zaxira fondi jamiyat ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi. Har yilgi ajratmalarning miqdori jamiyat ustavida nazarda tutiladi, ammo bu miqdor jamiyat ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, jamiyatning zaxira fondi jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

Jamiyatning zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.

Jamiyat ustavida boshqa fondlarni tashkil etish nazarda tutilishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda rezerv kapitalining hajmi ustav kapitalining 10-40 foiz darajasida tashkil etilishi kuzatiladi. Bu jihat talablar xo'jalik yurituvchi subyektning nizomida alohida modda sifatida aks ettiriladi.

5. Xususiy kapital tahlilini amalga oshirish bosqichlarini takomillashtirish.

6. Xususiy kapitalning tahlilida axborotlarni analitik qayta ishlashning dasturiy ta'minotini yaratish va amaliyotda qo'llash. Dasturiy ta'minotda, albatta, xususiy kapitalning tarkibiy o'zgarishlari, dinamik qatorlari, samaradorlik va natijaviylik ko'rsatkichlari (mutlaq va nisbiy ifodalarlarda), moliyaviy barqarorlikka ta'siri, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy himoyalanganlik darajasining tahlili alohida tarkiblanishi lozim.

7. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzilishi va mazmunini qator kamchiliklar mavjud. Uning gorizontal va vertikal qatorlari to'g'ri tanlanmagan.

Masalan; vertikal va gorizontal qatorlar bo‘yicha “x” belgisi juda ko‘p ishlatilgan. Bu belgi kiritilgan qatorlar manbalanmasligi lozim. Odatda biz moliyaviy hisobotlarda chegiriluvchi qatorlarga nisbatan “-” belgisini ishlatmaymiz. Bu barchaga aniq va ishlatish zarur bulmagan belgi hisoblanadi.

### Nazorat uchun savollar:

1. Xususiy kapital tahlilining maqsadi haqida gapiring.
2. Xususiy kapital tahlilining vazifalari nimadan iborat?
3. Xususiy kapitalning tarkibi va tuzilishi tahlili jarayonini bayon eting.
4. Sof aktivlar tahlili qanday amalga oshiriladi?
5. Xususiy kapital tahlili bilan bog‘liq moliyaviy koeffitsientlarni aytib o‘ting.
6. Xususiy kapital samaradorligi va natijaviyligi deganda nimani tushunasiz.
7. Xususiy kapital rentabelligi va uning omilli tahlili qanday amalga oshiriladi?
8. Dyupon modelini tavsiflang.
9. Xususiy kapital hajmini optimal miqdori haqida fikringizni bayon eting.
10. Xususiy kapital hajmini oshirishning qanday imkoniyatlari mavjud?

### Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

**1-topshiriq.** O‘z mablag‘lari manbalari gorizontal tahlilini amalga oshiring.

O‘z mablag‘lari manbalari	Balans satri	O‘tgan yil	Hisobot yili	Farqi
Ustav kapitali	410			
Qo‘shilgan kapital	420			
Rezerv kapitali	430			
Sotib olingan xususiy aksiyalar	440			
Taqsimlanmagan foyda	450			
Maqsadli tushumlar	460			

Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar	470			
Jami				

**Xulosa**

**2-topshiriq.** Sof aktivlar tahlilini amalga oshiring.

Nº	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi
1.	Jami aktivlar			
2.	Majburiyatlar			
3.	Ustav kapitali			
4.	Sof aktivlar (1-2)			
5.	Sof aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i			
6.	Sof aktivlarning ustav kapitalidagi hissasi			

**Xulosa**

**3-topshiriq.** Buxgalteriya balansida o'z mablag'lari manbalari tarkibiy birliklarini vertikal tahlilini amalga oshiring.

O'z mablag'lari manbalari	Balans satri	O'tgan yil		Hisobot yili		Farqi	
		summa	%	summa	%	summa	%
Ustav kapitali	410						
Qo'shilgan kapital	420						
Rezerv kapitali	430						
Sotib olingan xususiy aksiyalar	440						
Taqsimlanmagan foyda	450						
Maqsadli tushumlar	460						
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar	470						
Jami	480						

**Xulosa**

**4-topshiriq.** Sof aktivlardan foydalanish samaradorligini tahlil eting.

Nº	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+, -)	O'sishi, %
1.	Sof aktivlarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm				
2.	Sotishdan sof tushum, ming so'm				
3.	Sof foyda, ming so'm				
4.	Sof aktivlarning aylanuvchanligi, Ksa ( 2 satr / 1 satr)				

5.	Sof aktivlarning aylanish davri, kun (360 / Ksa)				
6.	Sof aktivlar rentabelligi, % ((3 satr / 1 satr) *100)				

**Xulosa**

**5-topshiriq. Dyupon modeli asosida xususiy kapital rentabelligining ko'p omilli tahlilini amalga oshiring.**

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi
1.	Sof foyda, ming so'm			
2.	Sof tushum, ming so'm			
3.	Aktiv qiymati, ming so'm			
4.	Xususiy kapital, ming so'm			
5.	Sotish rentabelligi(1/2), %			
6.	Aktivlar aylanuvchanligi(2/3), so'm			
7.	Aktivlarning xususiy kapitalga nisbati(3/4), ming so'm			
8.	Xususiy kapital rentabelligi(1/4), %			
	Xususiy kapital o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili			
A)	Sotish rentabelligining o'zgarishi			
B)	Aktivlar aylanuvchanligining o'zgarishi			
S)	Aktivlarning xususiy kapitalga nisbatining o'zgarishi			

$$R_{xk}(ROE) = SF / XK = SF/ST * ST/A * A/XK$$

**Xulosa**

**6-topshiriq. Xususiy kapital rentabelligining tizimli tahlilini amalga oshiring.**

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi
1.	Sof foyda, ming so'm			
2.	Aktiv qiymati, ming so'm			
3.	Xarajatlar, ming so'm			
4.	Xususiy kapital, ming so'm			
5.	Aktivlar rentabelligi(1/2), %			
6.	Xarajatlar rentabelligi(1/3), %			
7.	Xususiy kapital rentabelligi(1/4), %			

**Xulosa**

**7-topshiriq. Xususiy kapital aylanuvchanligi tahlilini amalga oshiring.**

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi
---	----------------	-------------	--------------	-------

2.	Sof tushum, ming so‘m			
4.	Xususiy kapital, ming so‘m			
6.	Xususiy kapital aylanuvchanligi(1/2), so‘m			
8.	Xususiy kapital aylanish davri, (2/1*T), kun			
	Xususiy kapital aylanuvchanligiga ta’sir etuvchi omillar tahlili			
A)	Sof tushumning o‘zgarishi			
B)	Xususiy kapital qiymatining o‘zgarishi			

### **Xulosa**

**8-topshiriq.** Xususiy kapital rentabelligi ko‘rsatkichining tizimli tahlilini amalga oshiring.

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan davr	Hisobot davri	O‘zgarishi, %
1.	Aktivlar rentabelligi			
2.	Xarajat rentabelligi			
3.	Xususiy kapital rentabelligi			

### **Xulosa**

## **6-bob. INVESTITSİYALAR VA INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI**

### **1.1. Investorlar va investitsion faoliyat subyektlarining manfaatlari**

### **1.2. Investitsion faoliyatning moliyaviy tahlili**

### **1.3. Investitsion faoliyat samaradorligini baholash usullari**

### **1.4. Xo‘jalik subyekting investitsion jozibadorligini tahlili**

#### **6.1. Investorlar va investitsion faoliyat subyektlarining manfaatlari**

“...Milliy iqtisodiyotning ochiqligini ta’minlash va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishni islohotlarning asosiy yo‘nalishi etib belgiladik. Shu maqsadda valyuta bozorini erkinlashtirdik, xususiy investorlarga energetika, geologiya-qidiruv, kimyo va neftg‘ kimyosi, tibbiyot va ta’lim kabi sohalarda faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirdik.

Qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha amalga oshirgan islohotlarimiz natijasida so'nggi 5 yilda iqtisodiyotimizga kirib kelgan xorijiy investitsiyalar hajmi 10 barobar oshib, qariyb 40 milliard dollarni tashkil etdi. Biz 10 yil davomida yalpi ichki mahsulot hajmini hozirgi ko'rsatkichdan ikki barobar oshirishni maqsad qilganmiz. Bunga erishish uchun bizda xohish-iroda ham, imkoniyat ham yetarli.

O'z oldimizga qo'ygan bunday yuksak marralar uchun sarmoyalar hajmini kelgusi 5 yilda 120 milliard dollarga yetkazish, jumladan, kamida 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb etishni hisob-kitob qilganmiz. Ushbu investitsiyalarni, eng avvalo, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya va transformatsiya qilish, ishlab chiqarish, kommunal va transport infratuzilmasini jadal rivojlantirishga yo'naltirish uchun aniq loyiha va dasturlarimiz bor. Shuningdek, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi davlat tasarrufidagi an'anaviy sohalarga ham xususiy investitsiyalarni jalb etish kun tartibimizda turadi<sup>58</sup>.

Mamlakatimizdagi investitsiya muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga va boshqa muhim sohalarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish, ilg'or xalqaro tajribalarni hisobga olgan

---

holda sifatli investitsiya jarayonlarini tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Xorijiy investorlar kengashi tuzildi. Uning asosiy vazifalaridan biri qulay investitsiya muhitini shakllantirishda, mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari va hududlarga raqobatbardosh eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi zamonaviy korxonalarini tashkil etish maqsadida sarmoya kiritishlarini rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini shakllantirishda bevosita ishtirok etish, shuningdek, investitsiyalarni, eng avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishga va o'zaro manfaatli savdoni rivojlantirishga ko'maklashishdir.

---

<sup>58</sup> Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining birinchi yalpi majlisidagi nutqi. 16.11.2022. <https://www.president.uz>

Investitsiyalar korxonalar rivoji, moliyaviy barqarorligining oshishi, iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini oshirishning muhim omilidir. Shu bois, investitsiyalarning barqaror oqimini ta'minlash uchun investitsiya subyekti o'z qo'yilmalarining foydaliligi va samaradorligiga ishonch hosil qilish lozim.

Bu esa, o'z navbatida mulk egalari va investorlar tomonidan investitsiya obyektining investitsion jozibadorligini tahlil qilish va uning asosidagina qaror qabul qilish zaruriyatini tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilanganidek, "xalqaro tajribani o'rganib, raqobatni olib kirish mumkin bo'lgan monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yo'l ochish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim. Bu borada tabiiy monopoliya va raqobat to'g'risidagi qonunlarni yangilash hamda iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish talab etiladi"<sup>59</sup>.

Yu.Yu.Kuporov ta'kidlaganidek, zamonaviy iqtisodiyotda raqobatning mohiyati yuqoriligicha qolmoqda. Raqobat munosabatlari xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligi, xizmatlar sifati, xarajatlarni kamaytirish imkoniyatiga ijobiy ta'sir etishi bilan izohlanadi. Raqobat iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirishning harakatlantiruvchi omili sifatida ro'yobga chiqadi. Aynan shuning uchun iqtisodiy tizimda yetakchi pozitsiyalarni egallagan ko'pgina

---

davlatlarda halol raqobatni qo'llab-quvvatlash davlat boshqaruvi organlarining muhim vazifasi bo'lib qoladi<sup>60</sup>.

Investitsiyalar xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini jadal rivojlanishining bosh omili hisoblanadi. Investitsiya lotincha "invest" so'zidan olingan bo'lib, "sarmoya" kiritish, qo'yish degan ma'noni bildiradi. Kengroq ma'noda qo'llanilganda, foyda olish maqsadida mamlakat ichkarisida va chet

---

<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25 yanvar 2020 yil. <https://www.president.uz>

<sup>60</sup> Kuporov Ю.Ю. «Социально-экономическая эффективность инвестиций в развитие услуг водоснабжения и водоотведения». Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санкт-Петербург, 2017, 24 б.

ellarda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga, faoliyatga qo‘yilgan uzoq muddatli mablag‘ sarmoyani bildiradi.

Investitsiyalar - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar<sup>61</sup>.

Investor - foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o‘zining mablag‘larini va (yoki) qarz mablag‘larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti<sup>62</sup>.

E.E.Rumyantseva talqiniga binoan, “investitsiya qilish” kelajakda daromad olishni ko‘zlab, bugun mablag‘dan voz kechishni anglatadi<sup>63</sup>. Odatda bu jarayon vaqt va risk bilan bog‘liq.

Ilmiy adabiyotlarda odatda investitsiyalarning bir necha turi farqlanadi: xorijiy, to‘g‘ri, portfel, real, moliyaviy, intellektual va b. investitsiyalar.

Xorijiy investitsiyalar xorijiy kapitalning mamlakat tarmoqlarining turli sohalariga joylashtirilishidir.

To‘g‘ri investitsiyalar jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan xususiy kompaniyalarga yo‘naltirilgan qo‘yilmalardir. Xorijiy davlatlarda to‘g‘ri investitsiyalarning asosiy ko‘rinishi venchur fondlaridir. Venchur fondlari

---

<sup>61</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 25-dekabr, O‘RQ-598-son. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>62</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 25-dekabr, O‘RQ-598-son. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>63</sup> Румянцева Е.Е. Инвестиционный анализ. М.: Юрайт, 2021.

moliyalashtirish mablag‘lari orqali kompaniyalarning ustav kapitali va boshqaruvida o‘ziga xos ulushga ega bo‘ladi.

Portfel investitsiyalar foyda olish maqsadida qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan pul mablag‘larini bildiradi.

Real investitsiyalar moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga yo‘naltirilgan investitsiyalardir. Ular mulk obyektlarini sotib olish, yangi qurilish, ishlab chiqarish yo‘nalishini o‘zgartirish, rekonstruktsiya, modernizatsiya, uskunalarni yangilash, aylanma kapitalni o‘sishi va nomoddiy aktivlarga mablag‘ yo‘naltirish shakllarida bo‘lishi mumkin.

Moliyaviy investitsiyalar boshqa kompaniyalarning qimmatli qog‘ozlari, davlat obligatsiyalari, boshqa kompaniyalarning ustav fondiga yo‘naltirilgan kapital qo‘yilmalardir.

Qonunga binoan, investitsiyalar mo‘ljallangan obyektiga ko‘ra, kapital, moliyaviy va ijtimoiy turlarga bo‘linadi.

Asosiy fondlarni yaratish va takror ko‘paytirishga, shu jumladan yangi qurilishga, modernizatsiya qilishga, rekonstruktsiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kapital investitsiyalar jumlasiga kiradi.

Aksiyalar, korporativ, infratuzilmaviy va davlat obligatsiyalariga, shuningdek qimmatli qog‘ozlarning boshqa turlariga kiritiladigan investitsiyalar moliyaviy investitsiyalar jumlasiga kiradi.

Inson salohiyatini, ko‘nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga, shuningdek nomoddiy boyliklarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga kiradi.

Ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va qonunchilik bilan ta'qiqlanmagan boshqa faoliyat turlarining obyektlari investitsiya faoliyati obyektlaridir<sup>64</sup>.

Investitsion faoliyat subyektlari investorlar, kreditorlar, buyurtmachilar, kapital qo'yilmalar obyektlaridan foydalanuvchilar, davlat tashkilotlari, bank,

---

sug'urta kompaniyalari, jamoaviy tashkilotlar, ekologik tashkilotlar va b. bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, yakka tartibdagi tadbirkorlari va yuridik shaxslari - rezidentlari, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, chet davlatlar, chet davlatlarning ma'muriy yoki hududiy organlari, xalqaro tashkilotlar hamda chet ellik yuridik shaxslar va fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar investitsiya faoliyatining subyektlaridir<sup>65</sup>.

Xorij amaliyotida investitsion faoliyat subyektlari stejkxolderlar deyiladi. Butun dunyoda murakkab investitsion loyihalarning muvaffaqiyati 38% stejkxolderlar bilan samarali aloqalarga bog'liq hisoblanadi. Loyihaga ta'siriga ko'ra, stejkxolderlar uch guruhga ajratiladi: loyihaga faol jalb qilingan subyektlar, jumladan loyiha komandasi, investor,

boshqaruv qo'mitasi, jalb qilingan tomonlar va b.; loyiha ularning manfaatiga ta'sir

qiladigan subyektlar, shu jumladan

buyurtmachilar, bo'limlar boshliqlari, hamkorlar, mijozlar, xaridorlar va b.; loyihaga jalb qilinmagan, lekin o'z faoliyati doirasida unga ta'sir qiladigan subyektlar, jumladan davlat organlari, mahalliy aholi, ekologik tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari va b.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, investitsiya loyihasi - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa

---

<sup>64</sup> O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 25son. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>65</sup> O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 25-dekabr, O'RQ-598-son. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

foйда olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tadbirlar majmuidir<sup>66</sup>.

E.Friman o‘zining “Strategic Management: A Stakeholder Approach”(1984 y.) kitobida steykxolderlar faoliyatini bir necha bosqichlarda tahlil qilish va boshqarish lozim deb hisoblagan:

steykxolderlar guruhini aniqlash; steykxolderlar ehtiyojlarini aniqlash;

---

steykxolderlar manfaatlari va ta’sirini tahlil qilish; steykxolderlarni boshqarish bo‘yicha ishlar rejasi; rejalashtirilgan ishlarni tadbiq qilish; natijalar tahlili.

Investitsion faoliyat tahlilining maqsadi investitsiyalar samaradorligini baholash, investitsiyalar kiritilgandan keyingi faoliyat natijalarini baholashdir.

Investitsion faoliyat tahlilining vazifalari quyidagilardan iborat:

investitsiyalarga bo‘lgan real talab hajmini o‘rganish; optimal investitsion qarorlarni tanlab olish; kutilayotgan investitsiyalar bo‘yicha daromad hajmi va risk darajasini

baholash; investitsiyalar samaradorligini baholash; investitsiyalar yo‘naltirilgandan keyingi faoliyat natijalarini baholash.

Investitsion faoliyat tahlilining axborot manbalari turli rejalar, buxgalteriya hisobotlari, moliyaviy hisobotlar va qo‘shimcha axborot manbalari hisoblanadi.

## **6.2. Investitsion faoliyatning moliyaviy tahlili**

Investitsiya faoliyati - investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui<sup>67</sup>.

---

<sup>66</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 25son. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>67</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 25son. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

Muvaffaqiyatli o‘tkazilgan investitsion faoliyat tahlili quyidagilarga imkon beradi:

investitsion loyiha qiymatini baholash; risklilik darajasini baholash; loyiha realizatsiyasining iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash; loyihaning hayot tsikli davomida pul oqimlarini bashoratlash; loyihaning real muddatini aniqlash; loyihani amalga oshirish manbalari tuzilishi va hajmini baholash; loyihaga inflyatsiyaning ta’sirini baholash;

---

xo'jalik yurituvchi subyektning investitsion jozibadorligini baholash.

Investitsion faoliyat xo'jalik yurituvchi subyektning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlari bilan bog'liq. Shu bois u ishlab chiqilgan investitsion siyosat bilan muvofiqan amalga oshirilishi lozim. O'z navbatida investitsion siyosat xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy strategiyasining tarkibi hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning investitsion siyosati quyidagi tartibda ishlab chiqiladi: xo'jalik yurituvchi subyektning o'tgan davrdagi investitsion faoliyatining tahlili; tashqi investitsion muhit va investitsion bozor konhyukturasini sharoitlarini tadqiq etish; investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan rivojlanishning strategik maqsadlarini inobatga olish; investitsion faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq risk darajasini baholash; investitsiyalashning asosiy yo'nalishlari bo'yicha investitsion siyosatni shakllantirish; tarmoq mansubligiga muvofiqan investitsion siyosatni shakllantirish; hudud mansubligiga muvofiqan investitsion siyosatni shakllantirish; investitsion siyosat asosiy yo'nalishlarining o'zaro bog'liqligi.

Investitsion faoliyat tahlili xo'jalik yurituvchi subyektning ichki investitsion salohiyatini har tomonlama baholash va uning samaradorligini baholash asosida quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

o'rganilayotgan davrda xo'jalik yurituvchi subyektning umumiy investitsion faoliyati hajmi alohida bosqichlarda o'rganiladi, uning o'sish dinamikasi aktivlar, xususiy kapital va mahsulot sotish hajmi bilan solishtiriladi; investitsion faoliyatning alohida yo'nalishlari o'zaro nisbatini tadqiq qilinadi. Har bir yo'nalishning ulushi aniqlanadi, uning xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati rivojidadagi o'rnini belgilanadi; tarmoq va hudud miqyosida investitsion faoliyatning diversifikatsiya darajasi o'rganiladi, uning operatsion faoliyat bilan muvofiqligi o'rganiladi;

investitsion faoliyatning samaradorligi baholanadi. Samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlanadi va boshqa ko'rsatkichlar(aktivlar rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi) bilan solishtiriladi.

Investitsion faoliyat xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy potentsialini kengaytirishga yo‘naltirilgan kapital qo‘yilmalarning samarali shakllarini amalga oshirish va asoslash jarayonini tavsiflaydi, uning rivojlanish miqyosi va darajasini belgilaydi, raqobatbardoshlik darajasi oshishini ta‘minlaydi. Investitsion daromad o‘shishini ta‘minlaydigan xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy rivojlanishi va iqtisodiy faolligi o‘zaro bog‘liq jarayonlar hisoblanadi. Shu bois har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt investitsion faoliyatiga alohida e‘tibor qaratishi lozim.

### **6.3. Investitsion faoliyat samaradorligini baholash usullari**

Xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z rivojlanish faoliyati davomida investitsiya qilish bo‘yicha masalalarni hal qilishiga to‘g‘ri keladi. Investitsiya loyihalarini minimal risk va maksimal foyda bilan qo‘lga kiritish uchun daromad va xarajatlarning batafsil tahlilini amalga oshirish lozim.

Mamlakatdagi nobarqarorlik va murakkab vaziyat, moliya bozoridagi holat, inflyatsiya investitsion faollik va samaradorlik ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Odatda xorij adabiyotlarida investitsiyalarning samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilar keltiriladi:

loyihaning sof joriy qiymati (NPV); daromadlilik indeksi (PI); daromadlilikning ichki me‘yori (IRR, %); daromadlilikning modifikatsiya qilingan ichki stavkasi (MIRR, %); dastlabki investitsiyalarning qoplash muddati (RR); pul mablag‘larini diskontlagan holda dastlabki investitsiyalarning qoplash muddati (DPP); investitsiyalarning rentabelligi koeffitsienti (ARR).

Investitsion loyihalar iqtisodiy samaradorligini baholash uchun qo‘llaniladigan metodlar tizimini uchta guruhga bo‘lish mumkin<sup>68</sup>:

dinamik (vaqt omilini hisobga oluvchi): sof joriy qiymat(NPV), daromadlilikning ichki me‘yori (IRR, %), diskontlangan qoplash davri (DPP);

---

<sup>68</sup> S.E.Elmirzaev. Moliya bozori. Darslik. T.: “Iqtisod-moliya”, 2019.

rentabellik indeksi (PI); statistik (hisob): daromadlilikning hisob me'yori (ARR), qoplash davri (RR); muqobil metodlar: korrektirovkalangan joriy qiymat (APV), iqtisodiy qo'shilgan qiymat (EVA), real opsiyonlar (ROV).

Loyihaning sof joriy qiymati (*Net Present Value – NPV*) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$NPV = \sum_{t=0}^n \frac{CF_t}{(1+r)^t} = \sum_{t=0}^n \frac{CIF_t}{(1+r)^t} - \sum_{t=0}^n \frac{COF_t}{(1+r)^t}$$

bu yerda,  $r$  – diskont me'yori;  $n$  – loyihani amalga oshirish davrlari soni;

$CF_t$  –  $t$  davrdagi loyiha operatsiyalaridan pul oqimlari;

$CIF_t$  –  $t$  davrdagi loyihadan jami tushumlar;

$COF_t$  –  $t$  davrdagi loyiha bo'yicha jami to'lovlar.

Sof joriy qiymat ( $NPV$ )ni aniqlash natijasidagi umumiy yagona qoida shuki,  $NPV > 0$  holatda loyiha amalga oshirish uchun qabul qilinadi. Qolgan holatlarda esa o'z-o'zidan inkor qilish lozim bo'ladi.

Agar hisob-kitob qilinganda pul oqimlarining sof joriy qiymati ijobiy ( $NPV > 0$ ) bo'lsa, bu loyihani amalga oshirish vaqti davomida dastlabki xarajatlar (IC0) qo'llangani va daromadlilik me'yori  $r$  talabiga mos foyda olinishi ta'minlanganini anglatadi. Boshqacha aytganda,  $NPV$  loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish natijasida *erishilgan*, yangitdan yaratilgan qo'shimcha qiymat hisoblanadi.

---

Salbiy miqdordagi  $NPV$  berilgan daromadlilik me'yori loyihaning zarar keltirishini va hech qanday qo'shimcha qiymat yaratilmasligini anglatadi.  $NPV = 0$  da esa, loyiha hech qanday daromad ham, zarar ham keltirmasligini anglatadi.

Misol, kompaniya yangi uskuna sotib olishga mablag' yo'naltirmoqchi. Yangi uskunaning bahosi yetkazib berish va o'rnatish bilan 100000 birlikni tashkil etadi. Uskunani joriy etish natijasida 6 yil mobaynida mos ravishda 25000, 30000, 35000, 40000, 45000 va 50000 birlikdagi sof daromad olinishi kutilmoqda. Qabul qilingan diskont me'yori 10 foiz. Loyihaning iqtisodiy samaradorligini aniqlaymiz(6.1jadval).

### 6.1-jadval

#### Loyiha bo'yicha NPV hisob-kitobi, birlikda

t	IC <sub>0</sub>	CF <sub>t</sub>	(1+r) <sup>t</sup>	'V <sub>t</sub>	N'V
0	-100000,0		1,00	-100000,0	-100000,0
1		25000	1,10	22727,27	-77272,73
2		30000	1,21	24793,39	-52479,34
3		35000	1,33	26296,02	-26183,32
4		40000	1,46	27320,54	1137,22
5		45000	1,61	27941,46	29078,68
6		50000	1,77	28223,70	57302,37
Jami	-100000,0	225000		157302,37	57302,37

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, pul oqimlari to'g'ri baholangan holatda loyiha bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlarni to'liq qoplash (taxminan 4-yil oxirida) imkonini beradi. Shuningdek, NPV (57302,37)ga teng birlikda qo'shimcha foyda olish imkonini beradi.

Ko'p sonli tadqiqotlar ko'rsatib beradiki, NPV ko'rsatkichi belgilangan davr mobaynida pul mablag'lari kirimi va chiqib ketishi o'rtasidagi munosabatni o'zida aks ettiradi, shuningdek, amalga oshirilgan xarajatlarni qoplash va qo'yilmalarning berilgan daromadlilikiga me'yoriga erishishi haqida tasavvur beradi.

NPV mutlaq ko'rsatkich sifatida o'zaro jamlash xususiyatiga ham ega. Ya'ni turli loyihalar bo'yicha NPV lar o'zaro jamlanishi mumkin:

$$NPV (A,B,C)= NPV (A)+ NPV (B)+ NPV (C).$$

Mazkur mezonning muhim xususiyatlaridan biri sifatida kelib tushgan mablag'larni reinvestitsiyalash stavkasi bo'yicha aniq taxmini keltirish mumkin. NPV metodida loyihani amalga oshirishdan kelib tushadigan mablag'lar korxonaga uchun ka'italning o'rtacha tortilgan qiymatini anglatuvchi berilgan diskont me'yori ( $r$ ) bo'yicha reinvestitsiyalanishi aniq belgilab berilmaydi.

NPV metodi loyihani amalga oshirish natijasida korxonaning qiymati o'zgarishi haqida fikr yuritish imkonini beradi. Shuningdek, NPV ko'rsatkichining qo'llanilishi orqali taqqoslama baholash mutlaq miqdorlarni taqqoslashning murakkabligi kabi amaliyotda har doim ham qulay emas.

Daromadlilikning ichki me'yori (*Internal Rate of Return – IRR*) investitsiyalar samaradorligini baholashda keng foydalaniladigan mezon hisoblanadi.

*Daromadlilikning ichki me'yori* tushunchasi NPV nolga teng bo'lganda, investitsion loyiha bo'yicha pul oqimlarining sof joriy qiymatini aniqlashga xizmat qiluvchi diskontlashning koeffitsientlari yoki foiz stavkalarini anglatadi.

Daromadlilikning ichki me'yori quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$NPV = \sum_{t=0}^n \frac{CF_t}{(1 + IRR)^t} = \sum_{t=0}^n \frac{CIF_t}{(1 + IRR)^t} - \sum_{t=0}^n \frac{COF_t}{(1 + IRR)^t} = 0$$

Bu tenglama matematik ifodalardan foydalanish orqali *IRR*ni aniqlash imkonini beradi. Bunda  $NPV=0$  ekanligini, ya'ni dastlabki xarajat va 'ul tushumlari o'zaro miqdori teng ekanligini unutmaslik lozim.

Umumiy holda *IRR* noldan yuqori bo'lsa investitsiyalar iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Qaror qabul qilish jarayonida *IRR* miqdori investor tomonidan talab qilinadigan daromadlilik stavkasiga nisbatan solishtiriladi. Bunda agar  $IRR > r$  bo'lsa, loyiha ijobiy NPVni va daromadlilikni ta'minlaydi. Agarda  $IRR < r$  bo'lsa, xarajatlardan daromadlardan oshib ketadi va loyiha foydali hisoblanmaydi.

Investitsion loyihalarni baholashda *IRR* ko'rsatkichi qator ijobiy xususiyatlarga ega. Birinchidan, mazkur ko'rsatkich loyihalarni moliyalashtirish uchun jalb qilinadigan manbalarga to'lovlarning maksimal stavkasi sifatida ko'rib chiqiladi.

Ikkinchidan, *IRR*ning belgilanishi investitsion xarajatlardan foydaliligining minimal stavkasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Agarda bu ko'rsatkich kapital o'rtacha qiymatidan yoki ma'lum bir tarmoqdagi daromadlilik me'yoridan yuqori bo'lsa, loyiha amalga oshirish uchun tavsiya qilinishi mumkin.

Uchinchidan, daromadlilikning ichki me'yorini investitsiyani qoplashning chegaraviy darajasi sifatida amal qilishini ta'kidlash lozim. Mazkur mezon loyihaga qo'shimcha kapital qo'yilmalar amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini belgilab beradi.

Yuqoridagi misol bo'yicha *IRR* 26 foizga teng. Shunday ekan, olinayotgan natija diskont me'yoridan yuqori va *IRR* mezoniga ko'ra, loyiha qabul qilinishi tavsiya etiladi. Mazkur holatda operatsiya bo'yicha samaradorlik  $26\% - 10\% = 16\%$ ni tashkil etadi.

Investitsion tahlilda foizlarda aks etadigan *IRR* ko'rsatkichi NPV ko'rsatkichiga nisbatan foydalanish uchun juda qulay hisoblanadi.

Mazkur amaliyotda nisbiy miqdorlar natijani aniqroq ko'rsatib beradi.

*IRR* mezonining axborot uchun belgilanishining asosiy sababi amaliyotda uning ommabopligi va tushunarligi hisoblanadi. Ko'p sonli xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 75 foiz moliyaviy direktorlar deyarli har doim investitsiyalar samaradorligini baholashda mazkur ko'rsatkichdan foydalanadi.

#### **6.4. Xo'jalik subyektining investitsion jozibadorligi tahlili**

Investitsion jozibadorlikni baholashning jahon amaliyotida tartib-taomillar belgilanligiga 40 yildan oshdi. Bu yo'nalishda Garvard biznes maktabining dunyo mamlakatlarining investitsion jozibadorligi tadqiqotini alohida keltirib o'tish lozim. Ushbu tadqiqotda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ekspert baholash ko'rsatkichlari belgilangan va ular quyidagi guruhlar bo'yicha tarkiblangan: xorijiy va mahalliy investorlar uchun qonunchilik shartlari, kapitalni qaytarish imkoniyati, milliy valyuta holati, siyosiy holat, inflyatsiya darajasi, milliy

kapitaldan foydalanish imkoniyati. Biroq, mazkur ko‘rsatkichlar doirasi sharoitlar kompleksini to‘liq aks ettirish uchun yetarli emas<sup>69</sup>.

Investitsion jozibadorlik tushunchasiga xorijlik va iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ilmiy ta’riflarni tadqiq etamiz(6.2-jadval).

## 6.2-jadval

### Korxonalarining investitsion jozibadorligi haqidagi tushunchalar

Mualliflar	Ta’rif
1	2
V.A.Tolmachev	Investitsion jozibadorlik korxonaning investitsion rivojlanishining ma’lum bir yo‘nalishini ifoda etadigan dinamik kategoriya.
I.I.Royzman	Investitsion jozibadorlik asosiy kapitalga investitsiyalarning potentsial talabini asoslab beradigan turli obyektiv belgilar, xususiyatlar, imkoniyatlarning yig‘indisidir.
I.A.Blank	Investitsion jozibadorlik ma’lum bir investor nuqtai nazaridan alohida yo‘nalishlari va obyektlariga investitsiya qilishning afzalliklari va kamchiliklarining umumlashgan tavsifidir.
M.N.Kreynina	Korxonaning investitsion jozibadorligi kapital daromadliligi, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasi, mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida korxonada mulkidan samarali foydalanish, uning to‘lovga qobiliyati, moliyaviy holati barqarorligi, uning o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini ifodalaydigan iqtisodiy kategoriyadir.
N.Yu.Tryastsina	Korxonaning investitsion jozibadorligi investor uchun investitsion harakatning afzal qiymatini aniqlaydigan uning faoliyatining kompleks ko‘rsatkichlaridir.

1	2
V.V.Allaverdyan	Korxonaning investitsion jozibadorligi bu birinchi navbatda, korxonaning “investitsiyalarni qabul qilish” va undan mohirona foydalanish qobiliyatini inobatga olgan holda real investorda tijorat yoki boshqa qiziqish uyg‘otish imkoniyatidir.
D.V.Veselov	Korxonaning investitsion jozibadorligi korxonaning investitsiya kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan risklar va kelgusi moliyaviy samaraning o‘zaro nisbatidir.

<sup>69</sup> Адамайгис Л.А., Агапитова Е.Л. Применение сравнительной рейтинговой оценки в анализе инвестиционной привлекательности предприятия. Экономический анализ: Теория и практика. №41, 2011, 8 стр.

E.A.Dmitrieva	Investitsion jozibadorlik - investitsiya obyektining ma'lum bir xavf darajasida investitsiyalarning daromadlilikini ta'minlash qobiliyatidir. U investitsion potentsial va investitsion xavf omillarining bir vaqtdagi o'zaro harakati bilan belgilandi.
B.Mamatov	Investitsiyaviy jozibadorlik mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan korxonalar investitsiyalarining daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va investitsiya xatari darajasi nuqtai nazaridan baholanishidir.
D.Islamov	Kompaniyaning investitsion jozibadorligi – bu uning holatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar va tashqi omillar majmui bo'lib, ular asosida potentsial investor kompaniyangizga pulini yo'qotish yoki tegishli daromad ololmaslik xatarisiz pulini tika oladigan bo'ladi.

Investitsion jozibadorlik tushunchasiga ta'rif berishda ikki xil yondoshuv mavjud. “Investitsion jozibadorlik” tushunchasiga faqatgina investor manfaatidan kelib chiqib (Blank I.A., Tryastsina N.Yu., Allaverdyan V.V.) baho berish, ikkinchi yondoshuv investor va mulkdor manfaatini (Tolmachev V.A., Royzman I I., Kreynina M.N., Veselov D.V., Islamov D.) qamrab olgan.

M.Yu.Raximov fikriga ko'ra, “Investitsion jozibadorlik bu - investitsiya obyektini miqdor va sifat ko'rsatkichlarida, moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlarda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar ta'sirida baholanishidir”<sup>70</sup>.

Bizning fikrimizcha, “Investitsion jozibadorlik – bu moliyaviy va nomoliyaviy axborotlar asosida xo'jalik subyektiga investitsiyalar oqimini baholash maqsadida uning moliyaviy holatiga baho berishdir”.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsion jozibadorlik tahlilining maqsadi korxonaning joriy va kelgusi holatini aniqlash, korxonalar ish samaradorligini

takomillashtirish yo'llarini shakllantirish, investitsiyalarni o'zlashtirish va qo'yilmalar jozibadorligini takomillashtirishdan iboratdir.

<sup>70</sup> Raximov M.Yu. Moliyaviy hisobot tahlili. Darslik. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2021.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun investitsion jozibadorlik tahlilining vazifalari quyidagilardan iborat:

Investitsiya obyektining investitsiyaga muhtojligini o‘rganish;

Investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini aniqlash;

Investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish.

Bir qancha xalqaro tashkilotlar, jumladan “Finansi» guruhi, KPMG xalqaro auditorlik tashkiloti mutaxassislari tomonidan investitsion jozibadorlik borasida tadqiqotlar o‘tkazib, investitsion jozibadorlikka ta’sir etuvchi mezonlar va uni baholash mezonlari tadqiq etilgan.

Iqtisodchi olim M.Q.Pardaev tahlil orqali korxonaning moliyaviy ahvoli, uning istiqboli aniq va ravshan bo‘lishini ta’kidlagan. Uning fikricha, barcha ijobiy natijalar bo‘lsa, albatta tashqi investorlar xabardor bo‘lishi lozim. Lekin, qaysi ko‘rsatkichlarni, qachon va qanday holatda oshkor qilish muhimligini hamma ham hamisha bilavermasligini aytib o‘tgan<sup>71</sup>.

Iqtisodchi olimlar L.A.Adamaytis, E.L.Agapitova korxonaga investitsion jozibadorligini tahlil etish uchun shartli ravishda  $K_1$ ,  $K_2$ ,  $K_3$  deb belgilangan vaziyatni ko‘rib chiqish tavsiya etadi<sup>72</sup>:

$K_1$  – joriy davrda korxonaga iqtisodiy ko‘rsatkichlari tizimi;

$K_2$  – investitsiya loyihasini amalga oshirmasdan korxonaga iqtisodiy ko‘rsatkichlari tizimi (bir yildan keyingi prognoz qiymat);

$K_3$  – investitsiya loyihasini amalga oshirgandan keyingi korxonaga iqtisodiy ko‘rsatkichlari tizimi (hisobot yilida investitsiya loyihasini amalga oshirgach bir yildan keyingi prognoz qiymat).

---

<sup>71</sup> Pardaev M.Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand, 2001, 323 b.

<sup>72</sup> Адамайтис Л.А., Агапитова Е.Л. Применение сравнительной рейтинговой оценки в анализе инвестиционной привлекательности предприятия. Экономический анализ: Теория и практика. №41, 2011, 8 стр.

Iqtisodchi olimlar xo‘jalik subyekting investitsion jozibadorligini baholash, unda foydalaniladigan moliyaviy koeffitsientlar bo‘yicha turli yondoshuvlarni tavsiya qiladilar(6.3-jadval).

**6.3-jadval**

**Xo‘jalik subyekting investitsion jozibadorligi tahlilida moliyaviy koeffitsientlardan foydalanish bo‘yicha yondoshuvlar**

<b>№</b>	<b>Mualliflar</b>	<b>Moliyaviy koeffitsientlar</b>
	<b>1</b>	<b>2</b>
1.	Raximov M.Yu. <sup>73</sup>	Likvidlik koeffitsienti
		Kompaniya mulk holati ko‘rsatkichi
		Korxonona ish faolligi
		Moliyaviy qaramligi
		Rentabellik
2.	Kasabyan L.R. <sup>74</sup>	Sotish rentabelligi, %
		Aktivlar rentabelligi, %
		Xususiy kapital rentabelligi, %
		Ishlab chiqarish fondlari rentabelligi, %
		Joriy likvidlilik
		Tez likvidlilik
		Mutloq likvidlilik
		O‘z oborot mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti
		Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti
		Majburiyatlarni qoplash koeffitsienti
		To‘lovga qobiliyatlilik koeffitsienti
		Moliyaviy risk koeffitsienti
		Moliyaviy qaramlik koeffitsienti
		Qarz kapitalini konsentratsiya qilish koeffitsienti
		Xususiy kapitalning manevrlilik koeffitsienti
		Qarz mablag‘larini uzoq muddatga jalb qilish koeffitsienti
Innovatsion aktivlik koeffitsienti		
Korxonaning bozor ulushi		
3.	Adamaytis L.A., Agapitova	Rentabellik ko‘rsatkichlari
		Ish aktivligi ko‘rsatkichlari
		Likvidlilik koeffitsientlari

<sup>73</sup> Raximov M.Yu. Moliyaviy hisobot tahlili. Darslik. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2021.

<sup>74</sup> Касабян Л.Р. “Оценка и пути повышения инвестиционной привлекательности предприятия (на примере ООО «ПЛАСТ». Бакалаврская работа. Тольятти, 2019.

	E.L. <sup>75</sup>	Investitsiyalash uchun moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari
		Moliyaviy holat tashxisi va bankorlik riski ko‘rsatkichlari

	1	2
4.	Sultonov I.A. <sup>76</sup>	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti
		Moliyaviy rqchag
		Umumiy qoplash koeffitsienti
		Oraliq qoplash koeffitsienti
		Mutlaq qoplash koeffitsienti
		Sotish rentabelligi koeffitsienti
		Asosiy faoliyat rentabelligi koeffitsienti
5.	Bezrukova T.L. va b. <sup>77</sup>	Moliyaviy barqarorlik
		Kapital foydaliligi
		Aktivlar aylanuvchanligi
		Aktivlar likvidliligi
6.	Mudrexа N.V. <sup>87</sup>	Joriy likvidlilik koeffitsienti
		Mutloq likvidlilik koeffitsienti
		Zaxiralarni o‘z oborot mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti
		Debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligi koeffitsienti
		Debitorlik majburiyatlari likvidligi koeffitsienti
		O‘z moliyalashtirish manbalari bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti
		Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti
		Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti
		Sotish rentabelligi
		Aktivlar aylanuvchanligi koeffitsienti

Shuningdek, L.A.Adamaytis, E.L.Agapitova tomonidan korxonа investitsion jozibadorligining qo‘shimcha mezonlari sifatida bir necha qo‘shimcha ko‘rsatkichlarni o‘rganish tavsiya etiladi:

<sup>75</sup> Адамайтіс Л.А., Агапітова Е.Л. Применение сравнительной рейтинговой оценки в анализе инвестиционной привлекательности предприятия. Экономический анализ: Теория и практика 41 (248) – 2011.

<sup>76</sup> Султанов И.А. Вопросы инвестиционной привлекательности компании. <http://www.projectimo.ru>

<sup>77</sup> Безрукова Т.Л. Шанин И.И. Зиборова Я.С. Факторы оценки инвестиционной привлекательности.

Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 3 (часть 3) – С. 415-418.

<sup>87</sup>Мудреха Н.В. Анализ и оценка инвестиционной привлекательности предприятия в современных условиях на примере ООО «КМК». Журнале научных публикаций аспирантов и докторантов. ISSN 1991-3087. 2016.

korxonada mahsulotga talab va taklifning nisbati; mahsulotning jozibadorligi; hudud bozorida korxonaning ulushi; xodimlar sonining o'zgarishi; sof tushum tarkibida ekologik qoidabuzarliklar uchun to'lovlarning ulushi; investitsion faollik;

korxonada bozor aktivligini baholash; menejment.

Janubiy-G'arbiy Davlat Universiteti (RF) tomonidan "Investitsion tahlil" fani bo'yicha tayyorlangan ma'ruza to'plamida investitsion jozibadorlikni moliyaviy koeffitsientlar asosida tahlil qilish batafsil keltirilgan:

#### 6.4-jadval

##### Parametrlarni ballik baholash

№	Ko'rsatkichlar / Baholash	Yaxshi	Qoniqarli	Mumkin bo'lgan qiymat	Qoniqarsiz	Nihoyatda qoniqarsiz
1.	Sotish rentabelligi, %	>20	5-20	0-5	-20-0	<-20
2.	Aktivlar rentabelligi, %	>15	5-15	0-5	-10-0	<-10
3.	Xususiy kapital rentabelligi, %	>45	15-45	0-15	-30-0	<-30
4.	Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti	<20	20-30	30-45	45-60	>60
5.	Oborot mablag'lar rentabelligi, %	>30	10-30	0-10	-20-0	<-20
6.	Joriy likvidlilik	>1,3	1,15-1,3	1-1,15	0,9-1	<0,9
7.	Tez likvidlilik	>1	0,8-1	0,7-0,8	0,5-0,7	<0,5
8.	Mutloq likvidlilik	>0,3	0,2-0,3	0,15-0,2	0,1-0,15	<0,1
9.	O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti	>22	12-22	0-12	-11-0	<-11
10.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, %	>50	20-50	10-20	3-10	<3

Ekspert tadqiqotlari asosida investitsion jozibadorlikni reyting baholash parametrlarini ballik baholash tizimi ishlab chiqilgan.

Baholash:

“yaxshi” – 2 ball;

“qoniqarli” – 1 ball;

“mumkin bo‘lgan qiymat” – 0 ball;

“qoniqarsiz”- minus ball;

“nihoyatda qoniqarsiz” – minus 2 ball.

Yig‘ilgan ball miqdoriga qarab ranjirlash o‘tkazilishi, korxonaning investitsion jozibadorlik bo‘yicha reytingi tuzilishi haqida yozilgan, biroq metodika keltirilmagan.

Bizning fikrimizcha, ayrim moliyaviy koeffitsientlarning me‘yori noto‘g‘ri belgilangan. Jumladan, xususiy kapital rentabelligining 45% dan, o‘z oborot mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsientini 22 dan yuqori bo‘lishini ta‘minlash mushkuldir.

V.N.Mudrexa tomonidan investitsion jozibadorlikni miqdor va sifat omillari(ko‘rsatkichlari) asosida baholash metodikasi tavsiya etilgan.

## 6.5-jadval

### Miqdor omillari tahlili<sup>78</sup>

<b>№</b>	<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>Me‘yor darajasi</b>
1.	Joriy likvidlilik koeffitsienti	Optimal 1,5. 2 dan kichik emas.
2.	Mutloq likvidlilik koeffitsienti	0,1-0,7
3.	Zaxiralarni o‘z oborot mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti	0,6-0,8
4.	Debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligi koeffitsienti	Ijobiy dinamika xaridorlar intizomining yaxshilanganligini bildiradi.
5.	Debitorlik majburiyatlari likvidligi koeffitsienti	-
6.	O‘z moliyalashtirish manbalari bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti	>0,1
7.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	0,4-0,6
8.	Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti	>=0,6
9.	Sotish rentabelligi	Sof tushumning foydaga aylangan qismini ifodalaydi.
10.	Aktivlar aylanuvchanligi koeffitsienti	Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligining tezlashishi ularning oborotdan bo‘shashiga olib keladi.

<sup>78</sup> Mudrexa H.B. Анализ и оценка инвестиционной привлекательности предприятия в современных условиях на примере ООО «КМК». Журнале научных публикаций аспирантов и докторантов. ISSN 1991-3087. 2016.

Miqdor ko'rsatkichlari(moliyaviy koeffitsientlari) asosida tahlil etishda quyidagicha yondashuv beriladi: koeffitsientlar me'yor darajasida bo'lsa, 1 ball, me'yor darajasidan past bo'lsa 0 ball, maksimal 10 ball.

## 6.6-jadval

### Sifat omillari tahlili<sup>79</sup>

№	Korxonada faoliyati parametrlari	Omil miqdori	Ball
	1	2	3
1.	Korxonaning bozordagi faoliyati	50 yildan ko'p	5
		20-50 yil	4
		10-20 yil	3
		5-10 yil	2
		5 yildan kam	1
2.	Ta'minot bozorini egallashi bo'yicha raqobat darajasi	Korxonada bozorni monopollashtirilgan, umumiy realizatsiya hajmining 80-100%ini egallaydi	5
		Umumiy realizatsiya hajmining 50-80%ini egallaydi	4
		Umumiy realizatsiya hajmining 20-50%ini egallaydi	3
		Umumiy realizatsiya hajmining 5-20%ini egallaydi	2
		Umumiy realizatsiya hajmining 5%idan kam ulushini egallaydi	1
3.	O'zlashtirilmagan ta'minot bozorlariga chiqish imkoniyati	Yangi bozorga chiqishga deyarli kapital talab qilinmaydi.	5
		Bozorga chiqish xarajatlarini qoplash davri – 6 oygacha	4
		Bozorga chiqish xarajatlarini qoplash davri – 6 oydan 1 yilgacha	3
		Bozorga chiqish xarajatlarini qoplash davri – 1 yildan ko'proq	2
		Yangi bozorga chiqish imkoniyati yo'q.	1
4.	Mahsulot sifati haqida xaridorlar fikri	Ijobiy fikrlar salmog'i 85% dan yuqori	5
		Ijobiy fikrlar salmog'i 50% dan 85%gacha	4
		Ijobiy fikrlar salmog'i 30% dan 50%gacha	3
		Ijobiy fikrlar salmog'i 30% dan kam	2
		Ijobiy fikr yo'q.	1
5.	Korxonada xodimlariga nisbatan ijtimoiy	Hisobot davrida umuman mavjud emas	5
		Majburiyat muddati 15 kungacha, bir marta	4
		Majburiyat muddati 15 kundan ko'p, bir marta	3
		Majburiyat muddati 15 kungacha, 3 martadan ko'p	2

<sup>79</sup> Мудреца Н.В. Анализ и оценка инвестиционной привлекательности предприятия в современных условиях на примере ООО «КМК». Журнале научных публикаций аспирантов и докторантов. ISSN 1991-3087. 2016.

	moliyaviy majburiyatlarning (ish haqi) mavjudligi	Majburiyat muddati 15 kundan ko'p, 3 martadan ko'p	1
6.	Hamkorlar bilan xo'jalik aloqalari davomiyligi	Aloqalarning ko'p qismining davomiyligi 10 yildan ko'p Aloqalarning ko'p qismining davomiyligi 10 yildan kam Aloqalarning ko'p qismining davomiyligi 1 yildan kam	5 4-2 1
7.	Korxonaning menejmenti tavsifi	Lavozimga tayinlanishning shaffofligi, maxsus bilimning mavjudligi, rahbarlik lavozimlarida ko'p yillik ish staji Yuqoridagi shartlar bajarilmagan	5 4-1
8.	Korxonaning muayyan tarmoqqa mansubligi	Davlat miqyosida strategik muhimligi, unikal tarmoq Tarmoq strategik yoki unikal emas	5 4-1

	1	2	3
9.	Hududiy investitsion muhit	Hudud barcha parametrlar bo'yicha jozibador hisoblanadi	5
		Hududning o'rta darajadagi jozibadorligi	4
		Hududning qoniqarli darajadagi jozibadorligi	3
		Hududning past darajadagi jozibadorligi	2
		Hudud jozibador hisoblanmaydi	1
10.	Mamlakatning investitsion muhiti	Mamlakat barcha parametrlar bo'yicha jozibador hisoblanadi	5
		Mamlakatning o'rta darajadagi jozibadorligi	4
		Mamlakatning qoniqarli darajadagi jozibadorligi	3
		Mamlakatning past darajadagi jozibadorligi	2
		Mamlakat jozibador hisoblanmaydi	1

Sifat ko'rsatkichlari asosida tahlil etishda umumiy ko'rsatkichlar soni 10 ta bo'lib, 1 dan 5 ballgacha baholanadi.

Ushbu metodika bo'yicha investitsion jozibadorlikni baholashning yuqori balli 60 ball ( $IJ_{\max} = 10 * 5 + 10 * 1 = 60$ ), minimum 10 ballni ( $IJ_{\min} = 10 * 1 + 0 = 10$ ) tashkil etadi.

Bizning fikrimizcha, ayrim sifat ko'rsatkichlari va ularning mezonini qayta ko'rib chiqish lozim. Jumladan, investitsion jozibadorlikni baholashda korxonaning bozordagi faoliyatining 50 yildan ko'p bo'lishi qanchalik muhim? Ta'minot bozorini egallashi bo'yicha raqobat darajasining yuqori emasligi korxonaning investitsion jozibadorligini pasaytirishi o'rinlimi?

S.E.Elmirzaevga ko'ra, "...aktsiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini ta'minlashdagi eng muhim masalalardan biri axborotlar shaffofligi masalasidir.

Shundan kelib chiqqan holda barcha aktsiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlari asosida faoliyat ko‘rsatuvchi alohida reyting agentligini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda reyting agentligi faoliyati aynan aktsiyadorlik jamiyatlariga qo‘shimcha investitsiyalar jalb qilish maqsadida moliyaviy hisobotlar asosida alohida ko‘rsatkichlar, xususan moliyaviy barqarorlik va umumiy daromadlilik ko‘rsatkichlari, aktsiyalar daromadlilik darajasi hamda boshqa ko‘rsatkichlarni e‘lon qilib borishga qaratilishi lozim”<sup>80</sup>.

Tadqiqotlarimizdan natijasida investitsion jozibadorlikni moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida baholash bo‘yicha o‘z yondoshuvimizni keltiramiz.

### 6.7-jadval

#### Investitsion jozibadorlikni baholash metodikasi

№	Ko‘rsatkichlar	Me‘yor	Ball	Me‘yor	Ball	Me‘yor	Ball
1.	Aktivlar rentabelligi, %	>5	10	>2,5	5	0	0
2.	Xususiy kapital rentabelligi, % (O <sub>i</sub> – o‘rtacha omonat stavkasi)	>O <sub>i</sub>	10	>0,5O <sub>i</sub>	5	<O <sub>i</sub>	0
3.	Tez likvidlilik koeffitsienti	>1	10	>0,5	5	0	0
4.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	>0,5	10	>0,25	5	<0,25	0
5.	Debitorlik majburiyatlarini aylanish koeffitsienti	>4	10	>2	5	<2	0
6.	Kreditorlik majburiyatlarini aylanish koeffitsienti	>4	10	>2	5	<2	0
7.	TMZ aylanish koeffitsienti	>4	10	>2	5	<2	0
8.	Asosiy vositalarning eskirishi koeffitsienti	<0,5	10	<0,7	5	>0,7	0
9.	O‘z oborot mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti	>0,2	10	>0,1	5	<0,1	0
10.	Pul mablag‘larining jami aktivlardagi ulushi, %	>10	10	>5	5	<5	0
11.	Debitorlik majburiyatlarining jami aktivlardagi ulushi, %	<20	10	>20	5	>40	0
12.	Tovar-moddiy zaxiralarning jami aktivlardagi ulushi, %	<30	10	>30	5	>50	0

<sup>80</sup> Elmiraev S.E. Aktsiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini ta‘minlashning ayrim masalalari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. №1, fevral, 2017 yil.

13.	Uzoq muddatli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi, %	<40	10	>40	5	>60	0
14.	CVP analiz	$SF_{o'} > ST_{o'} > A_{o'}$	10	$SF_{o'} < ST_{o'} > A_{o'}$	5	$SF_{o'} < ST_{o'} < A_{o'}$	0
15.	Bitta aktsiyaga to'g'ri keladigan foyda	Dinamik o'sish mavjud	10	Dinamik o'zgarish yo'q	5	Dinamik pasayish	0

Moliyaviy ko'rsatkichlar soni 15 ta bo'lib, maksimal 150 ball(15\*10, har bir ko'rsatkich bo'yicha maksimal ball - 10).

Ko'rsatkichlar bo'yicha olingan natijalarni ranjirlashni amalga oshiramiz:

### 6.8-jadval

#### Umumiy baholash

№	Umumiy ball	Xulosa	Izoh
1.	0-83	Qoniqarsiz	Investitsion jozibadorlik darajasi past
2.	84-107	Qoniqarli	Investitsion jozibadorlik darajasi o'rtacha
3.	108-150	Yaxshi	Investitsion jozibadorlik darajasi yaxshi

Ushbu metodika bo'yicha aksionerlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini tahlil qilamiz(6.9-jadval):

### 6.9-jadval

#### Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion jozibadorligini baholash

№	Ko'rsatkichlar	O'zkimyo sanoat AJ	Ball	O'zsalaman AJ	Ball	O'zR tovarxomashyo birjasi	Ball
1.	Aktivlar rentabelligi, %	2,48	5	0,27	5	3,63	5
2.	Xususiy kapital rentabelligi, %	2,52	0	0,38	0	65,44	10
3.	Tez likvidlilik koeffitsienti	15,27	10	1,48	10	1,05	10
4.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	0,98	10	0,71	10	0,05	0
5.	Debitorlik majburiyatlarini aylanish koeffitsienti	0	0	1,34	0	28,03	10
6.	Kreditorlik majburiyatlarini aylanish koeffitsienti	0	0	1,48	0	0,01	0
7.	TMZ aylanish koeffitsienti	0	0	2,37	5	420,77	10
8.	Asosiy vositalarning eskirishi koeffitsienti	0,35	10	0,92	0	0,43	10
9.	O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti	0,93	10	0,67	10	0,04	0

10.	Pul mablag'larining jami aktivlardagi ulushi, %	0,85	0	0,68	0	98,56	10
11.	Debitorlik majburiyatlarining jami aktivlardagi ulushi, %	1,66	10	41,68	0	0,27	10
12.	Tovar-moddiy zaxiralarning jami aktivlardagi ulushi, %	0,04	10	17,79	10	0,001	10
13.	Uzoq muddatli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi, %	96,42	0	11,5	10	1,16	10
14.	CVP analiz	130>0<102	0	283<106<129	0	147<161<175	0
15.	Bitta aktsiyaga to'g'ri keladigan foyda	Dinamik o'sish mavjud	10	Dinamik o'zgarish yo'q	5	Dinamik pasayish	0
Jami		x	75	x	65	x	95

Jadval ma'lumotlari asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion jozibadorligiga baho beradigan bo'lsak, moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlari va muhim faktlardan olingan ma'lumotlar asosida turli natijalarga erishilganligini kuzatish mumkin. O'z kimyo sanoat AJ ning hisobot davrida (2021 yil) 75 ball jamlagan, bu xo'jalik subyektining investitsion jozibadorligi qoniqarsiz holatda ekanligini ko'rsatadi. Bunga korxonada aktivlarining nomaqbul joylashganligi, korxonada mahsulot sotish bo'yicha moliyaviy natijaviylik ko'rsatkichlarining mavjud emasligi sabab bo'lgan.

Tahlil natijalari asosida O'z salaman AJ ning 65 ball jamlaganini, uning investitsion jozibadorligi qoniqarsiz holatda ekanini ko'rish mumkin. Bu holatga rentabellik ko'rsatkichlari darajasining pastligi, asosiy vositalar eskirish darajasining yuqoriligi va xo'jalik subyektining aktivlarining nomaqbul joylashtirilganligining oqibatidir.

Shuningdek, O'z R tovar-xomashyo birjasining moliyaviy ko'rsatkichlari asosida jamlagan balli 95 ni tashkil etadi. Bu holat xo'jalik subyektining investitsion jozibadorligi qoniqararli holatda ekanligini anglatadi. Ish aktivligi ko'rsatkichlarining me'yor darajasidan katta tafovutga ega ekanligi, joylashtirilgan aktivlar o'sish sur'atining moliyaviy natijaviylik ko'rsatkichlari o'sish sur'atidan yuqoriligi borasida tegishli qarorlarning qabul qilinishi investitsion jozibadorlik holatining yanada ijobiy ko'rinishga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Investor investitsiya kiritilgunga qadar va investitsiya kiritilgan davrdan keyingi investitsion jozibadorlik darajasini alohida tahlil etishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonlarda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar turlicha bo‘lishi maqbul holatdir.

Biroq shuni nazarda tutish lozimki, faqat moliyaviy tahlil natijalari yakuniy qaror qabul qilinishi uchun yetarli axborot hisoblanmaydi.

Investitsion strategiyaning to‘g‘ri aniqlanishi va amalga oshirilishi xo‘jalik subyektining investitsion faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsion jozibadorlik darajasining yuqoriligi investitsiyalar oqimi va investorning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. O‘z navbatida xo‘jalik subyekti investitsion jozibadorligi darajasining oshishi hudud va mamlakat investitsion jozibadorligiga daxl etadi.

Investor har doim o‘z investitsion resurslarini to‘g‘ri yo‘naltirishga intiladi, puxta bo‘lmagan va asoslanmagan qarorlar yo‘qotishlarga olib kelishini biladi. Shu bois investor investitsion riskni kamaytirish maqsadida investitsion jozibadorlik tahlilini amalga oshiradi.

Investitsion jozibadorlikka ichki va tashqi omillar ta‘sir etishini inobatga olish lozim. Boshqaruv tizimi, mahsulot assortimenti, xo‘jalik subyekti moliyaviy holati, ishlab chiqarish diversifikatsiyasi va texnologiyasi, barqaror pul oqimi, xo‘jalik subyektining ochiqligi, moliyaviy hisobot ma‘lumotlarining oshkor etilishi ichki omillar qatoriga kiradi.

Tashqi omillar mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy muhit, tarmoq xususiyati, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tizimini o‘z ichiga oladi.

Odatda xo‘jalik subyektlari rahbarlari investitsion jozibadorlik masalalariga jiddiy e‘tibor qaratmaydi, investitsion jozibadorlikni tahlil etish va uning metodikasi iqtisodiy o‘shish va korxonalar rivojiga ta‘sir etishini hisobga olmaydi.

Forbes jurnali tomonidan ham korxonalar investitsion jozibadorligini baholashdagi muhim ko‘rsatkichlar tadqiq etilgan (6.10-jadval).

## 6.10-jadval

### Forbes jurnali tomonidan tavsiya etilgan korxonalar investitsion jozibadorligini baholash ko'rsatkichlar tizimi<sup>81</sup>

№	Ko'rsatkichlar	Izoh
1.	Sof tushum	Forbes jurnali ekspertlari fikriga ko'ra, agar kompaniya tushumi oxirgi 12 oyda 5-600 mln dollar oralig'ida bo'lsa, jozibador hisoblanadi.
2.	Kompaniya bir aktsiyasining narxi	Agar aktsiya narxi 5 dollardan oshadigan bo'lsa, kompaniyani investor uchun jozibador hisoblash mumkin.
3.	Kapital daromadliligi	Ushbu ko'rsatkichning investitsion jozibadorlik nuqtai nazaridan 5% bo'lishi ijobiydir.
4.	Korxonaning sof rentabelligi	Ko'rsatkich darajasining 5% dan oshishi kompaniya investitsion jozibadorligidan darak beradi.

Forbes jurnali tomonidan tadqiq etilgan ro'yxatni tadqiqotchilar Akhilesh Chandra va Alan Reinstein bir necha yangi ko'rsatkichlar bilan to'ldirishdi:

1. kompaniyaning kapital daromadliligi qiymati;
2. sof tushumning o'sish surhati;
3. sof foyda;
4. sof foydaning o'sish surhati;
5. kompaniyaning bir aktsiyasiga to'g'ri keladigan daromad;
6. besh yil uchun bir aktsiyaga to'g'ri keladigan foydaning o'sish surhati;
7. kompaniya pul oqimining o'sish darajasi;
8. balans qiymatida qarz mablag'larining ulushi;
9. "narx/foyda" koeffitsienti, kompaniyaning bozor kapitalizatsiyasini yillik foydaga nisbati;
10. investitsiyalar rentabelligi;
11. kompaniyaning bozor qiymati;

<sup>81</sup> Штефан М.А. «Формирование многофакторного критерия оценки инвестиционной привлекательности организации». Финансы и кредит. №3, 2015, 11 стр.

12. dividend daromadliligi, aksiyalar bo'yicha dividendning ularning bozor bahosiga nisbati;

13. kompaniya bir aksiyasining balans qiymati.

Xo'jalik subyekti investitsion jozibadorlik tahlilini amalga oshirish orqali o'zining zaif tomonlarini aniqlashi, ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan tadbirlar ishlab chiqish, shuningdek raqobatbardoshlik imkoniyatlarini oshirish imkonini beradi.

Investitsion jozibadorlikning baholashning asosiy mezoni moliyaviy hisobotlar ma'lumotlari asosida hisoblanadigan miqdoriy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, sifat ko'rsatkichlar investorlarning qarorlariga ta'sir ko'rsatmaydi. Ta'kidlash lozimki, Akhilesh Chandra va Alan Reinstein taklif etilgan mezonlar bo'yicha korxonalar investitsion jozibadorligini baholashning yagona modelini shakllantirmagan. Ular faqat ko'rsatkichlarning tebranishlarini ko'rib o'tadi.

I.A.Sultanov investitsion jozibadorlikni quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholashni tavsiya etadi (6.11-jadval):

**6.11-jadval**

**Investitsion jozibadorlikni baholash ko'rsatkichlari<sup>82</sup>**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Aniqlanishi</b>	<b>Me'yoriy darajasi</b>
<b>1 guruh</b>			
1.	Moliyaviy mustaqillik ko'effitsienti	$(O'MM - \text{Zarar}) / \text{BAJ}$	$> 0.5$
2.	Moliyaviy richag	$M / O'MM$	0.3-1.0
<b>2 guruh</b>			
1.	Umumiy qoplash ko'effitsienti	$(PM + QMM + DM + TMZ) / QMM$	$> 1.0$
2.	Oraliq qoplash ko'effitsienti	$(PM + QMM + DM) / QMM$	$> 0.6$
3.	Mutloq qoplash ko'effitsienti	$(PM + QMM) / QMM$	$> 0.1$
<b>3 guruh</b>			
1.	Sotish rentabelligi ko'effitsienti	$(YaFF / ST)$	$> 0.1$

<sup>82</sup> Султанов И.А. Вопросы инвестиционной привлекательности компании. <http://www.projectimo.ru>

2.	Asosiy faoliyat rentabelligi koeffitsienti	(YaFF/SMT)	>0.1
----	--------------------------------------------	------------	------

G.V.Savitskaya mol-mulklar tarkibini tasniflanishi bo'yicha o'z yondashuvini tavsiya etgan (6.12-jadval):

**6.12-jadval**

**Korxonalar aktivlarini moliyalashtirishga yondoshuvlar<sup>83</sup>**

Aktivlar turi	Ulushi, %	Moliyalashtirishga yondoshuv		
		Agressiv	Mo'tadil	Konservativ
Uzoq muddatli aktivlar	58,5	40% - UMQM	20% - UMQM	10% - UMQM
		60% - O'M	80% - O'M	90% - O'M
Aylanma aktivlarning doimiy qismi	23,0	50% - UMQM	25% - UMQM	100% - O'M
		50% - O'M	75% - O'M	
Aylanma aktivlarning o'zgaruvchan qismi	18,5	100% - QMQM	100% - QMQM	50% - O'M
				50% - QMQM

**Bu yerda:** UMQM – uzoq muddatli qarz manbalari; O'M – O'z manbalari; QMQM – Qisqa muddatli qarz manbalari.

G.V.Savitskaya tadqiqiga ko'ra, aylanma aktivlarning doimiy qismi korxonalar operatsion faoliyatini amalga oshirish uchun zarur minimum, uning miqdori mahsulot ishlab chiqarish va sotishning mavsumiy o'zgarish hajmiga bog'liq emas. U to'liq o'z va uzoq muddatli qarz manbalari hisobiga moliyalashtiriladi. Aylanma aktivlarning o'zgaruvchan qismi faoliyatning mavsumiy o'zgarish hajmiga bog'liq. Odatda qisqa muddatli qarz manbalari hisobiga moliyalashtiriladi.

Agar  $O'AM=O$  bo'lsa,  $AA=QMQM$ , ya'ni aylanma aktivlari to'liq qisqa muddatli qarz manbalari hisobiga moliyalashtiriladi. Agar  $O'AM>0$  bo'lsa,  $AA>QMQP$ , ya'ni aylanma kapitalni shakllantirishda o'z mablag'lari ham qatnashadi.

<sup>83</sup> Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник. Москва, Инфра-М, 2009, 538 стр.

Agar  $O'AM < 0$  bo'lsa,  $O'AM < QMQM$ , ya'ni korxonada o'z aylanma kapitalining yetishmovchiligi mavjud.

Shuningdek, M.Yu.Raximov, N.N.Kalandarova ham xo'jalik yurituvchi subyektlar raqobatda sinmasligi uchun mavjud mablag'larini to'g'ri joylashtirishi va boshqarishi muhimligini ta'kidlagan<sup>84</sup>.

Aktiv va uning manbalaring quyidagi strukturasi ta'minlashni tavsiya etamiz (6.13-jadval):

**6.13-jadval**

**Korxonalarda aktivlar va passivlarning optimal strukturasi**

<b>№</b>	<b>Mulk (Balans aktivi)</b>	<b>Strukturasi, %</b>	<b>№</b>	<b>Mulk manbasi (Balans passivi)</b>	<b>Strukturasi, %</b>
1.	Uzoq muddatli aktivlar	40	1.	O'z mablag'lari	50
2.	Tovar-moddiy qiymatliklar	30	2.	Uzoq muddatli majburiyatlar	30
3.	Debitorlar	10	3.	Qisqa muddatli majburiyatlar	20
4.	Pul mablag'lari	20	4.	Kreditorlar	20
	<b>Jami</b>	<b>100</b>		<b>Jami</b>	<b>100</b>

Tavsiya etilayotgan struktura korxonalar moliyaviy holati yaxshilanishi va investitsion jozibadorligini oshishiga xizmat qiladi.

Ko'pgina korxonalarda aylanma aktivlar tayyor mahsulot ko'rinishida to'planib qoladi. Bu raqobatning o'sishi, ta'minot bozorlarining yo'qotilishi,

subyektlar va aholining past xarid qobiliyati tufayli talabning kamayishi, mahsulot tannarxining yuqoriligi, ishlab chiqarish maromsizligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Korxonada tayyor mahsulot qoldig'ining oshishi oborot kapitalining uzoq muddat muzlatilishi, naqd pullarning bo'lmasligi, kreditlarga bo'lgan ehtiyojning oshishi, kreditorlik majburiyatlarining oshishiga olib keladi.

Debitorlik majburiyatlari uning undirilish davrining tezlashtirilishi hisobiga tezroq aylanishi lozim. Debitorlik majburiyatlarining oshishi har doim ijobiy, uning

<sup>84</sup> Raximov M.Yu., Kalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik. T.: «Iqtisod-moliya», 2019, 726 b.

kamayishi salbiy bo‘lmasligi mumkin. Bunda ularning muddati, aylanuvchanligiga e‘tibor qaratish lozim. Bugungi kunda korxonalarda debitorlik majburiyatlarining nihoyatda ko‘pligi bilan tavsiflanadi. Debitorlik majburiyatlarini kamaytirish yo‘llarini izlash orqali jami aktivlar tarkibida ularning ulushini kamayishiga erishish lozim. Zero, debitorlik majburiyatlarining ko‘pligi korxonalar mablag‘larining o‘z ixtiyorida tashqarida ekanligini bildiradi.

Bozor iqtisodiyotida jami manba tarkibida o‘z mablag‘larining yuqori summasi har doim ham ijobiy baholanmaydi. Qarz mablag‘idan oqilona foydalanish korxonaning egiluvchanligi, uning kredit mablag‘ini topish va qaytara olish imkoniyati, hamkorlik dunyosida uning ishonchga sazovor bo‘lishini anglatadi. Biroq, bizning fikrimizcha, korxonalarda jami manba tarkibida qarz kapitalining nihoyatda ko‘pligi uning moliyaviy mustaqilligi va investitsion jozibadorligiga jiddiy ta’sir etadi.

Shuningdek, majburiyatlar tarkibida aynan kreditorlik majburiyatlarining ko‘payib ketishi ham korxonalar faoliyat natijaviyligiga sezilarli ta’sir etadi. Negaki, uning holati xizmat ko‘rsatish jarayoni va uning boshqa tashkilotlar bilan bo‘ladigan oldi-sotdi munosabatlariga ta’sir etadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsion jozibadorligini oshirish va davlatxususiy sherikchiligini rivojlantirish uchun bir necha tadbirlarni amalga oshirish lozim:

mavjud qonuniy me‘yorlarni takomillashtirish; xususiy hamkorni o‘z majburiyatlarini bajarmaslik xavfini kamaytirish; ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini oshirish; korxonalar likvidliligi, moliyaviy barqarorlik, to‘lovga qobiliyatlilikni oshirish; tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Investitsiyalar va investitsion faoliyat tahlilining ahamiyati nimadan iborat?
2. Investitsiyalar va investitsion faoliyat tahlilining maqsadi haqida fikringizni bayon eting.

3. Investitsiyalar va investitsion faoliyat tahlilining vazifalari nimadan iborat?
4. Investitsiyalar va investitsion faoliyat tahlilining obyekti va subyektlari haqida gapiring.
5. Investitsion faoliyatning moliyaviy tahlili qanday amalga oshiriladi?
6. Investitsion faoliyat samaradorligini baholashning qanday usullari mavjud?
7. Xo‘jalik subyektining investitsion jozibadorligi tahlil qilish metodini tavsiflang.
8. Innovatsion jarayonlarning xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyat samaradorligiga ta’sirini baholang.

### **Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:**

**1-topshiriq.** Xo‘jalik yurituvchi subyektning investitsion jozibadorligiga ko‘rsatkichlar tizimi orqali baho bering.

<b>№</b>	<b>Ko‘rsatkichlar / Baholash</b>	<b>O‘tgan yili</b>	<b>Ball</b>	<b>Hisobot yili</b>	<b>Ball</b>	<b>O‘zgarishi</b>	<b>Ball</b>
1.	Sotish rentabelligi, %						
2.	Aktivlar rentabelligi, %						
3.	Xususiy kapital rentabelligi, %						
4.	Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti						
5.	Oborot mablag‘lar rentabelligi, %						
6.	Joriy likvidlilik						
7.	Tez likvidlilik						
8.	Mutloq likvidlilik						
9.	O‘z oborot mablag‘lari bilan ta’minlanganlik koeffitsienti						
10.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, %						
11.	Jami						

**Xulosa** \_\_\_\_\_

**2**

**topshiriq.** Xo‘jalik yurituvchi subyektning aktivlar va passivlar strukturasi investitsion jozibadorlikni o‘shidagi ahamiyatiga baho bering.

Mulk (Balans aktivi)	Yillar			Mulk manbasi (Balans passivi)	Yillar		
Uzoq muddatli aktivlar				O‘z mablag‘lari			
Tovarmoddiy qiymatliklar				Uzoq muddatli majburiyatlar			
Debitorlar				Qisqa muddatli majburiyatlar			
Pul mablag‘lari				Kreditorlar			
Jami				Jami			
Sof tushum o‘shisi, %				X	X	X	X
Sof foyda o‘shisi, %				X	X	X	X

**Xulosa**

---



---



---



---



---

7-

**bob. MOLIVAVIY HISOBOT TAHLILI ASOSIDA XO‘JALIK**

**SUBYEKTLARI MOLIVAVIY HOLATIGA KOMPLEKS BAHO BERISH**

**7.1. Xo‘jalik subyektlari moliyaviy holatiga kompleks baho berishda o‘rganiladigan ko‘rsatkichlar tizimi**

**7.2. Moliyaviy hisobot ma‘lumotlari asosida xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatini reyting baholash**

### **7.3. Xo‘jalik yurituvchi subyektning moliya-xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari**

#### **7.1. Xo‘jalik subyektlari moliyaviy holatiga kompleks baho berishda o‘rganiladigan ko‘rsatkichlar tizimi**

Bugungi kunda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatining kompleks tahlili juda dolzarb masala hisoblanadi. Moliyaviy holat o‘z faoliyatini moliyatirish imkoniyatini anglatadi. Moliyaviy holat miqdoran ko‘rsatkichlar tizimi bilan o‘lchanadi, uning asosida kompleks baholash amalga oshiriladi.

Moliyaviy holat korxonada iqtisodiy faoliyatining muhim tavsifidir. U raqobatbardoshlikni belgilaydi, korxonada va uning hamkorlarining iqtisodiy manfaatlari moliyaviy va ishlab chiqarish munosabatlarida qay darajada kafolatlanganligini baholaydi<sup>85</sup>.

Moliyaviy holat xo‘jalik yurituvchi subyekt barcha faoliyat turlarining natijasidir.

Korxonada moliyaviy holatini tahlil qilish va tashxis qo‘yish mulk egalarini faoliyat uchun xavfli bo‘lgan holatlardan ogoh etuvchi o‘ziga xos tizim hisoblanadi. Shu bois, korxonada rahbariyati iqtisodiy subyektlar bilan hamkorlikda antikrizis boshqaruvining muhim elementi sifatida korxonada moliyaviy holatini kompleks tahlil qilish tizimini joriy etishi lozim.

---

Xo‘jalik subyektlarining moliyaviy holatini tahlil qilish ishlab chikarish quvvatlari hamda moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasi, foydalanilmagan resurslarni aniqlash imkonini beradi.


---

<sup>85</sup> Бабушкина Е.А. Методика сравнительной рейтинговой оценки финансового состояния по данным финансовой отчетности как важнейший элемент антикризисного управления. Оренбургский государственный университет. <https://www.sworld.com.ua>

Kompleks tahlil korxonada sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarni iqtisodiy samaradorlikga erishish, uni amalga oshirish rejasini tuzish bilan bog‘liq tadbirlar majmuasidir.

Kompleks tahlilni o‘tkazishdan maqsad korxonada joriy muvaffaqiyatini kelgusi faoliyatini prognozlash uchun axborotlarni jamlashdir.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga kompleks baho berish uchun uning faoliyati bilan bog‘liq barcha ko‘rsatkichlar hisoblanishi va tahlil qilinishi lozim.



### 7.1-rasm. Korxonada moliyaviy holatini kompleks baholashni o‘tkazish bosqichlari<sup>86</sup>

Yakunlovchi bosqich korxonada moliyaviy holatini kompleks baholashni o‘tkazish mazmunini belgilaydi. U korxonani boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida xatoga yo‘l qo‘ymaslik va bankrotlikni chetlab o‘tish imkonini o‘z ichiga oladi.

### 7.1-jadval

### Kompleksni tahlilni o‘tkazish metodikasi<sup>87</sup>

<sup>86</sup> Данилов И.А., Кодеко В.Д. Комплексная оценка финансового состояния предприятия. "Colloquium-journal", #4(56), 2020.

<sup>87</sup> Савицкая, Г.В. Комплексный анализ хозяйственной деятельности предприятия [Текст]: учебник / Г.В. Савицкая. – 7-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 608 с.

Bosqichlar	Izoh	
1	Buxgalteriya balansi ma'lumotlarining tarkibi, tuzilishi va dinamikasini baholash	Gorizontal tahlil Vertikal tahlil
2	Korxonaga to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligi tahlili	Moliyaviy koeffitsientlar hisob-kitobi
3	Korxonaga ish aktivligi va rentabelligi tahlili	
4	Korxonaga moliyaviy holatini reyting baholash	

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini kompleks baholash:

xo'jalik yurituvchi subyektida resurslardan foydalanish va ularning holatini obyektiv baholash; moliyaviy holatga ta'sir etuvchi omillar, ularning sabablari; kapitalni shakllanishi va joylashtirilishining yo'nalish manbalarini o'rganish; xo'jalik faoliyatining samaradorligini oshirish va korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash bo'yicha rezervlarini aniqlash; investitsiyalar samaradorligini baholash; qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarini tayyorlash va asoslash; tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda strategiyani aniqlash imkonini beradi.

O.N.Bogatireva, T.V.Shmulevich talqiniga binoan, "kompleks iqtisodiy tahlil ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida korxonaga ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati natijalariga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama tizimli o'rganish, o'lchash, umumlashtirishni o'z ichiga oladi"<sup>88</sup>.

D.A.Suleymanova, L.A.Axmedova "moliyaviy-xo'jalik faoliyatining kompleks tahlili korxonaga iqtisodiy o'sishining davomiyligi va barqarorligi, iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligi, korxonaning mijozlar va raqobatchilar o'rtasidagi ahvoli va obro'si, turli risk va moliyaviy qiyinchiliklarni hisobga olgan

---

<sup>88</sup> Богатырева О.Н., Шмудевич Т.В. Комплексный анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебное пособие. Санкт-Петербург, 2016.

holda rivojlanishning imkoniyatlari va istiqbollari, korxonaning ijtimoiy mavqei, uning boshqa korxonalar o‘rtasida reytingini baholash imkonini beradi”<sup>89</sup>.

Turli ilmiy nashrlarda “kompleks iqtisodiy tahlil”, “moliyaviy holatni kompleks tahlili”, “moliyaviy-xo‘jalik faoliyatning kompleks tahlili” tushunchalari bir xil ma’nodan ifodalangan(7.2-jadval).

## 7.2-jadval

### Moliyaviy holatni kompleks tahlili tushunchasiga yondoshuvlar<sup>90</sup>

№	Muallif	Izoh
1.	G.V.Savitskaya	Korxonada moliyaviy holatini, shuningdek uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni kompleks tizimli o‘rganishdir.
2.	I.T.Balabanov	Tavsiya qilinadigan haqiqiy darajasiga muvofiqligi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda moliyaviy tahlil natijasida olingan har bir ko‘rsatkichni alohida o‘rganish, shuningdek ko‘rsatkichning bo‘lg‘usi istiqboli va unga erishish usullari uchun zarur miqdoriga ta’sir etadigan omillarni aniqlashdir.
3.	V.V.Kovalev	Salohiyatli foydalanuvchiga muayyan korxonada bilan bog‘liq boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qila oladigan tavsiyalar berishi mumkin bo‘lgan moliyaviy xarakterdagi axborotlarni identifikatsiya qilish, tizimga solish va analitik qayta ishlash jarayonidir.
4.	A.G.Gryaznova	O‘tgan davrda korxonaning mulkiy va moliyaviy holatini belgilash usullarining to‘plami, shuningdek uning kelgusidagi imkoniyatlari.
5.	T.S.Novashina	Xo‘jalik subyektining moliyaviy faoliyati haqidagi axborotni qayta ishlash uchun qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot metodi.

M.Yu.Raximov fikriga ko‘ra, “moliyaviy hisobotni kompleks tahlili tizimli yondashuv asosida korxonada moliyaviy holati, faoliyat natijalarini, pul mablag‘larini keng qamrovli va har tomonlama baho berishni xarakterlaydi”<sup>91</sup>.

Tadqiqotlarga tayangan holda bizning fikrimizcha, “korxonada moliyaviy-xo‘jalik faoliyati kompleks tahlili barcha resurslardan samarali foydalanish darajasi, moliyaviy

<sup>89</sup> Сулейманова Д. А., Ахмедова Л.А. Комплексная оценка и анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия. Евразийский международный научно-аналитический журнал. N 4 (36), 2010.

<sup>90</sup> Данилов И.А., Коденко В.Д. Комплексная оценка финансового состояния предприятия. «Colloquiumjournal»#4(56), 2020.

<sup>91</sup> Raximov M.Yu. Moliyaviy hisobot tahlili. Darslik. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2021.

holat barqarorligi, moliyaviy natijaviylikni keng qamrovli hamda tizimli yondoshuv asosida tahlil qilishni nazarda tutadi”.

---

“Moliyaviy hisobotlar asosida korxonada moliyaviy holatiga kompleks baho berish ularda aks ettirilgan axborotlarni o‘qish asosida joriy moliyaviy ahvolga baho berish hamda istiqbol yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi”.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini kompleks baholashning ikki yo‘nalishi mavjud:

moliyaviy holatni reyting baholash; moliyaviy koeffitsientlar asosida ballik baholash.

Korxonada moliyaviy holatini baholash samaradorligi nuqtai nazaridan moliyaviy koeffitsientlar:

maksimal axborot berishi va xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holati barqarorligi manzarasini aks ettirishi lozim; iqtisodiy mazmunda bir xil yo‘nalishga ega bo‘lishi lozim, jumladan muayyan koeffitsientning oshishi moliyaviy holatning yaxshilanishi, kamayishi yomonlashishini anglatishi lozim; imkon qadar minimal miqdoriy o‘lchamga ega bo‘lishi lozim; rasmiy axborot asosida hisoblash imkoni bo‘lishi lozim; tarmoq ichidagi xo‘jalik subyektlari ko‘rsatkichlari va davr bo‘yicha solishtirish imkonini berishi lozim.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatini ballik baholash moliyaviy koeffitsientlarning miqdori va ular bo‘yicha belgilangan ball asosida har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning ma’lum sinfga ajratish imkonini beradi<sup>92</sup>.

1 sinf – mutlaq moliyaviy barqaror va to‘lovga qobiliyatli xo‘jalik yurituvchi subyektlar. Ularda mulk va uning manbalarining strukturasi oqilona joylashtirilgan;

2 sinf – normal moliyaviy holatga ega xo‘jalik yurituvchi subyektlar. Undagi koeffitsientlar optimal miqdorga teng bo‘ladi, biroq ayrim koeffitsientlar bo‘yicha orqada qolishi mumkin. Kreditorlik qarzlarning boshqa qarz manbalari,

---

<sup>92</sup> Шеремет А. Д., Сайфулин Р. С., Негашев Е. В. Методика финансового анализа. — М.: ИНФРА-М, 2000; Кукукина И. Г., Астраханцева И. А. Указ. соч. — С. 43-46.

debitorlik majburiyatlari hajmining o'sish dinamikasi ga nisbatan ko'proq o'sishi kuzatiladi.

Odatda ular rentabelli xo'jalik yurituvchi subyektlardir.

3 sinf – o'rta moliyaviy holatdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar. To'lovga qobiliyatlilik minimal miqdorda, moliyaviy barqarorlik normal. Mazkur sinfda boshqa holat ham kuzatilishi mumkin: moliyalashtirishning qarz mablag'lari hisobiga nobarqaror moliyaviy holat, biroq joriy davrda to'lovga qobiliyatlilikni saqlab qolgan holda. Ushbu xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan o'z majburiyatlarini bajarish shubhali hisoblanadi.

4 sinf – nobarqaror moliyaviy holatdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar. Kapital strukturasi qoniqarsiz, to'lovga qobiliyatlilik past ko'rsatkichga ega. Odatda foydaga erishilmaydi.

5 sinf – krizis moliyaviy holatdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar. Moliyaviy nuqtai nazardan ular to'lovga qobiliyatsiz va mutlaq nobarqaror, shuningdek zarar ko'rib ishlaydi.

### 7.3-jadval

#### Moliyaviy holatni ballik baholash

Ko'rsatkichlar	Sinflar				
	1 sinf	2 sinf	3 sinf	4 sinf	5 sinf
Mutlaq likvidlilik ko'effitsienti	$\geq 0,7$ (14 ball)	0,5-0,69 (10-13,8 ball)	0,3-0,49 (6-9,8 ball)	0,1-0,29 (2-5,8 ball)	$< 0,1$ (0-1,8 ball)
Tez likvidlilik ko'effitsienti	$\geq 1$ (11 ball)	0,8-0,99 (7-10,8 ball)	0,7-0,79 (5-6,8 ball)	0,6-0,69 (3-4,8 ball)	$< 0,59$ (0-2,8 ball)
Joriy likvidlilik ko'effitsienti	$\geq 2$ (20 ball) 1,7-2 (19 ball)	1,5-1,69 (13-18,7 ball)	1,3-1,49 (7-12,7 ball)	1-1,29 (1-6,7 ball)	$< 0,99$ (0-0,7 ball)
O'z mablag'larining aktivlardagi ulushi	$\geq 0,5$ (10 ball)	0,4-0,49 (7-9 ball)	0,3-0,39 (4-6,5 ball)	0,2-0,29 (1-3,5 ball)	$< 0,2$ (0-0,5 ball)
O'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'effitsienti	$\geq 0,5$ (12,5 ball)	0,4-0,49 (9,5-12,2 ball)	0,2-0,39 (3,5-9,2 ball)	0,1-0,19 (0,5-3,2 ball)	$< 0,1$ (0,2 ball)

Kapitalizatsiya koeffitsienti	<0,7 (17,5 ball); 0,7-1 (17,1-17,4 ball)	1,01-1,22 (10,7-17 ball)	1,23-1,44 (4,1-10,4 ball)	1,45-1,56 (0,5-3,8 ball)	$\geq 1,57$ (0-0,2 ball)
Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	>0,5-0,6 (9-10 ball)	0,45-0,49 (6,4-8 ball)	0,4-0,44 (4,4-6 ball)	0,31-0,39 (0,8-4 ball)	<0,3 (0-0,4 ball)
Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti	>0,8 (5 ball)	0,7-0,79 (4 ball)	0,6-0,69 (3 ball)	0,5-0,59 (2 ball)	<0,49 (0-1 ball)
Sinflar chegarasi	100 (97,6 ball)	93,5 (67,6 ball)	64,4 (37 ball)	33,8 (10,8 ball)	100 (0 ball)

Koeffitsientlar hisob-kitobida me'yordan har 0,01 punkt kamayishga 0,3 ball chegiriladi va xo'jalik yurituvchi subyektlar sinflar bo'yicha guruhlariga ajratiladi:

1 sinf: 2 va undan ko'p – 20 ball; 1,7-2,0 – 19 ball;

2 sinf: 1,5-1,69 – 13-18,7 ball;

3 sinf: 1,3-1,49 – 7-12,7 ball;

4 sinf: 1-1,29 – 1-6,7 ball;

5 sinf: 0,99 va undan kichik – 0-0,7 ball.

G.V.Savitskaya 3 ta koeffitsient asosida korxonalar moliyaviy holatini baholash imkonini beradigan metodikani taklif etadi(7.4-jadval).

#### 7.4-jadval

##### Korxonalarni sinfini belgilash<sup>93</sup>

Ko'rsatkichlar	Mezonlarga muvofiq sinflar chegarasi				
	I sinf	II sinf	III sinf	IV sinf	V sinf
Umumiy kapital rentabelligi	$\geq 30$ (50 ball)	29,9-20 (49,9-35 ball)	19,9-10 (34,9-20 ball)	9,9-1 (19,9-5 ball)	<1 (0 ball)
Joriy likvidlilik koeffitsienti	$\geq 2$ (30 ball)	1,99-1,7 (29,9-20 ball)	1,69-1,4 (19,9-10 ball)	1,39-1,1 (9,9-1 ball)	$\leq 1$ (0 ball)
Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	$\geq 0,7$ (20 ball)	0,69-0,45 (19,9-10 ball)	0,44-0,3 (9,9-5 ball)	0,29-0,2 (4,9-1 ball)	<0,2 (0 ball)
Sinflar chegarasi	100	65-99	35-64	6-34	0-5

<sup>93</sup> Савицкая, Г.В. Комплексный анализ хозяйственной деятельности предприятия [Текст]: учебник / Г.В. Савицкая. – 7-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 608 с.

Tavsifi	Korxonaya xshimoliyaviy mustahkamlik zaxirasigaga	Qarzlarniqoplash bo'yichasezilarsizehtimollik, ya'ni risk mavjud	Korxonamuammoli hisoblanadi	Bankrotlikning yuqori riski mavjud	Korxonamoliyaviy nobarqaror
---------	---------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------	-----------------------------	------------------------------------	-----------------------------

Kompleks tahlilni o'tkazish tizimida moliyaviy tahlil muhim o'rin tutadi. Qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda tahlil o'tkazayotgan shaxs moliyaviy tahlilning turli metodlaridan foydalanadi. Bugungi kunda an'anaviy usullar bilan bir qatorda moliyaviy tahlilni o'tkazishda strategik tahlilning

zamonaviy usullari(SWOT tahlil, PEST tahlil, portfel tahlil, ekspert tahlil va b.)dan keng foydalanilmoqda.


Kompleks tahlil natijalari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati kengayadi. Uning asosida korxonafaoliyatini rivojiga to'siq bo'layotgan jihatlar o'rganiladi, foydalanilmayotgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, faoliyat samaradorligiga ta'sir etadigan ijobiy va salbiy omillar belgilanadi.

## **7.2. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatini reyting baholash**

Korxonareytingi ma'lum belgilar yoki ko'rsatkichlar asosida korxonaning tarmoq, mamlakat ichidagi o'rnini belgilashni anglatadi.

Umuman, korxonamoliyaviy holatini reyting baholash operatsion va moliyaviy faoliyatning barcha muhim ko'rsatkichlarini qamrab olgan holda bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi(7.1-rasm):

### Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash bosqichlari



#### 7.1-rasm. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash bosqichlari<sup>94</sup>

Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha yagona yondoshuv mavjud emas. Odatda moliyaviy holat tahlilida qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

A.D.Sheremet va b. reyting baholash metodikasida to'rtta guruh ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

xo'jalik faoliyati foydaliligini baholash ko'rsatkichlari;  
boshqaruv samaradorligini baholash ko'rsatkichlari; ish  
aktivligini baholash ko'rsatkichlari; likvidlilik va bozor  
barqarorligini baholash ko'rsatkichlari.

A.Sheremet va b. korxonalarni reyting baholashda quyidagi formulani tavsiya etishadi:

$$R = \sum_{i=1}^L \frac{1}{LN_i} K_i,$$

Bu yerda:

L – reyting baholashda qo'rsatkichlar miqdori;

N - i koeffitsientning me'yor darajasi; K –

i koeffitsient.

<sup>94</sup> Маркарян Э.А. Экономический анализ хозяйственной деятельности: учебник. М.: КНОРУС, 2015. 552 с.

Mazkur ko‘rsatkichning minimal darajasi 1 ga teng, 1 dan past bo‘lishi moliyaviy holatning qoniqarsizligin ifodalaydi.

## 7.5-jadval

### Korxonalarni reyting baholash ko‘rsatkichlari tizimi<sup>95</sup>

Mualliflar	Ko‘rsatkichlar tizimi
L.E. Basovskiy, E.N. Basovskaya	O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti
	Joriy likvidlilik koeffitsienti
	Aktivlar aylanuvchanligi koeffitsienti
	Sotish rentabelligi
	Xususiy kapital rentabelligi
N.P.Kondrakov	Avtonomiya koeffitsienti
	Xususiy kapitalning manevrliligi koeffitsienti
	Aylanma mablag‘larni o‘z manbalari bilan ta‘minlanganligi koeffitsienti
	Iqtisodiy o‘shning barqarorligi koeffitsienti
	Sof tushum koeffitsienti
L.V.Dontsova	Mutlaq likvidlilik koeffitsienti
	Tez likvidlilik koeffitsienti
	Joriy likvidlilik koeffitsienti
	O‘z moliyalashtirish manbalari bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti
	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti
	Zaxira va xarajatlarni shakllantirishdagi moliyaviy mustaqillik koeffitsienti

Sayfulin R.S., Kadikov G.G. moliyaviy holatni reyting baholashda bir qancha moliyaviy koeffitsientlardan foydalaniladi:

aylanma aktivlarni o‘z manbalari bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti (koeffitsientning mezoni  $\geq 1$ ); joriy likvidlilik koeffitsienti (koeffitsientning mezoni  $\geq 2$ ); avanslangan kapital aylanish intensivligi (koeffitsientning mezoni  $\geq 2,5$ ); menejment koeffitsienti ( $Y_aF/ST$ ),  $\geq (n-1) / r$ , (koeffitsientning mezoni  $\geq 2$ ); xususiy kapital rentabelligi (koeffitsientning mezoni  $\geq 0,2$ ).

Rasmiy reytinglarning asosiy maqsadi investorlarga investitsion siyosatni shakllantirishga xizmat qiladigan axborotni taqdim etishdir. Reyting investorga o‘z

<sup>95</sup> Бабушкина Е.А. Методика сравнительной рейтинговой оценки финансового состояния по данным финансовой отчетности как важнейший элемент антикризисного управления.

Оренбургский государственный университет. <https://www.sworld.com.ua>

vaqtida va to'liq foizlar qaytarilishi hamda yo'naltirilgan mablag'lar qaytishi borasidagi ehtimollikning egri tavsifi, ya'ni risk tavsifi<sup>96</sup>.

Hozirgi davrda kredit reytinglari reytingning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. U barcha ilg'or xalqaro reyting agentliklari (Standart&Poor's, Moody's, Fitch IBCA) tomonidan qo'llaniladi. Kredit reytingi - qarzdorning standartlashgan risk omillari tahliliga asoslangan umumiy kreditga layoqatliligi yoki aniq qarz majburiyatlari bo'yicha kreditga layoqatliligi borasida agentliklar ekspertlarining fikridir. Kredit reytingi asosida shakllangan axborotdan investorlar moliyaviy instrumentlar va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishda foydalanishlari mumkin.

### **7.3. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari**

Har qanday korxonaga kelgusi faoliyati rivojlanish istiqbollari joriy davrdagi faoliyatining samaradorligi darajasiga bog'liqdir.

Faoliyatning samaradorligi korxonaning resurs potentsiali va undan oqilona foydalanish qobiliyatini anglatadi. Aynan faoliyat samaradorligi korxonaning foyda hajmiga ta'sir etadigan muhim omildir.

---

Korxonalarining iqtisodiy samaradorligi sarflangan resurslar va erishilgan natija o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish xarajatlarni kamaytirish hamda foyda hajmini oshirish imkonini beradi.

Faoliyatning asosiy yo'nalishi hisoblangan xo'jalik faoliyatining samarasi har bir jarayonning bosqichma-bosqich to'g'ri tashkil qilinishiga bog'liq. Xo'jalik jarayonlarining har bir ishtirokchisi o'z faoliyati yo'nalishini yaxshi bilishi va undan olinadigan samarani taxminlay olishi, umumiy xo'jalik faoliyati natijasining samaradorligiga olib keladi.

---

<sup>96</sup> Чайковский А.А. Рейтинговые оценки и их формирование в отраслевой экономике. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2008.

To‘g‘ri qo‘yilgan strategik maqsad va vazifalar, natijani oldindan ko‘ra bilish qobiliyati faoliyat samarasining muvaffaqiyatliligini tahminlaydi. Har bir vazifaning ijrosini ta‘minlash uchun aniq muddatlarning belgilanishi juda muhim jihatdir.

Samaradorlik – bu korxonaning moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalanish darajasi, yuqori moliyaviy natijalarga erishish uchun vositadir<sup>97</sup>.

“Samaradorlik” so‘zi lotincha “effectus” so‘zidan olingan bo‘lib, “harakat, bajarish” ma‘nolarini anglatadi.

Iqtisodiy samaradorlik – iqtisodiy samara va ushbu samarani yuzaga keltirgan xarajatlar o‘rtasidagi nisbatni ifodalaydigan ko‘rsatkichdir<sup>98</sup>.

**Ishlab chiqarish samaradorligi** — korxonada miqyosida iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dasturlar va tadbirlarning foydali natijalar berishi, olingan iqtisodiy samaraning muayyan qiymatga ega bo‘lgan resurslarni qo‘llagan holda eng yuqori ishlab chiqarish hajmiga erishishga sabab bo‘lgan ishlab chiqarish omillari, resurslar sarflariga nisbati bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi; ishlab chiqarish vositalaridan va kapitaldan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari bilan aniqlanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi texnik samaradorlik (ishlab chiqarish hajmi), iqtisodiy samaradorlik

---

(mehnat unumdorligi, mehnat resurslari, asosiy fondlar, aylanma resurslar), ijtimoiy samaradorlik (moddiy resurslar, foyda) hisobiga shakllanadi. Ishlab chiqarish samaradorligini hisoblashdan maqsad samaradorlikka nimalar hisobiga erishilganini aniqlash va yana qanday omillar evaziga uni oshirish mumkinligini belgilashdan iborat<sup>99</sup>.

---

<sup>97</sup> Абдукаримов И.Т., Тен Н.В. Эффективность и финансовые результаты хозяйственной деятельности предприятия: критерии и показатели их характеризующие, методика оценки и анализа. Журнал “Социальноэкономические явления и процессы. № 5-6 (027-028), 2011.

<sup>98</sup> Зыкова, Н. В. Исследование подходов к оценке эффективности деятельности организации / Н. В. Зыкова // Экономика и менеджмент инновационных технологий. 2014. №12. С. 22-24.

<sup>99</sup> <https://uz.wikipedia.org>

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar raqobatbardoshligi va kelajakda ular faoliyatining maqsadga muvofiqligi, eng avvalo, samaradorlikka bog‘liqdir. Moliyaviy faoliyat samaradorligi tashqi investorlar, moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bo‘yicha hamkorlar, mulkdorlar uchun moliyaviy jozibadorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois korxonaning joriy, o‘tgan va kelgusi faoliyati moliyaviy natijalarini baholash muhim ahamiyat kasb etadi<sup>100</sup>.

